IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI


GAZETA 1992-YILNING 24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN / 2026-YIL 30-OKTABR / 44-SON (3210)

VATANPARVAR

...Bir tan böl,
Bir söz böl,
Bitta tugun böl –
Faqat bitta yurak,
Faqat bitta boş.

Usmon AZIM,
Özbekiston xalq şoiri





ÖZLIKNI ANGLAŞ TARANNUMI

esse

2026-yil 21-oktabr. Qaşqadaryo vohasining qadimiy va mehnatkaş hududlaridan biri bölgan Qamaşi tumanidagi Çim mahallasi hayotidagi uşbu kun unutilmas voqea sifatida tarixga muhrlandi. Çunki Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyevning mahallaga taşrifi, bu yerda amalga oşirilgan bunyodkorlik işlari bilan tanişuvi va aholi bilan samimiy muloqoti mahalla taraqqiyotining bugungi manzarasini namoyon etdi.

MOZIYGA BIR NAZAR...

Keling, biz ham uluğ adib Abdulla Qodiriyning “Moziyga qayitb iş körmoq xayrlidir”, degan purma’no sözlariga amal qilib, Çim mahallasining ötmişi haqida şu joyda yaşovçi iste’dodli adib, qator öqimişli asarlar muallifi Temirpölat Tillayevning fikrlariga quloq tutsak.

– Çim – Qamaşi tumanidagi eng qadimiy qişloqlardan biri sanaladi. Oğzaki manbalarda bu qişloqning tarixi juda uzoqlarga borib taqaladi. Bu haqda juda köplab rivoyatlar, hikoyatlar va naqllar bor. Yozma manbalar nuqtayi nazaridan qişloq tarixi deyarli örganilmagan. Hozirça marhum adib Tursunboy Boymirovning “Çim fidoyi insonlar yurti” kitobi bu qişloq haqidagi yagona yozma manbadir. Lekin ayni kunlarda bu kitobni topib öqiş ham muşkul iş – çunki kitob juda kam nusxada çop etilgan. Oğzaki manbalar böyiça ham, yozma bitiklar asosida ham bir fikr ustuvorlik qiladi: “Çim” nomi bu yerlar bir vaqtlar çimli, ya’ni maysali daştliklardan iborat bölgani uçun qişloq nomi “Çim” deb atalgan. Çim qişloğining kunçiqar tomonida Qamaytepa arxeologik yodgorligi bor. 1964–1966-yillarda Qaşqadaryo arxeologiya-topografiya ekspeditsiyasi tomonidan N. Kraşeninnikova va S. Lunina iştirokida Qamaytepada arxeologik qazilma işlari olib borilgan. Bu ilmiy tadqiqot davomida Qamaytepadan qölida dumaloq meva uşlab turgan haykalça topilgan va uning milodiy V asrga tegişli ekani aniqlangan. Bu esa hozirgi Çim qişloği hududida bundan bir yarim ming yil oldin ham odamlar yaşaganini dalil etadi. Buxoro amirligi davrida, aniqroği, 1753–1920-yillarda Çim qişloği ma’muriy xöjalik yurituviga ega manzilgoh bölgan. Muarrix Muhammad Sodiqxöja Gulşaniyning 1909-yilda yozilgan “Tarixiy Humoyun” asarida keltirilişiça, Buxoro amirligi davrida Çim qişloğida Amlokdor va Qozi faoliyat olib borgan. Demak, Çim amlokdori va Çim qozisi rutbalarining borligi Çim qişloğining manğitlar hukmronligi davrida özига xos ma’muriy boşqaruv markaziga ega qişloq bölganini bildiradi.



MAHALLA – ISLOHOTLAR MASKANI

Bugun mahalla faqat odamlar istiqomat qiladigan hudud emas, balki ijtimoiy hayot, hamjihatlik, tarbiya va taşabbuslar markazi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Çim mahallasida amalga oşirilayotgan işlar ham ana şu yondaşuvning amaliy ifodasidir. Çim katta qişloq va unda 20 mingdan ortiq aholi yaşaydi. Şundan Çim mahallasida 5,5 ming nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi va ularning qariyb yarmini yoşlar taşkil etadi. Şu örinda ta’lim faxriysi Çori Röziyevning sözlariga quloq tutaylik.

– Men tumanimizdagi 42-maktabda dastlab texnologiya fani öqituvçisi, sönggi 21 yil mobaynida Ma’naviyat va ma’rifat işlari böyiça direktor örinbosari vazifasida işladim. 2024-yil mehnat faoliyatimni tugatar ekanman, rostini aytsam, juda xafa bölib ketdim. Çunki hayotimni maktabsiz, öquvçilarsiz tasavvur eta olmasdim-da... Biroz tuşkunlikka ham tuşdim. Nahotki, umr va vaqt degani şunçalik tez ötib ketdi. Bir qöşiqda bor-ku: “Men umrni körmay qolibman”.

Xayriyatki, men kabi keksa nuroniylarga ham yana iş topildi. “Bir nuroniy – ön yoşga mas’ul” tamoyili Özbekistonda yoşlar tarbiyasini yaxşilaş, ularni milliy qadriyatlar va ezgu ğoyalar ruhida kamol toptiriş hamda keksa avlod vakillarining hayotiy tajribasidan foydalaniş maqsadida joriy etilgan. Bu vazifa biz nuroniylarga juda qöl keldi. Men ham mahallamdagi ön nafar yoş bilan işlaşni yölga qöydim. Ularga faqat ma’naviy quvvat emas, balki moddiy yordam, qolaversa, har birini işga joylaştirib, jamiyatda, qişloqdoşlari örtasida öz örnini topişga yordam berdim. Tumanimizda 57 ta mahalla örtasida ötkazilgan “Bir nuroniy – ön yoşga mas’ul” tanlovida 1-örinni, viloyat bosqiçida 2-örinni egallaganim kuçimga-kuç, ruhiyatimga ğayrat qöşdi.

Mana şunday imkoniyatlar bergan Yurtboşini e’zozlamay böladimi?

Çim mahallasida infratuzilmani yangilaş uçun 55 milliard söm mablağ yönaltirilgan. Uşbu mablağlar hisobidan 240 örinli maktabgaça ta’lim taşkiloti, 640 örinli umumta’lim maktabi, mahalla va yoşlar markazlari hamda istirohat boği barpo etilgan. Şuningdek, 4,5 kilometr yöl qurilib, elektr ta’minoti va suğoriş tarmoqlari yangilangan. Bu raqamlar ortida aholi kundalik hayotiga daxldor amaliy natijalar mujassam. Bolalarning maktabgaça ta’lim olişi, öquvçilarning zamonaviy şaroitlarda bilim egallaşi, yoşlarning böş vaqtini mazmunli ötkazişi va mahalla ahlining qulay infratuzilmadan foydalanişi uçun imkoniyatlar kengaymoqda. Zero mahallaning obodligi faqat yangi binolar yoki ravon yöllar bilan ölçanmaydi. Uning haqiqiy qiyofasi odamlarning turmuş tarzi, oilalar farovonligi, farzandlar ta’limi va kelajakka bölgan işonçda namoyon böladi.

BOLALAR – MAHALLA KELAJAGI

Davlat rahbari taşrifi davomida mahalla markazidagi öyingohda bolalar va ularning onalari bilan suhbatlaşdi. Bu muloqotda bolalar uçun yaratilgan şaroitlar, ularning ta’lim-tarbiyasi va oilalarning hayotiga daxldor masalalar muhim örin tutdi. Bola baxtli bölib ulğayişi uçun avvalo, uning atrofida mehr-oqibatli insonlar, xavfsiz öyin maydonlari, sifatli ta’lim va soğlom tarbiya bölişi zarur. Şu ma’noda, Çim mahallasida barpo etilgan boğça, maktab va istirohat boği aholining ijtimoiy ehtiyojlariga xizmat qiluvçi muhim maskanlardir. Bolalarga e’tibor – kelajakka e’tibor. Bugun maktabda bilim olayotgan, kitob mutolaa qilayotgan, sport va ijod bilan şuğullanayotgan yoşlar ertaga mamlakat taraqqiyotiga hissa qöşadigan mutaxassislar, olimlar, tadbirkorlar va ziyolilar bölib yetişadi. Şuning uçun ham mahalladagi bunyodkorlik işlarining eng muhim mezoni ularning inson hayotiga qanday ta’sir körsatişi, ayniqsa, yoş avlodning kamoloti uçun qanday imkoniyatlar yaratişi bilan belgilanadi.



KITOBXON EL – KAM BÖLMAYDI

Prezidentimizning Çim mahallasidagi 10 mingdan ortiq kitob fondiga ega bölgan yangi yoşlar kutubxonasiga taşrifi ham alohida ahamiyatga ega böldi. Davlatimiz rahbari kitobxon yigit-qizlar bilan suhbatlaşib, ularning maqsadlari va kelajak rejalari bilan qiziqdi. Kitob – inson tafakkurini boyitadigan, dunyoqaraşini kengaytiradigan, qalbida ezgulik va mas’uliyat tuyğularini şakllantiradigan ma’naviy xazina. Kitobxon yoşlar köpaygan joyda ilmga intiliş, mustaqil fikrlaş va milliy qadriyatlarga hurmat muhiti mustahkamlanadi. Prezidentimizning quyidagi fikrlari bu boradagi ma’naviy vazifalarning mazmun-mohiyatini ifodalaydi:

“Bugun tilimizga, millatimizga va özligimizga bölgan ehtirom tobora yuksalmoqda. Odamlar yana kitob öqişga intilyapti. Ota-bobolarimizdan qolgan ma’naviy merosni qayta tiklayapmiz. Qamaşining Çim mahallasida ham şunday ma’naviy muhit, şunday şaroitlar yaratilmoqda”.

Şu örinda bugungi milliy adabiyotimizning xazinasiga munosib hissa qöşayotgan va ayniqsa, “Qörqma” romani bilan kitobxonlar mehrini qozongan yoş adib Javlon Jovliyevga erişayotgan ijodiy muvaffaqiyatlari va yangi “Katta qizlar” romani uçun Yurtboşimiz tomonidan poytaxtdan ikki xonali uy berilişi barçani tölqinlantirib yubordi. Şuningdek, respublikada ötkazilgan “Yoş kitobxon oila” tanlovi ğoliblari Baxtişod Raşidov va E’zoza Xuşvaqtovaga ham Toşkent şahridan ikki xonali yangi xonadonlar sovğa qilindi.

Yana şuni ta’kidlaş lozimki, Çimdan – Temirpölat Tillayev, Suyun Şukurov, Faroğat Xudoyqulova, Bayram Ali, Abdulatif Abdullayev, Yunus Böronov, Akbar Jonuzoqov, Nazarali Tillayev, Sanjar Eşmurodov kabi taniqli adib va şoiralar, mohir jurnalistlar yetişib çiqqan. Darhaqiqat, ona tiliga hurmat, adabiyotga muhabbat va milliy merosni örganiş va avaylab asraş jamiyat ma’naviy hayotining muhim asoslaridir. Adabiyot va san’at insonni ezgulikka çorlaydi, tarixiy xotirani mustahkamlaydi va avlodlar örtasidagi ma’naviy boğliqlikni saqlaydi. Çim mahallasida yoşlar kutubxonasining faoliyat yuritişi, kitobxonlikka qiziquvçi yigit-qizlar uçun şaroit yaratilişi ana şu maqsadlarga xizmat qiladi. Endi asosiy vazifa – uşbu imkoniyatlardan samarali foydalaniş, kitobxonlikni oilalar va ta’lim muassasalari hayotining ajralmas qismiga aylantiriş.

YOŞLAR TA’LIMI – YURT ISTIQBOLINING MUHIM OMILI

Uçraşuvda oliy ta’lim imkoniyatlarining kengayişi, bilimli va Vatanini sevadigan kadrlarni tayyorlaş masalalariga ham e’tibor qaratildi. Prezidentimiz keltirgan ma’lumotga köra, ilgari har 100 nafar yoşdan 9 nafari oliy ta’limda öqigan bölsa, bugun uşbu körsatkiç 45 nafarga yetgan. Bu raqamlar yoşlarning bilim olişi, zamonaviy kasblarni egallaşi va öz salohiyatini namoyon etişi uçun imkoniyatlar kengayayotganini körsatadi.

Çim mahallasida joylaşgan “Nova Education” öquv markazining asosçisi – olim va muallim Behzod Eşqobilovning işlari ayniqsa diqqatga sazovor. Bu haqda muallimning özi şunday dedi:

– Niyatim va orzum ta’lim oliş uçun vaqtini va mablağini sarflab, şahardagi öquv markazlariga qatnayotgan mahallamiz bolalariga şu yerda ta’lim beriş orqali öz tuğilgan elimga xizmat qiliş, ilmga taşna qişloq bolalarini olis şaharlardagi ta’lim markazlaridagi kabi oliy öquv yurtlariga tayyorlaşdir.

Buning uçun öquv markazimizda abituriyentlarni oliy öquv yurtlariga puxta tayyorlaş niyatida deyarli barça asosiy fanlarni qamrab olganmiz. Özim va turmuş örtoğim Sevaraxon bilan birga öz fanining bilimdoni bölgan önga yaqin mutaxassis faoliyat olib boryapmiz.

Öquvçilarimizning aksariyat qismi milliy va xalqaro sertifikatlarga ega bölib, oliygoh talabasi bölmoqda. Erişayotgan natijalarimizni eşitib, körib turgan qöşni qişloq bolalari ham şahardagi öquv markazlarini emas, bizning markazimizni tanlayotgani quvonarli. Maqtanişga yöymang-u, har yili öquvçilarimizning sakson foizidan oşiği oliy öquv yurtlariga asosan, davlat granti böyiça talabalik baxtiga erişmoqda. Faxrlanadigan tomoni, ularning içida nomdor stipendiya oluvçilarning soni yildan yilga köpaymoqda.

– Maşhur filmlarning birida: **“Yaşaş yaxşi, yaxşi yaşaş undan ham yaxşi”**, degan ibora bor. Albatta, yaxşi yaşamoq uçun yaxşigina ter tökiş ham kerak. Bugungi ta’lim tizimidagi islohotlar yaxşi va halol işlaganlarning yaxşi yaşaşi uçun me’yoriy asoslar yaratib berdi. Biroq ta’lim sohasidagi natijalar faqat oliygohga kiriş bilan çeklanmaydi. Yoşlarning puxta bilim olişi, xorijiy tillarni örganişi, axborot texnologiyalarini özlaştirişi va tanlagan kasbi böyiça malakali mutaxassis bölib yetişişi ham muhimdir. Qamaşi tumani, xususan Çim mahallasi yoşlari uçun yaratilgan şaroitlardan unumli foydalaniş, oliy ta’lim va kasb-hunar imkoniyatlarini töğri baholaş katta ahamiyatga ega. Mahalla, oila va ta’lim muassasalari hamkorligida yoşlarning qobiliyatini aniqlaş, ularni ilm-fan, kitobxonlik, sport va tadbirkorlikka yönaltiriş orqali kelajakdagi taraqqiyot uçun mustahkam zamin yaratiş mumkin.

BANDLIK VA DAROMAD MANBAI – OILA FAROVONLIGI ASOSI

Aholi bandligini ta’minlaş va oilalar daromadini oşiriş Çim mahallasida amalga oşirilayotgan işlarning muhim yönalişlaridan biridir. Mahallada xotin-qizlar mehnat qilayotgan gilamçilik va kaştaçilik korxonasiga 3,5 milliard söm investitsiya kiritilgan. Bu kabi işlab çiqariş yönalişlari milliy hunarmandçilik an’analarini saqlaş bilan birga, xotin-qizlar uçun daromad topiş imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Gilamçilik va kaştaçilik xalqimizning köp asrlik amaliy san’ati namunalari hisoblanadi. Uşbu hunarlarni zamonaviy işlab çiqariş va bozor talablari bilan uyğunlaştiriş orqali mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoşligini oşiriş, yangi iş örinlari yaratiş mumkin. Mahallada oilaviy tadbirkorlikni qöllab-quvvatlaş doirasida issiqxonalar taşkil etiş işlari ham amalga oşirilgan. Banklar kömagida 20 ga yaqin xonadonda umumiy maydoni 36 sotix bölgan issiqxonalar barpo etilgan. Yetiştirilgan mahsulotlarni saqlaş uçun 200 tonna siğimli muzlatkiç qurilgan. Rasmiy ma’lumotlarga köra, uşbu işlar natijasida 80 nafardan ortiq işsiz fuqaroning bandligi ta’minlangan. Bu tajribaning muhim jihati şundaki, xonadon imkoniyatlaridan samarali foydalaniş orqali oilaviy daromadni köpaytirişga şaroit yaratilmoqda. Issiqxona xöjaligi aholiga mavsumiy mahsulot yetiştiriş, bozor talabini örganiş va öz mehnati natijasidan daromad oliş imkonini beradi. Şuningdek, mahallada kooperatsiya asosida limonçilik rivojlantirilmoqda.

Bundan öttiz yil avval Çim yaqinidagi Qoraqöton qişloğida yaşovçi muallim Şoymardon Möminov bir sabab bilan Surxondaryoga borib, ön tup limon köçatini olib keldi va 3 sotix joyga qadadi. Muallimning bu işini körgan hangomatalab oğaynilari: “Şoymardon tuşida xuddi xitoyliklarday limon yetiştiribdi”, deb kulgandi. Buni qarang, oradan ikki yil ötib, limonlar ilk hosilini berdi. Muallim ham haligi “oğayni”larini uyiga çaqirib, limondan ulaşdi. Muallim bu bilan töxtab qolmadi.

– Bugungi kunda odamlar tomorqasida işlaşning hadisini oldi. Tabiiyki, qunt va hafsala ila qilingan mehnat, yaratuvçanlik tufayli har birimizning rözğorimiz but bölmoqda, – deydi Şoymardon Möminov işonç bilan. – Yaratganga şukur, mehnatimizga yaraşa daromadimiz ham çakki emas. Töylar qilyapmiz, uy quryapmiz. Mamlakatimizda işlab çiqarilgan yangi maşinadan xarid qildik. Farzandlarimizni öqityapmiz. Insonga bundan ortiq yana nima kerak!

Prezidentimizdan “Özbekistonda xizmat körsatgan qişloq xöjaligi xodimi” unvonini olişga muşarraf bölgan Abdumannop Xudoyberdiyev ham Şoymardon muallimning epli şogirdlaridan. Xalqimizda “Ustozidan özmagan şogird – şogird emas” degan naql bor.

Abdumannon ham hovlisidagi issiqxonasida limon köçatlari yetiştirişni yölga qöyiş bilan birga, yoğingarçilik orqali töldiriladigan 50 tonnalik hovuz qurdi. Yiğilgan suv tomçilatib suğoriş texnologiyasini qöllaş orqali bir yilga bemalol yetadi. Tadbirkor bugungi kunda viloyatning barça tumanlariga limon köçatlari yetkaziş, ekiş va köçatlarni parvariş qiliş xizmati bilan şuğullanadi.

Suhbat davomida usta boğbon viloyatning Kökdala va Çiroqçi tumanlarida bu sohaga qiziqiş ortib borayotganini aytdi.

Çimda dehqonlarga köçat, öğit va agrotexnik xizmatlar yetkazib berilib, yetiştirilgan hosilni kafolatlangan narxda sotib oliş mexanizmi yölga qöyilgan. Limon köçatlari orasiga kartoşka, brokkoli va kökatlar kabi ekinlarni ekiş hisobiga daraxtlar hosilga kirgunga qadar har bir issiqxonadan qöşimça 14–16 million söm daromad oliş imkoniyati qayd etilgan. Bunday yondaşuv yer va suv resurslaridan oqilona foydalaniş, mahsulot turlarini köpaytiriş hamda oilaviy xöjaliklarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaşga xizmat qiladi.



TADBIRKORLIK RIVOJI –YANGI IMKONIYATLAR DEMAK

Çim mahallasida kiçik biznes va xizmat körsatiş sohasini rivojlantiriş böyiça ham muayyan natijalarga erişilgan. Rasmiy ma’lumotlarda keltirilişiça, mahallada 70 ta tadbirkor öz faoliyatini kengaytirgan, yana 20 ta yangi tadbirkorlik subyekti taşkil etilgan. Avtomagistral böyidagi xizmat körsatiş obyektlari soni 31 tadan 137 taga yetkazilib, 200 dan ortiq yangi iş örni yaratilgan. Xizmat körsatiş sohasining kengayişi mahalliy aholi uçun yangi kasb va mehnat imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Savdo, umumiy ovqatlaniş, maişiy xizmatlar va boşqa yönalişlardagi tadbirkorlik taşabbuslari hudud iqtisodiyotining faollaşişiga yordam beradi. Bunda tadbirkorlarning faoliyatini qöllab-quvvatlaş bilan bir qatorda, yaratilgan iş örinlarining barqarorligi, mehnat şaroitlari va aholi daromadlarining ösişiga ham e’tibor qaratiş zarur. Çunki tadbirkorlikning asosiy natijasi faqat yangi korxona oçilişida emas, balki odamlarning muntazam daromad manbaiga ega bölişi, oilalar farovonligi va hudud iqtisodiy hayotining rivojlanişida namoyon böladi.

QIŞLOQ XÖJALIGI VA KOOPERATSIYA: XONADONLAR IMKONIYATIDAN SAMARALI FOYDALANIŞ

Çim va unga qöşni mahallalardagi 1,2 mingta xonadon kooperatsiya asosida farmatsevtika va kosmetika sanoatida işlatiladigan gulxayri ösimligini yetiştiriş bilan şuğullanmoqda. Uşbu yönaliş qişloq xöjaligi mahsulotlarini qayta işlaş sanoati bilan boğlaş, xonadonlar mehnatini umumiy işlab çiqariş zanjiriga jalb etiş va qişloq aholisi daromadini köpaytiriş imkoniyatini beradi.

“BBU Azamat” korxonasi 18 dan ortiq dorivor ösimlik yetiştirib kelmoqda.

Korxona hozirgi kunda bir qator top-brendli korxonalar bilan hamkorlikni yölga qöygan. Ular orasida “McDonald’s”, “Nutrilite” kabi korxonalar bor. Yillik eksport hajmi 1 mln dollarni taşkil qiladi. Butun dunyodan turli dorivor ösimliklarni yurtimizga olib kelib köpaytiriş böyiça izlanişlar olib boryapmiz. Faoliyatimiz avvalida 2 turdagi ösimlik yetiştirar edik. Hozirgi kunda 18 dan ortiq dorivor ösimlik yetiştirib, eksport qilmoqdamiz. Çet tillarni yaxşi özlaştirgan, axborot texnologiyalarini tuşunadigan bilimli yoşlarga ehtiyojimiz yuqori. Uşbu yoşlarni jalb qilsak, dorivor ösimliklarni özimizda qayta işlaydigan korxona oçiş imkoniyatimiz bor, – deydi korxona rahbari Azamat Çoriyev.

Kooperatsiyaning ahamiyati şundaki, dehqon mahsulot yetiştiriş bilan çeklanib qolmay, uning keyingi taqdiri – xaridorga yetkaziş, saqlaş va qayta işlaş jarayonlari bilan ham boğliq böladi. Bu esa bozor talabini hisobga olgan holda iş yuritişga yordam beradi. Albatta, bunday loyihalarning uzoq muddatli samarasi mahsulot sifati, bozor barqarorligi, agrotexnik bilimlar va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligiga boğliq. Şu sababli aholiga amaliy maslahatlar beriş, yetiştirilgan mahsulot uçun işonçli bozor yaratiş va kooperatsiya munosabatlarini mustahkamlaş muhim ahamiyat kasb etadi.



ÇIM TAJRIBASI VA UNING ISTIQBOLLARI

Prezidentning Çim mahallasiga taşrifi yakunida mahalla faollari va nuroniylar bilan suhbat bölib ötdi. Ular hududdagi özgarişlar haqida öz fikrlarini bildirib, yurt farovonligi va yoşlar kelajagi uçun ezgu tilaklarini izhor etdi. Nuroniylar duosi, mahalla faollarining taşabbusi va aholining hamjihatligi jamiyat hayotida muhim örin tutadi. Çunki mahalladagi har qanday islohotning muvaffaqiyati köp jihatdan uning aholisi iştirokida, odamlarning ehtiyojlari va takliflarini hisobga olgan holda amalga oşirilişiga boğliq. Çimdagi özgarişlar infratuzilma, ta’lim, ma’naviyat, tadbirkorlik va bandlik kabi yönalişlarni bir-biri bilan boğliq holda rivojlantiriş zarurligini körsatadi. Maktab va boğça quriş bilan birga ta’lim sifatini oşiriş, yoşlar markazini taşkil etiş bilan birga ularning taşabbuslarini qöllab-quvvatlaş, iş örinlari yaratiş bilan birga aholi daromadlarining barqarorligini ta’minlaş muhimdir. Mahalla taraqqiyotining keyingi bosqiçida ham aholi fikrini örganiş, yoşlarning bilim olişi va kasb egallaşiga kömaklaşiş, xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oşiriş, kitobxonlikni rivojlantiriş hamda tadbirkorlik taşabbuslarini rağbatlantiriş dolzarb vazifalar bölib qoladi. Şu örinda Qamaşining Boyböri mavzesida yaşab ijod qilayotgan keksa ijodkor, Özbekiston Yozuvçilar uyuşmasi a’zosi Sayfulla Al-Murodning quyidagi şe’riy misralari yodimga tuşdi.

> *Jonkuyar, tanti, mard sarbonim bordir,*
> *Şu yöldan ketsak, biz zafar bisyordir.*
> *Xalqimga hamişa quvonçlar yordir,*
> *Şukrona qilaman, ötgan kunimga.*

Örolboy QOBIL,
Özbekiston Yozuvçilar uyuşmasi a’zosi





Ibn Sino tibbiyotida HARBIY HIYLALAR

Buyuk alloma va olim Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Sino Buxoriy *(980–1037)* öz davrining deyarli barça fan sohalari bilan şuğullangan, ayniqsa tibbiyot ilmidagi işlari bilan dunyoga tanilgan. Uning tibbiyotning turli yönalişlariga oid qaraşlari yaxşi örganilgan bölsa-da, harbiy tibbiyotga doir fikrlari yetarliça tadqiq etilmagan. Vaholanki, olim asarlarida harbiy hiylalar, askarlarning oziq-ovqati, jarohatlarni davolaş va qöşin sanitariyasi kabi masalalar yoritilgan.



Tibbiyot bilan boğliq harbiy hiylalarda köp sonli qöşin va qurol-yaroğ işlatmasdan, tibbiy bilimlardan foydalanib duşmanni mağlub etiş közlangan. Örta asrlarda bunday usullardan biri duşman hukmdori, sarkardalari yoki qöşinini zaharlaş bölgan. Bunda zahar aralaştirilgan oziq-ovqat va içimliklardan foydalanilgan.

Abu Ali ibn Sino tabobatida zaharlarning turlari, zaharlanişning oldini oliş va zaharlangan kişini davolaş usullari batafsil bayon qilingan. Jumladan, olim özining “Kitob al-qonun fi-t-tibb” *(“Tibbiyotdagi qonun-qoidalar haqida kitob”)* asarida zahar ta’siridan xavotirlangan kişilarga öta nordon, şör, şirin ta’mli va ötkir hidli taomlardan saqlanişni tavsiya etadi. Çunki bunday taomlar zaharning hidi va ta’mini yaşirişga xizmat qilişi mumkin.

Ötmişda zaharlaş orqali siyosiy raqiblarni yöq qiliş hollari ançagina uçragan. Masalan, Tohiriylar sulolasining asosçisi, Arab xalifaligining Turondagi voliysi Tohir ibn Husayn Buşanjiy *(taxminan 775–822)* zaharlangan içimlik berilişi oqibatida halok bölgan. Tarixçi IBN al-Vozih Ya’qubiy va Muhammad ibn Jarir Tabariy ma’lumotlariga köra, Tohir umrining sönggi yilida xalifa Ma’munga *(813–833)* qarşi çiqa boşlagan. Şundan söng xalifa xizmatidagi Muhammad ibn Farrux Umraqiy unga qarşi yuboriladi. U qariyb bir oy Tohirning yonida yaşaydi. Şu muddat içida Umraqiy jiyani Tohirni zaharlaydi. Köp ötmay, sarkarda öz uyida ölik holda topiladi.

Bu voqeadan körinadiki, Tohirning xalifalikka qarşi çiqişi Ma’munga ma’qul kelmagan. Isyonni katta qöşin bilan bostirib, köp qon tökiş örniga, uni zaharlaş orqali bartaraf etişga uringan. Demak, zaharlaş öşa davrda siyosiy maqsadlarga erişiş va raqibni oçiq töqnaşuvsiz yöq qiliş vositalaridan biri bölgan.

Ibn Sino zaharlanişdan saqlaniş uçun yana bir muhim jihatga e’tibor qaratadi. Uning ta’kidlaşiça, zaharlanişdan qörqqan kişi haddan taşqari oç yoki çanqoq holatda şubhali joylarda taom va içimlik iste’mol qilmasligi kerak. Çunki oçlik va çanqoqlik odamni şoşqaloqlikka undab, ehtiyotkorlikni unutişiga sabab bölişi mumkin. Natijada u zaharlangan yegulik yoki içimlikni tekşirmasdan iste’mol qilib qöyişi ehtimoli ortadi.

Tarixda bunday ehtiyotsizlik bilan boğliq bölişi mumkin bölgan voqealar ham uçraydi. Tarixçi Ya’qubiy, Tabariy va Jaloliddin Suyutiylarning asarlarida Hazrat Ali avlodidan bölgan imom va olim, xalifa Ma’munning valiahdi Ali Rizo ibn Muso zaharlangan anorni iste’mol qilgaç, uç kun kasal yotib, vafot etgani qayd etiladi. Uning valiahd etib tayinlanişi köpçilikka ma’qul kelmagan, xalifalik taxtiga ötirişiga qarşilik körsatganlar ham bölgan. Şu bois uning ölimi ortida siyosiy manfaatlar turgan bölişi mumkin.

Manbalarda zaharlangan anorni kim bergani borasida turliça ma’lumotlar keltiriladi. Ayrimlar anorni xalifa Ma’mun yuborganini aytsa, boşqalar bu işni xalifa saroyi qöriqçisi, Bağdod, Jibol va Ozarbayjon voliysi Ali ibn Hişom Marvaziy bilan boğlaydi. Bu tafovutlar voqeaning barça tafsilotlari aniq emasligini körsatsa-da, Ali Rizo ölimining siyosiy jihatini örganiş uçun asos beradi.

Anor odatda zaharli meva hisoblanmaydi. Uni köp iste’mol qiliş ayrim noxuş holatlarni keltirib çiqarişi mumkin, biroq öz-özidan ölimga sabab bölişi odatiy emas. Ali Rizonining uç kunlik xastalikdan söng vafot etgani esa zaharlaniş ehtimolini körib çiqişga undaydi. Manbalardagi ma’lumotlarni tahlil qiliş bu voqea siyosiy manfaatlar bilan boğliq bölişi mumkinligini körsatadi. Bunday harakat bir kişini yöq qiliş orqali katta töqnaşuv va köplab qurbonlarning oldini olişni közlagan harbiy-siyosiy hiyla sifatida ham baholanişi mumkin.

Ibn Sino zaharlaniş xavfini kamaytirişning yana bir yöli sifatida zaharga qarşi dorilarni iste’mol qilişni tavsiya etgan. Uning qaraşlariga köra, bunday vositalarni muntazam qabul qiliş organizmning zahar ta’siriga çidamliligini oşirişi, zaharlaniş yuz berganda esa uning oqibatlarini yengillaştirişi mumkin. Olim zaharga qarşi vositalar qatorida mitridat, Rum loyidan tayyorlangan ma’jun, gazaköt bargi, anjir, yonğoq, turli tuzlar, parpi, buho va şolğom uruğini sanab ötadi. Abu Rayhon Beruniyning “Kitob al-jamohir fi ma’rifat al-javohir” *(“Qimmatbaho toşlarni biliş haqida kitob”)* va “Kitob as-saydana fi-t-tibb” *(“Tibbiyotdagi dorişunoslik haqida kitob”)* asarlarida ham uşbu vositalarning ayrimlari haqida ma’lumotlar uçraydi.

Zaharlanişning oldini olişning törtinçi yöli sifatida Ibn Sino zaharning özini oz miqdorda iste’mol qilib, organizmda unga qarşi çidamlilik hosil qiliş usulini ham keltiradi. Olimning yozişiça, qadimda ayrim keksa ayollar zaharni juda oz miqdordan boşlab muntazam iste’mol qilgan va vaqt ötişi bilan tanalari unga könikkan. Natijada zahar ularga avvalgidek ta’sir körsatmagan. Albatta, bunday çidamlilik barça zaharlarga birdek taalluqli bölmagan, balki organizm muayyan moddalarga moslaşgan bölişi mumkin.

Ibn Sino “Kitob al-qonun fi-t-tibb” asarida zaharlanişning asosiy alomatlari sifatida kuçli isitmalaş, köp terlaş, közlarning qizarişi, köngil aynişi, çanqaş, oğir uyqu, uvuşiş, sovqotiş va sovuq ter bosişini sanab ötadi. Agar zaharlangan kişi huşidan ketib, közlari olayib, qoraçiqlari körinmay qolsa, közlari qizarib, tili osilib qolsa, uning tuzalişidan umid kamligini ta’kidlaydi. Tomir urişi susayib, badanini sovuq ter bosgan kişining ham tirik qolişi qiyin bölgan.

Tarixda ayrim hukmdor va sarkardalarning ölimi oldidan şunga öxşaş alomatlar kuzatilgani ularning zaharlangan bölişi ehtimolini örganişga asos beradi. Masalan, xalifa Ma’mun Rumga yuriş qilayotganida tösatdan qaltirab, sovqota boşlaydi. Uni isitiş va davolaşga urinişlar samara bermaydi, natijada xalifa vafot etadi. Bu haqda Jaloliddin Suyutiy öz “Tarix al-xulafo” *(“Xalifalar tarixi”)* asarida ma’lumot beradi.

Ma’munning ölimi haqida Tabariy ham boşqa bir ma’lumotni keltiradi. Unga köra, xalifa ölimidan oldin xurmo yegisi kelib, uni köp iste’mol qilgan, şundan söng qattiq isitmalab, köp ötmay vafot etgan. Xurmo zaharlangan bölişi ehtimolini butunlay inkor etib bölmaydi. Biroq mavjud ma’lumotlar xalifaning zaharlanganini qat’iy tasdiqlaş uçun yetarli emas. Şunga qaramay, uşbu voqea Ibn Sino ta’kidlaganidek, oçlik yoki kuçli istak ta’sirida taomni tekşirmasdan iste’mol qiliş xavfli bölişi mumkinligi haqidagi qaraşlar bilan qiyoslaşga imkon beradi.

Ibn Sino “Kitob al-qonun fi-t-tibb” asarida zaharlar kelib çiqişiga köra uç guruhga ajratilgan: mineral moddalar, ösimliklar va hayvonlardan olinadigan zaharlar. Mineral zaharlar qatorida simob, qörğoşin, margimuş, zangor, ohak va boşqa moddalar; ösimliklardan olinadigan zaharlar orasida akonit, farfiyun, saqamuniyo, yattu’lar va ayrim zaharli ösimliklar; hayvonlardan olinadigan zaharlar orasida esa olakulang, dengiz quyoni, gekkon, buqalamun, salamandra, turli qurbaqalar hamda buzilgan hayvon mahsulotlari qayd etilgan.

Olim bayon etgan ma’lumotlarga köra, zaharli moddalar ayrim hollarda öz holiça, boşqa vaziyatlarda esa oziq-ovqat va içimliklar tarkibida uçraşi mumkin bölgan. Bu holat, ayniqsa harbiy yurişlar va jangovar vaziyatlarda xavf tuğdirgan. Uzoq yöl bosib çarçagan, oç yoki çanqagan hukmdor va sarkarda taom tanlaşda ehtiyotsizlik qilişi mumkin edi. Şuningdek, Ibn Sino ayrim taom va içimliklarning özига xos ta’mi hamda hidi zaharlaniş xavfini payqaşni qiyinlaştirişi mumkinligiga e’tibor qaratgan. Şu bois olimning zaharlanişdan saqlaniş haqidagi qaraşlari nafaqat tabobat, balki harbiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan ham ahamiyatli bölgan.

Zaharlaniş bilan boğliq qiziqarli ma’lumotlardan biri Ibn Sinoning öz hayotiga ham taalluqlidir. Ibn Sinoning şogirdi Abu Ubayd Juzjoniy öz xotiralarida va ibn Abi Usaybi’a maşhur tabiblar haqidagi tazkirasida yozişiça, mutafakkir umrining sönggi yillarida kuçli qulanj kasalligiga çalinib, davolaniş uçun turli dorilarni qöllagan. Biroq uning xizmatkorlari mol-mulkini egallaş maqsadida

dorilariga afyun qöşib yuborgan. Natijada olimning ahvoli yanada oğirlaşib, bir neça kundan söng vafot etgan.

Ibn Sino öz asarlarida afyunning zararli ta'sirini ham batafsil bayon qilgan. Uning ta'kidlaşiça, afyun qöl-oyoqlarning uvuşub, sovişiga, nafas olişning qiyinlaşişiga va qon aylanişining buzilişiga olib kelişi mumkin. Oğir zaharlaniş esa ölim bilan yakunlanadi. Olim ikki dirham, ya'ni taxminan olti gramm afyun iste'mol qiliş ikki kun içida ölimga sabab bölişi mumkinligini qayd etgan. Ibn Sinoga berilgan afyun miqdori va uning ölimiga aynan nima sabab bölgani haqida qat'iy xulosa çiqariş qiyin. Şunga qaramay, bu ma'lumotlar örta asrlarda zaharlaniş xavfi va uning oqibatlari yaxşi anglanganini körsatadi. Abu Rayhon Beruniy ham öz asarlarida afyunning kuçli zaharli xususiyatiga e'tibor qaratgan.

Öşa davrlarda zaharlaşning yana bir usuli oziq-ovqat va içimliklarga zaharli jonivorlar yoki haşarotlarning tuşişi bilan boğliq bölgan. Ibn Sino qaynayotgan qozondagi taomga yoki may solingan idişga kaltakesak, çayon va boşqa zaharli jonivorlar tuşişi natijasida mahsulot zaharlanişi mumkinligini yozadi. Taom pişirilayotganda jonivorlar maydalanib ketişi, içimlikka tuşganlari esa uning tarkibida iz qoldirişi mumkin edi. Şu sababli zaharlaniş sababini aniqlaş hamişa oson bölmagan.

Olim bunday holatlar faqat ataylab zaharlaş natijasida emas, balki ehtiyotsizlik tufayli ham yuz berişi mumkinligini ta'kidlaydi. Uning yozişiça, ayrim haşarotlar may hidiga jalb qilinib, idişga tuşib ketişi yoki içimlikni ifloslantirişi mumkin. Şuning uçun uylarning tomi, katta daraxtlar osti va öt-ölanlar köp ösadigan joylarda oziq-ovqat hamda içimliklarni saqlaşda ehtiyot böliş lozim.

Zaharlaniş faqat yegulik va içimlik orqali sodir bölmagan. Ayrim hollarda simob buğidan nafas oliş yoki simobning quloqqa tuşişi ham oğir oqibatlarga olib kelişi mumkin edi. Ibn Sinoning zamondoşi Abu Rayhon Beruniy simob buğining xavfli ekanini, undan nafas qisişi, şiş va falaj kabi holatlar kelib çiqişi mumkinligini qayd etgan.

Ibn Sino simob quloqqa tuşganida uni çiqariş usullarini ham bayon qilgan. U simobni quloqdan çiqarişga qaratilgan ayrim mexanik usullarni tavsiflab, ularning samarasi simobning qançalik içkariga kirganiga boğliqligini körsatgan. Masalan, simob quloqning taşqi qismida bölsa, boşni zararlangan tomonga engaştiriş orqali uni çiqariş mumkinligini, çuqurroq joylaşganida esa bunday usul samara bermasligini yozgan. Bu ma'lumotlar olimning zaharlaniş sabablarini aniqlaş va uning oqibatlarini kamaytirişga qaratilgan qaraşlari keng qamrovli bölganidan dalolat beradi.

Quloqqa simob quyiş orqali zaharlab öldirilgani aytiladigan tarixiy şaxslardan biri Buxoro amiri Nasrulloxondir *(1826–1860)*. Tarixçi Qahramon Rajabovning yozişiça, amir Şahrisabzni töliq egallagaç, uning sobiq hokimi Iskandar Vallomiyning singlisi Kenagasxonimga uylanadi. Iskandar esa amirdan qasos olişni közlaydi. Rivoyatlardan biriga köra, bunda unga singlisi yordam bergan: u uxlab yotgan Nasrulloxonning quloğiga simob quygan va amir bir neça kundan söng vafot etgan. Şu tariqa Iskandar Vallomiy qasos olişga erişgan bölsa-da, keyinçalik uning özi va oila a'zolari qatl etilgan.

Ibn Sino qaraşlarida suvning ayrim turlari ham soğliq uçun xavfli ekani ta'kidlanadi. Olim balçiqli, oltingugurtli, aççiqtoşli, zokli, zirnixli, zangorli, navşadilli, misli, neftli, şör, aççiq, nordon va sovuq suvlarni zararli deb hisoblagan. Jumladan, uning yozişiça, navşadilli suv miya va közga, zangorli suv esa qon siyiş, içki qon ketişi va öpkadan qon kelişi kabi holatlarga sabab bölişi mumkin. Hatto oddiy sovuq suvni hammomdan keyin, jinsiy yaqinlikdan söng yoki nahorda içiş ham organizmga zarar yetkazişi, miya, jigar, taloq va oşqozonga salbiy ta'sir körsatişi mumkinligini qayd etgan.

Olim mayni ham zararli moddalar qatoriga kiritib, ayniqsa uzoq vaqt oç yurgan kişiga uning ta'siri kuçli bölişini ta'kidlagan. Bu qaraşlar uning oziq-ovqat va içimliklarning inson salomatligiga ta'sirini keng örganganini körsatadi.

Ibn Sino asarlarida hukmdor yoki sarkardani zaharlaşning ğayrioddiy usuli haqida ham ma'lumot uçraydi. Olim bayoniga köra, qadimda ayrim hukmdorlar çaqaloqligidan zaharli moddalar qöşilgan qaymoqni oz-ozdan iste'mol qildirib, zaharga çidamli bölib qolgan kanizaklarni voyaga yetkazişgan. Keyinçalik bunday qizlar duşman hukmdorlariga sovğa sifatida yuborilgan. Ular bilan yaqinlik qilgan hukmdor yoki sarkarda zahar ta'sirida halok bölişi mumkinligi aytilgan. Hatto kanizakning sölagi tekkan narsani iste'mol qilgan hayvon ham ölişi haqidagi ma'lumot keltiriladi. Bu ma'lumotni tarixiy manbalarda uçraydigan qaraş sifatida baholaş lozim; uning amalda qöllangani va tibbiy jihatdan asoslangani alohida tekşirişni talab qiladi.

Ibn Sino asarlarida yoritilgan zaharlaş usullari faqat alohida şaxslarni nişonga oliş bilan çeklanmaydi. Tarixiy harbiy amaliyotda duşman qöşini foydalanadigan suv manbalari va oziq-ovqat zaxiralarining zaharlanişi, şuningdek çekiniş paytida ölja sifatida qoldirilgan mahsulotlar orqali zarar yetkaziş holatlari ham uçragan. Bunday usullar qöşinlarning oziq-ovqat va suv ta'minoti qançalik muhim ekanini körsatadi. Ayniqsa, uzoq yöl bosib çarçagan, oç va çanqagan askarlar oziq-ovqat hamda suvning xavfsizligini tekşiriş imkonidan mahrum bölişi mumkin edi.

Tarixiy manbalarda bunday harbiy hiylalarga misol sifatida Sulton Mahmud Ğaznaviy *(998–1030)* faoliyati bilan boğliq voqea ham keltiriladi. Saljuqiylar sulolasining maşhur vaziri Nizomulmulkning yozişiça, Kirmon viloyati yaqinida karvonlarni talayotgan baluj qaroqçilariga qarşi zaharlangan olmalar ortilgan karvondan foydalanilgan. Qaroqçilar karvonga hujum qilganida, karvon ahli mol-mulkini taşlab çekingan. Öljani qölga kiritgan qaroqçilar olmalarni tekşirmasdan iste'mol qilgan va köpçiligi halok bölgan. Şundan söng Sulton Mahmudning jangçilari qaytib kelib, qolgan qaroqçilarni ham tor-mor etgan, ularning qurol-yaroğlari va boşqa mol-mulkini ölja olgan. Nizomulmulkning qayd etişiça, bu voqeadan keyin karvon yölidagi baluj qaroqçilari qariyb ellik yil davomida bunday talonçilikka qöl ura olmagan.

Mazkur tarixiy hikoyalar ötmişda harbiy muvaffaqiyatga erişişda faqat qöşin soni va qurol-yaroğ emas, balki ayyorlik, kuzatuvçanlik hamda duşmanning ehtiyojlarini hisobga oliş ham muhim bölganini körsatadi. Şu bilan birga, zaharlaş bilan boğliq ayrim voqealar manbalarda turliça talqin qilingani sababli ularni qat'iy tarixiy fakt sifatida emas, tegişli manbalarga tayangan holda bayon etiş maqsadga muvofiq.

Eng e'tiborli jihati şundaki, Sulton Mahmud Ğaznaviy bilan boğliq voqea Ibn Sino yaşagan davrda yuz bergan. Şu bois olim bunday hodisalar haqidagi xabarlarni eşitib, ulardan çiqargan xulosalarini öz asarlarida aks ettirgan bölişi mumkin. Zero u oçlik va çanqoqlik kuçaygan paytda taomni tekşirmasdan, oçközlik bilan iste'mol qiliş zaharlaniş xavfini oşirişini ta'kidlagan. Yuqorida keltirilgan voqeada ham qaroqçilar taşlab ketilgan olmalarni ehtiyotsizlik bilan iste'mol qilgani bayon etiladi.

> **Ibn Sino zaharli moddalardan faqat odamlarni yaşirinça zaharlaşda emas, bevosita jang harakatlarida ham foydalanilganini qayd etadi. Jumladan, akonit deb ataluvçi ösimlikning nihoyatda zaharli ekanini yozadi. Uning bayoniga köra, bu ösimlikdan zaharlangan kişining lablari va tili şişib, boşi aylanadi, huşidan ketadi va oyoqlari işlamay qoladi. Akonit *(Aconitum)* ayiqtovondoşlar oilasiga mansub köp yillik ösimliklar turkumi bölib, uning köplab turlari zaharli hisoblanadi. Ibn Sino akonitning siqib olingan şirasi bilan yoy öqlari höllanganini va bunday öqdan jarohatlangan jangçilar halok bölişi mumkinligini ta'kidlaydi.**

Akonitning harbiy maqsadlarda işlatilgani haqida boşqa olimlar ham ma'lumot qoldirgan. Jumladan, maşhur tabiblar Qusta ibn Luqo Baalbakiy *(820–912)*, Abu Ali Ahmad ibn Abdurahmon ibn Mandavayh va Abu Rayhon Beruniy asarlarida bu ösimlikning zaharli xususiyatlari tilga olinadi. Beruniy ma'lumotlariga köra, akonitning yangi şirasi yoy öqlari va nayza uçlariga surtilgan. Uning "kalkal" yoki "kilkil" deb atalgan turi esa kiyimlarni zaharlaşda işlatilgani qayd etilgan.

Bu ma'lumotlar örta asrlarda ösimliklardan olingan zaharli moddalar harbiy töqnaşuvlarda qöllanganini körsatadi. Bunday vositalardan foydalaniş duşmanga qöşimça talafot yetkaziş va jang natijasiga ta'sir körsatiş vositalaridan biri sifatida qaralgan.

Ibn Sino zaharlanişning oldini oliş bilan birga, zaharlangan kişini davolaş masalalariga ham alohida e'tibor bergan. U davo çoralarini zaharning turi va xususiyatiga qarab belgilaş lozimligini ta'kidlaydi. Uning asarlarida zaharni organizmdan çiqariş, uning zararli ta'sirini kamaytiriş va bemorning ahvolini yengillaştirişga qaratilgan turli usullar bayon etilgan. Öşa davr tibbiyotida qustiruvçi, içni va siydikni yurgizuvçi vositalar, huqna hamda turli dorivor moddalar qöllangan. Taryoqlar, mitridat, podzahr, sambitgul, toğ arçasi, asal, olma suvi, gunafşa, yalpiz, şolğom uruği, dolçin, Abu Jahl tarvuzi, şuningdek ayrim hayvon mahsulotlari zaharlanişda işlatiladigan vositalar qatorida keltirilgan.

Öşa davrda zaharga qarşi vosita sifatida podzahr toşi ham keng tanilgan. Forsça "bodizahr" sözidan kelib çiqqan bu nom "zaharni qaytaruvçi" ma'nosini anglatadi. Ibn Sino uni zaharlanişda, şuningdek ilon va turli haşarotlar çaqqanida qöllanadigan vositalar qatorida sanab ötgan.

Abu Rayhon Beruniy ham "Kitob al-jamohir fi ma'rifat al-javohir" *("Qimmatbaho toşlarni biliş haqida kitob")* va "Kitob as-saydana fi-t-tibb" *("Tibbiyotdagi dorişunoslik haqida kitob")* asarlarida podzahr haqida ma'lumot bergan. Olim uşbu moddaning zaharga qarşi vosita sifatida qadrlangani, hukmdorlar va zodagonlar orasida unga qiziqiş katta bölganini qayd etgan.

Somoniylar davrining maşhur tabibi Abu Bakr Roziy *(864–924)* ham "At-tibb al-mulukiy" *("Podşohlar tibbiyoti")* asarida podzahrni akonit zahariga qarşi vosita sifatida tilga olgan.

Xulosa qilib aytganda, Abu Ali ibn Sino nafaqat tibbiyot ilmining buyuk namoyandasi, balki tibbiy bilimlarning harbiy sohadagi ahamiyatini ham yoritgan olimdir. Uning asarlarida zaharlanişning oldini oliş, zaharli moddalar ta'sirini aniqlaş, davolaş usullari va tibbiy bilimlarning harbiy maqsadlarda qöllanişiga doir muhim ma'lumotlar mavjud. Bu qaraşlar örta asrlarda tibbiyotning nafaqat kundalik hayot va davolaş amaliyotida, balki harbiy işlar hamda davlat siyosatida ham muhim örin tutganini anglaşga yordam beradi.



Islom BÖRIYEV,
Özbekiston Respublikasi
Fanlar Akademiyasi Şarqşunoslik instituti
kiçik ilmiy xodimi

“MAYDON”DA HOZIR ÖQÇILAR

“Taktik öqçi” musobaqasi *(Tactical Şooting)* – bu öqotar qurollardan harakatda, turli tösiqlar ortidan va vaqt çeklangan şaroitda nişonlarni aniq yakson etişni talab qiladigan harbiy-amaliy yönalişdir. Musobaqaning özіga xos jihatlaridan biri maşqlarning real jangovar vaziyatlarga maksimal darajada yaqinlaştirib ötkazilişidir.





Bu soha mamlakatimizda ham harbiylar örtasida professional darajada jadallik bilan rivojlanib borayotgan yönalişlardan biri sanaladi. Şundan kelib çiqqan holda Özbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va maxsus bölinmalar harbiy xizmatçilari xalqaro maydonda muvaffaqiyatlarga erişib kelayotgani bejiz emas. Muntazam tarzda ötkazilib turiladigan, kunduzgi va tungi şaroitlardagi, şahar, toğ va örmon muhitidagi bir-biridan murakkab taktik şartlardan iborat maşqlar maydoni har bir qatnaşçining kasbiy mahoratini toblaşda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa bunday musobaqalarning kuç tuzilmalari miqyosida keng quloç yoyişi milliy armiyamizning salohiyatini oşirişda muhim omil bölib xizmat qiladi. Surxondaryo viloyatining Şerobod tumanida joylaşgan “Maydon” dala-öquv poligonida “Taktik öqçi” musobaqasining navbatdagi bellaşuvlari ötkazildi. Jarayonlar davomida asosiy e’tibor harbiy xizmatçilarning jangovar tayyorgarligini oşiriş, murakkab şaroitlarda tezkor va töğri qaror qabul qiliş könikmalarini takomillaştiriş, şuningdek bölinmalarning hamjihatlikda harakatlaniş mahoratini sinovdan ötkazişga qaratildi. Belgilangan şartlar asosida keçgan bellaşuvlarda iştirokçilar özlarining kasbiy mahorati, jismoniy tayyorgarligi, çidamliligi va taktik harakatlarni bajarişdagi salohiyatini namoyon etdi.

Musobaqa dasturidan kvalifikatsiya maşqi, örmon şaroitida jangovar harakatlarni olib boriş, binoga hujum qiliş va uni nazoratda saqlaş, botqoq şaroitida jangovar harakatlarni amalga oşiriş, jangovar juftlikning pistirmadan çiqişdagi harakatlari hamda kiçik guruh tarkibida asirga tuşgan yaradorni jangovar maydondan evakuatsiya qiliş kabi murakkab maşqlar örin oldi. Har bir şart iştirokçilardan yuqori darajadagi taktik bilim, aniqlik, tezkorlik va özaro hamkorlikni talab etdi. Bellaşuvlar davomida jamoalar belgilangan vazifalarni bajarişda özlarining jangovar tayyorgarligi va amaliy könikmalarini namoyiş etdi.

Qayd etilgan natijalarga köra, Mudofaa vazirligi jamoasi yaqqol ustunlik bilan birinçi örinni egalladi. Davlat xavfsizlik xizmati jamoasi ikkinçi, Milliy gvardiya jamoasi esa uçinçi öringa sazovor böldi.

Mazkur musobaqa kuç tuzilmalari harbiy xizmatçilari örtasida tajriba almaşiş, jangovar tayyorgarlikni yanada takomillaştiriş hamda har qanday murakkab vaziyatda topşirilgan vazifani muvaffaqiyatli bajarişga qaratilgan amaliy könikmalarni mustahkamlaşda muhim ahamiyat kasb etdi.

III darajali serjant
Akbar AHMEDOV

TAJRIBA KÖRIGI

ANIQLIK VA TEZLIK BELLAŞUVI

“Eng ilğor muhandis-sapyorlar guruhi” körik-tanlovi Özbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tarkibidagi muhandislik-sapyor bölinmalari va harbiy xizmatçilari örtasida jangovar şaylikni oşiriş, professional mahoratni sinovdan ötkaziş maqsadida an’anaviy tarzda “Men ğolib!” şiori ostida ötkazilib kelinadigan nufuzli harbiy-amaliy bellaşuvlardan biri sanaladi. Armiya öyinlari doirasida ötkaziladigan vazirlik bosqiçi musobaqasining 2026-yilgi bellaşuvlari an’anaviy tarzda Toşkent harbiy okrugi tasarrufidagi “Angren” umumqöşin toğ poligonida taşkillaştirildi.



Musobaqaning yakuniy respublika bosqiçida Özbekiston Mudofaa vazirligi tizimidagi barça harbiy okruglar, Toşkent harbiy okrugiga qaraşli toğli va maxsus tayyorgarlik bölinmalari hamda oliy harbiy ta’lim muassasalaridan saralab olingan eng kuçli sapyorlik jamoalari iştirok etdi.

Toşkent harbiy okrugi va Şarqiy harbiy okrug jamoalari tarkibidagi muhandislik-sapyorlik bölinmalari toğli va murakkab şaroitlarda harakat qiliş böyiça katta tajribaga ega bölgani sababli har yili yuqori örinlar va nominatsiya ğolibligi uçun asosiy da’vogar hisoblanib keladi. Şundan kelib çiqqan holda ğoliblik uçun asosiy da’vogarlar va şiddatli bahslar aynan şu okruglar örtasida keçişi kutilgandi. Taxminlar özini oqlab, mazkur ikki jamoa sovrindorlar qatoridan joy oldi. Çöl va toğ-daşt hududlarida mina tozalaş, suv tösiqlaridan ötiş *(ponton köpriklarini quriş)* şartlarida yuqori körsatkiçlarni qayd etgan Janubiy operativ qömondonligi jamoasi tajriba borasida yetakçilar qatorida ekanini amalda isbotladi.

Nominatsiya böyiça ğoliblarni aniqlaş mezonlariga köra, jamoalar bir-biridan murakkab turli yönalişlarda maksimal ball töplaş uçun harakat qildi. Şiddatli keçgan bahslarda eng ilğor guruh nomiga sazovor böliş uçun minali hududlarni tozalaş tezligi böyiça qisqa vaqt içida va 100 foiz aniqlik bilan zararsizlantiriş mahoratlarini körsatdi. Bundan taşqari, iştirokçi jamoalar harbiy xizmatçilari texnika boşqariş mahorati şartlarida ham munosib qatnaşdi. Oğir muhandislik maşinalari *(IMR, BAT)* yordamida tösiqlarni bartaraf etiş va kolonna yöllarini oçiş maşqlari böyiça aniqlik va tezlik bellaşuvi namoyiş etildi. Şuningdek, toğli şaroitda oğir aslahalar bilan masofani bosib ötiş hamda şartli duşman pistirmalarini qaytariş borasida jismoniy va taktik şaylik sinovdan ötkazildi. Yakuniy natijalarga köra, eng yuqori körsatkiçni qayd etgan Toşkent harbiy okrugi jamoasi Mudofaa vazirligi diplomi, kubok hamda esdalik sovğalar bilan taqdirlandi. Musobaqada sovrinli örinlarni egallagan Janubiy operativ qömondonligi va Şarqiy harbiy okrug harbiy xizmatçilariga ham taşkilotçilar tomonidan rağbatlantiruvçi mukofotlar tantanali tarzda topşirildi.

Musobaqaning oçiliş va tantanali yopiliş marosimida Mudofaa vazirligi ofitserlari, mas’ul şaxslar, Nuroniylar kengaşi a’zolari, Ohangaron tumanidagi 6-sonli “Jasorat maktabi” öquvçilari qatnaşdi. Uşbu tadbirda çiqiş qilganlar topografik va muhandis-sapyorlik bölinmalarining qöşinlar faoliyatidagi muhim örni, zimmasidagi mas’uliyat hamda bu yönalişlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatçilarning kasbiy tayyorgarligiga qöyilayotgan talablarning muhimligi haqida töxtalib ötdi.

Polkovnik
Feruz KAMILOV

KÖNGILNI TARBIYALAYDIGAN OYDINLIK

Yaratganga behisob şukr. Hayotda örnak böladigan köp-köp ne'matlar berdi. Dars oladigan kas oddiygina çumolidan ham örganadi. Dars olmaydiganga butun dunyo birlaşib ham örgata olmaydi. Ustozni ham şunday ne'matlar qatoriga kiritgan bölardim. Ayniqsa, filologiya fanlari doktori, professor Halim Saidovni.



Köngilni tarbiya qilib böladimi? Savol eriş tuyulyaptimi? Böladi, deyman. Nasihat bilan nafsni, örnak bilan esa hatto köngilni ham tarbiyalasa böladi. Halim Saidov men uçun ana şunday ustoz.

1994-yil, Hindiston Dehli şahri. Hindiston ommaviy kommunikatsiyalar institutida tahsil olyapmiz. Toşkent davlat universiteti *(hozirgi Özbekiston Milliy universiteti)* jurnalistika fakultetidan borgan 4 nafar talaba qatorida men ham borman. Fakultetda yurganda Halim akani köp kuzatganman. Yelkasiga fotoapparat osib olgan holdagi obrazi xayolimda qolgan. Talabalikdayoq publitsistik, tahliliy çiqişlari, ijodiy jasorati bizga örnak bölgan. Tortinçoqligim uçunmi, masofani saqlab yuraverganman. Hindistonda kursdoşmiz. Tezda masofa yöqoldi. Muloqotimizda menga boşida eriş tuyulgan "taqsir" sözi örtadan körinmas devorni olib taşladi. Bu sirli söz örtada samimiyat, oçiqköngillik bilan boğliq köprik paydo qildi. Könglimda iliqlik sezdim. Söz orqali köngilni tarbiyalasa bölarkan-ku!

Halim Saidov "Oila va jamiyat" gazetasida boş muharrir örinbosari edi. Biz bölajak jurnalistlar sevib öqiydigan naşr. Tafakkuring gul bölsa, boğsan, deyişadi. Tafakkuri orqali ibrat böla boşladi, ustoz. Qalami çarxlanmagan, hali ijod maydoniga kirib ulgurmagan biz "xom" lar Halim Saidov maktabida pişa boşladik. Qanday qilib? Halim aka bizni Hindistondan "Oila va jamiyat" gazetasiga maqola yozişga ruhlantirdi. Gazetadagi birinçi çiqişim Malayziyaning "Bernama" axborot agentligi muxbiri Devid bilan intervyu böldi. Yoziş, axborot oliş, uni qayta işlaş maşaqqat ekanini anglay boşladim. Jurnalistikaga haqiqiy yurişim Hindistondan boşlandi. Yurtga qaytgaç, döstim Beruniy Alimov bilan meni ustoz tahririyatga işga taklif qildi. Xullas, auditoriyadan tahririyatga köçdik. Öylab qarasam, ustozning gazetada keng jamoatçilikni qiziqtiradigan, şov-şuvga sabab böladigan maqolalari qalamimiz çarxlanişiga sabab bölgan. Qölimizdan uşlab, hijjalab harf örgatgandek yondaşmagan, maqolalari orqali bizni tarbiyalagan.

Jurnalist sifatida baholi qudrat millatimga, Vatanimga xizmat qilgan bölsam, bunda "Oila va jamiyat" ning, ya'ni Halim Saidovning maktabi muhim rol öynadi. "Vatanparvar" gazetasida boş muharrir darajasigaça yetdim. "Ma'rifat" gazetasida ustozning mahorat maktabida "pişgan" hamkasblarning bugun parvozi ança baland. Ularga köpçilikning havasi keladi.

2019-yil. Özbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti. Endi jurnalistika ilmi dargohida uçraşdik. Harbiy jurnalistika böyiça dissertatsiya yoziş niyatini ustozga aytdim. Ilmiy rahbarlik qilişini söradim. Katta maktabga ega amaliyotçi obrazini, olim, nazariyotçi obrazi bilan töldirişim kerak. Oçiği nazariyotçi obrazi bilan tez çiqişa olmadim. Dissertatsiyalar, avtoreferatlarni varaqlayman. Ilmiy apparat, ilmiy atamalar, ilmiy uslub... Iymanib sörayman: "Ustoz, yozayotganlarimga nuqul publitsistika aralaşib qolyapti". "Olim böliş oson emas, örgan, şunga moslaş" qabilidagi javobni kutdim. Adaşgan ekanman. "Tabiiy holat bu taqsirim, siz amaliyotçi jurnalistsiz. Menga qolsa, ilm tor doiradagilarga emas, barçaga tuşunarli tilda bölsin", dedi ustoz. Könglim yorişdi. Ustozning maqtagani ham, tergagani ham şu böldi. Özining doktorlik dissertatsiyasi loyihasini menga berdi. Boşqa dissertatsiyalarga qaraganda oson "hazm" böldi. Negaki publitsistika ustozning uslubida ham bor edi. Savolimga javobning qolganini şu yerdan topdim. Ustozning dissertatsiyasi orqali ibrat oldim.

Keyinçalik anglasam, dissertatsiya yozganim, himoya qilganim emas, köngil tarbiyasi uçun olingan saboq katta yutuğim bölgan ekan. Men ustozning ilmiy faoliyatini kuzatib, jurnalistika ilmiga muhabbat qöygan amaliyotçi obrazini topdim. Şu sabablimi filologiya fanlari böyiça falsafa doktori ilmiy darajasini oliş uçun yozilgan dissertatsiyamga ham filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi uçun yozgan dissertatsiyamga ham Halim Saidov rahbarlik qildi.

Filologiya fanlari doktori, professor Halim Saidov haqida televideniyega intervyu berganimda, uni kitobga öxşatganman. Bu tasodifmi? Odatda, kitobni muqovasiga qarab baholab bölmaydi. Şakliga emas, mazmuniga qaraladi. Varaqlab öqiladi, öqiladi. Aslida öqiladigan eng buyuk kitob inson. Eng katta muammomiz uni öqiy oliş yoki öqiy olmaslikda. Bunday kitoblardan qançasini öqiy oldingiz? Neça sahifasini öqidingiz? Suratini öqidingizmi, siyratini? Bu savol qarşisida özim ham esankirayman. Özimizni topolmay, özimizni anglamay, özimizni öqib bilmay yurgan bir banda bölsak. Boşqa kitoblarga yöl bölsin. Muqovasiga qarab, aldanib qolgan holatlarim kam bölmagan. Men ta'rifini keltirayotgan insonning esa surati va siyrati bir.

Insonni daryoga ham öxşatişadi. Yuzasini körasan, tubida nimalar yaşirin bilolmaysan. Ammo ibrat, örnak bilan boğliq amallar, jöşqin faoliyat, yozilgan asarlar orqali kitobni öqişga urinib kördim. Yoki kitob meni öqidi: Halim Saidovning sözi ham işi ham oydinlik. Qalbga samimiylik, issiqlik olib kiradigan oydinlik. Kitobdan uluşim şu böldi. Mana şu oydinlik men uçun ibrat.

Filologiya fanlari doktori, professor Halim Saidovning ilmiy, publitsistik işlari, asarlari, köplab maqola, risola, darslik, qöllanma va boşqa öquv-uslubiy adabiyotlari haqida maqolada yozmadim. Jadid bobolar xotirasini tiklaş yölida qilayotgan xayrli, ezgu işlari, sermahsul ilmiy-amaliy faoliyati haqida gapirmadim. Şogirdlari, ustozlari, döstlaridan kimdir bu haqda batafsil fikr bildirar.

Bu dunyoda ega bölinadigan narsalarning eng şaraflisi ilmdir. Maşoyixlar şunday lutf qilişgan. Halim Saidovning şogirdlariga muhabbati ilm nomli buloqdan oziqlanadi. Mana şu ustozlik muhabbati orqali şogirdlarga köngil beriladi, köngil olinadi. Köngil beriş bilan köngilni oladigan ustoz. Bu men uçun eng asosiy ibrat.


Nasihat qiladiganga emas, ibrat böladiganga ehtiyoj ortib borayotgan bugungi dunyoda yaxşiyam sizdek insonlar bor, ustoz Halim Saidov. Tavallud kuningiz muborak bölsin!!!

Alijon SAFAROV,
filologiya fanlari doktori, dotsent

AÇÇIQ XOTIRA

"QORA KALTAK" VOQEASI

Ötmişda çor Rossiyasi Turkistonni bosib olgan davrlar, XX asrning boşlarida xalqimiz boşiga köp kulfatlar olib kelgan. Qançalab begunoh insonlarning umriga zomin bölgan zamonlar moziyning qora daftariga tuşgan qonli sahifalariga guvoh bölgan bu zamin. Quyida sizlarga uşbu ayançli taqdir sohiblarining hayotidan bir lavha keltirmoqni niyat qildim.



– Asli tuğilibösgan joyim Yakkaboğ tumaniga qaraşli Ajrim qişloği. Onam Soli Maxsum qizi Zaynab, otam Turdiqul öğli Mavlonboy ham şu qişloqda yaşab ötdilar, – hikoyasini boşladi 74 yoşli Abdumalik bobo.

Hayotim mobaynida ötmiş haqida ota-bobolarimizdan köp tarixiy voqealar töğrisida turli hikoyalar eşitganmiz. Şulardan biri xotiramda çuqur iz qoldirgan "Qora kaltak" voqeasi.

Padari buzrukvorimiz Mavlonboy Turdiqul öğlining aytişiça, 1920-yilning 2-sentabrida Buxoro amirligi tugatilib, Amir Olimxon Afğonistonga ötib ketadi. Şu yilning 6-oktabrida Şörolar tomonidan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi taşkil etiladi.

1921-yilda general Y. Melnikov va polkovnik V. Karpov boşçiligidagi qöşin "Taxti Qoraça" dovonidan oşib ötib, qisqa muddatda Şahrisabz bekligi hamda Ğuzor törasini ağdarib, bu mintaqada sovet tuzumini örnatadi. V. Karpovning kavaleriya *(otliq askarlar)* polki Yakkaboğ stansiyasi *(hozirgi Yakkaboğ şahri)*dagi paxta zavodiga örnaşadi. Bu yerdan vaqti-vaqti bilan çiqib, Amir tarafdorlari, ozodlik harakati vakillari bölmiş Vatanparvar *(ularni ruslar "bosmaçilar" deb atagan)* kuçlarga qarşi Şahrisabz, Yakkaboğ, Qamaşi, Ğuzor tomonlarga borib yuriş qilib turgan.

Öşa vaqtlarda maşhur Ibrohimbek *(Ibrohim Laqay)* tomonidan qöllab turilgan Yakkaboğning Çimqörğon qişloğidan çiqqan Jabborbek, Bobo Şodi qişloğidan Umrzoq qörboşilar ruslarga qarşi kuraşgan. *(uşbu tarixiy şaxslar bevosita bizning oilamizga aloqador insonlar bölgan. Bu haqda keyingi hikoyalarimizda bafurja töxtalamiz. – Muallif)*

Yakkaboğga rus askarlari kelibdi, ularning miltiqlari bor emiş, deb eşitgan mahalliy xalq vakillari avom emasmi, borib ularni haydab, qurollarini tortib olamiz, degan xayolda qöllariga tuşgan şoxami, öroq yoki kaltakmi kötarib, birlari otliq, eşaklimi, birisi yayov paxta zavodga qarab jönaydi. Bu tarixga "Qora kaltak voqeasi" *(fojiasi, degan bölardim)* sifatida kirgan.

Eng qiziği, bularning orasida mening bobolarim Soli Maxsum va Turdiqul, toğangiz Omondavlatning otasi Şoyqul öğli Elmurod ham bölgan. Uşbu "Laşkar" paxta zavod *(ruslarning qarorgohi)*ga yetganda, kaltak kötarib yugurayotgan olomonni körgan rus askarlari ularga miltiq va pulemyotlardan öq yoğdirib kutib oladi. Buni kutmagan olomon tutday tökiladi *(uşbu hodisa haqida qamaşilik adiba Guljahon Mardonovaning "Kökka uçgan tulporlar" romanida ham bayon qilingan).*

Ming afsuslar bölsinki, ruslar ayğoqçilari tomonidan oldindan xabardor qilingan ekan.

Yarador bölganlar, öqqa uçmay qolganlar orqaga burilib qoça boşlaydi.

Turdiqul bobom va oti ildam bölgan Soli Maxsum ham öq yomğiridan qutulib çiqadi. Qornidan öq yeb yiqilgan Elmurod toğani Turdi bobom otga öngarib, jang maydonidan olib qoçadi. Qöştegirmon qişloğiga kelib, boşidagi sallasi bilan Elmurodning jarohatini boğlagaç, şu yerdagi bir xonadonga kirib yaşirinadilar. Ta'qib qilib kelgan askarlarni körgan uy egasi bölmiş kampir jon şirin-da, qörqib ketib, "Biznikida ikkitasi yaşirinib yotibdi", deb sotib qöyadi.

Rus jangçilari bu ikkalasi va boşqa asirlarni yiğib, Yakkaboğ qişloği *(hozir "Posyolka" atalmiş maskan)*dan toğ tarafga ötgandagi bir jarlikmi, ğorga olib borib, barçasini otib taşlaydi. Ulardan heç qanday qabr yoki nişon qolmagan. Bobolarimiz mana şunday halok bölgan. Ilohim, Vatan ozodligi yölida şahid ketgan bobolarimizning joylari jannatda bölsin.

Sizga aytsam, polkovnik Karpov ham şu yerda "tönğiz qöpgan". Uning qabrini körganman.

Qamaşidan Yakkaboğ tarafga ketişda yölning öng tarafida Qirğiz qişloğidan ötganda suv ombori bor. Havzaning nariga tomonida, janubi-şarq tarafda tepaliklar bağrida bir balandlikda beton tagliklar ustida yulduzça örnatilgan edi. Hozir yer bilan bitta bölib ketgan. Faqat beton tagliklari sörrayib turibdi, özim körganman.

Borib bir tepkilay deyman-u, mozorni oyoğosti qilişga dinimiz yöl qöymaydi, iymonga ham töğri kelmaydi.

Xullas, tarix, öz nomi bilan tarix!

Eştöxtar ELMURODOV,
"Şuhrat" medali sohibi



AQLNING KUCHI SONIDAN EMAS, AQLNING KUCHI MUHIM

“Saltanat işlarining töqqiz uluşini kengaş, tadbir va maşvarat bilan, qolgan bir uluşini qiliç bilan amalga oşirdim”.

“Temur tuzuklari”dan

Vatan va uning himoyasi haqida köp gapiriş mumkin. Men esa bu sözlarning ma’nosini kitobdan emas, harbiy xizmatçining turmuş örtoği sifatida öz oilam hayotidan anglayman.

Bayramlarda dasturxon atrofida bir örin böş qolgan, farzandlarimizning tuğilgan kunlarida, ba’zan betob bölganda, hatto ular dunyoga kelgan kunda ham turmuş örtoğim xizmatda edi.

Lekin bundan heç qaçon öksinmayman, aksinça, har safar faxrim oşadi. Çunki bilaman: öşa kunlarda farzandlarimiz bilan birga minglab çaqaloqlar tinç osmon ostida, xotirjam dunyoga keldi. Bunday kunlarni tabiiy qabul qilişimiz faqat harbiy oila ekanimizdan emas. Buning asosida yurtimizdagi tinçlikning mustahkamligi va sohada olib borilayotgan islohotlarga bölgan katta işonç turadi. Har bir askarning ortida şunday oila turganidan va men ham ular qatorida ekanimdan ğururlanaman.

ĞALABANING ASOSI

Ona allasi yangragan xonadon, bobolar ruhi poklangan tuproq, farzandlarimiz kulgisi taralgan köçalarda Vatanni köramiz. Uni asraş va himoya qiliş har bir avlodning zimmasidagi muqaddas burçi ekani Boş qomusimiz Konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qöyilgani ma’lum.

Xususan, har yili 14-yanvarni xalqimiz Vatan himoyaçilari kuni sifatida nişonlaydi. Ötgan davr mobaynida armiyamiz yurt tinçligi va xalq osoyiştaligining işonçli kafolatiga aylandi.

Tabiiyki, Vatan himoyasining şakli zamon bilan özgarib boradi. Bir paytlar qal’a devori va qiliç bölgan qalqon bugun raqamli tizimlar, aqlli texnika va yuksak bilimga aylanmoqda. 2026-yilning 13-yanvarida, Vatan himoyaçilari kuni arafasida ötgan Xavfsizlik kengaşining kengaytirilgan yiğilişida davlatimiz rahbari bu haqiqatni şunday ifodaladi: “Ğalabaga faqat tanklar, samolyotlar yoki askarlar soni bilan erişiş mumkin, deb öylaydigan odam qattiq adaşadi”.

Darhaqiqat, zamonaviy uruşning tabiati tubdan özgargan. Endi uning asosini sun’iy intellekt, raqamli boşqaruv, yuqori aniqlikdagi zarbalar, kiber va robot texnologiyalari hamda siyosiy-iqtisodiy bosim taşkil etadi.

Mamlakatimiz rahbarining mazkur sözlari davr haqiqatidir. Buni sönggi yillar voqealari isbotlab turibdi. 2022-yil 24-fevralda Rossiya qöşinlari Ukrainaga kirişidan bir soat oldin KA-SAT sun’iy yöldoş aloqa tarmoğiga kiberhujum uyuştirildi. AQŞ, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi keyinroq bu hujum Ukraina armiyasining boşqaruv tizimini izdan çiqarişga qaratilganini rasman bayon qildi. 2025-yil 1-iyunda esa Ukraina yuk maşinalarida yaşirinça olib kirilgan 117 ta kiçik dron bilan Rossiyaning törtta aerodromidagi strategik bombardimonçi samolyotlarga zarba berdi. Kiyev bu zararni taxminan 7 milliard dollarga baholagan edi.

Yolğon xabar va zararli ğoya ham çegara söramaydi: ular töğridan töğri yigit-qizlarimizning qölidagi telefonga kirib boradi. Şu sababli Özbekiston armiyasi oldidagi savol “Qança?” emas, “Qanday?” bölib qoldi. Javob esa texnologiya, bilim va ma’naviyatdir. Bugun Vatanni pölat zirh bilan birga yuksak tafakkur va mustahkam iymon-e’tiqod ham himoya qiladi.

SOHIBQIRON SABOQLARI VA BUGUNGI MUDOFAA

Bu yölda boy harbiy merosimiz bizga tayanç böladi. Sohibqiron Amir Temur bundan olti asr avval qudratli davlat barpo etgan va öttiz beş yil davomida uni boşqarib, himoya qilgan. Uning “Temur tuzuklari”da qöşin tuziş, sarkardalarni tanlaş, jangçilarni rağbatlantiriş va davlatni boşqariş tartiblari batafsil bayon qilingan. Bu saboqlarni bugungi islohotlar bilan yonma-yon qöysak, ular örtasidagi hamohanglikni köramiz.

AVVAL AQL, KEYIN QILIÇ

Sohibqiron saltanat işlarining töqqiz uluşini kengaş va tadbir bilan, faqat bir uluşini qiliç bilan bajarganini aytadi. Buning yorqin misoli 1402-yilgi Anqara jangidir. Amir Temur Boyazid qöşini suv oladigan yagona manba, Çubuq soyining suvini boşqa tomonga burdirdi. Çanqagan usmonli qöşini Temur tanlagan joyda jangga kirişga majbur böldi. Jang çoğida Boyazid qöşinining qariyb törtdan birini taşkil etgan tatar otliqlari ham Temur tomoniga ötib ketdi. Bugungi mudofaa ham kengaşdan boşlanmoqda. 2026-yil yanvardagi Xavfsizlik kengaşi qarorlari ijrosi 2026-yil 3-martda davlatimiz rahbari huzurida alohida yiğilişda körib çiqildi. Unda rivojlangan davlatlar tajribasini örganib, qöşinlarni boşqariş va öqitişga zamonaviy yondaşuvlarni joriy etiş, dron va raqamli boşqaruv vositalaridan keng foydalaniş topşirildi.

TARTIB VA TEZKORLIK ĞALABA KALITIDIR

Sohibqiron qöşini önlik, yuzlik va minglikka bölingan, har bir bölinma öz vazifasini aniq bilgan. Şu tartib uni öz davrining eng harakatçan kuçlaridan biriga aylantirgan. Bugun tartib va tezkorlik raqamli tizimlar orqali ta’minlanmoqda. 2026-yil may holatiga köra, harbiy dasturçilar qariyb 50 ta axborot tizimini işlab çiqqan. Şulardan biri, “Çaqiruv” elektron tizimi 19 ta vazirlik va idora bilan boğlangan. U 39 turdagi ma’lumotnomani onlayn beradi va çaqiruv tadbirlarini töliq elektron şaklda ötkaziş imkonini yaratadi.

JANGÇINI QADRLAŞ

Tuzuklarda mard jangçilarni munosib taqdirlaş, ularning holidan xabardor böliş alohida ta’kidlanadi. Bugungi ğamxörliklar ham aniq qarorlarda körinmoqda. 2026-yil 6-aprelda muddatli harbiy xizmatçilarga xizmat davomida oliy ta’lim oliş imkoni berildi. Harbiy tibbiyotda telemeditsina joriy etilib, yagona tibbiy axborot tizimi Soğliqni saqlaş vazirligining “D-MED” tizimi bilan boğlandi.

ILM ENG KUÇLI QUROLDIR

Amir Temur jangçilarining malakasini doimiy maşq va puxta tayyorgarlik orqali oşirgan. 1391-yilda Töxtamişga qarşi daşt böylab yuriş çoğida oziq-ovqat kamayganida, u keng maydonni örab olib, ovni markazga haydaydigan katta ovlar uyuştirgan. Daşt qöşinlarida bunday halqa ovlar ham qöşinni oziq-ovqat bilan ta’minlaş, ham minglab otliqning kelişib harakat qilişini maşq qiliş vositasi bölgan. Yurişdan oldin har bir jangçi ot, kamon, öq-don va suv idişi bilan, har ön kişi esa çodir, asbob-uskuna va yuk oti bilan ta’minlangan. Ayrim tadqiqotlarda qayd etilişiça, razvedkaçilar 3–6 oylik maxsus tayyorgarlikdan ötgan. Bugungi armiya ham bilimga tayanmoqda. 2026-yil 7-mayda ma’qullangan takliflarga köra, kursantlarga xorijiy tillar, axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt çuqur örgatiladi. Qömondonlik-ştab ofitserlari uçun ilk bor uç bosqiçli öqitiş tizimi joriy etiladi, serjantlar esa oltita fuqarolik mutaxassisligi böyiça masofadan bakalavriatda öqiy oladi.

Demak, bugungi mudofaa islohotlari öz özidan paydo bölgan ğoyalar emas. Ular ota-bobolarimizning sinovdan ötgan tajribasi va zamonaviy texnologiyalarning uyğunligidir.

DRON, KIBER VA OSMON HIMOYASI

Amaliy özgarişlar eng yaqqol texnologiya sohasida körinmoqda. 2026-yil 26-fevralda Surxondaryodagi harbiy qismga taşrifi çoğida Oliy Boş Qömondon uçuvçisiz uçiş apparatlarini boşqaradigan va ularga qarşi kuraşadigan yangi bölinmalar tuziş; sun’iy intellektga ixtisoslaşgan kiber bölinmalarni rivojlantiriş; robot texnikasi va havo hujumidan mudofaa tizimlaridan foydalanişni kengaytiriş vazifasini qöygan bölsa, havo çegaralarini himoya qilişning butunlay yangi tizimi va aviatsiya qismlarini qayta taşkil etiş böyiça takliflarni körib çiqqan.

2026-yilning 13-yanvarida Xavfsizlik kengaşining kengaytirilgan yiğilişida keltirilgan yana bir raqamga köra, sönggi yillarda harbiy maşqlar soni bir yarim barobar köpaygan.

Bu yönaliş bejiz tanlanmagan. 2021-yil 14–15-avgustda, Tolibon Kobulni egallagan kunlarda, 585 nafar harbiy bölgan 22 ta samolyot va 24 ta vertolyot, jami 46 ta Afğoniston harbiy havo kemasi Özbekiston havo çegarasini noqonuniy kesib ötdi va Termiz aeroportiga majburan qöndirildi. Şu jarayonda Afğoniston samolyotlaridan biri uni kuzatib borayotgan Özbekiston qiruvçisi bilan töqnaşib, ikkalasi Surxondaryoda qulagan, uçuvçilar paraşyut bilan omon qolgan. Bu voqea havo çegarasini doimiy kuzatiş va tezkor javob beriş qançalik muhimligini amalda körsatdi.

QALQON FAQAT PÖLATDAN YASALMAYDI

Qadimdan ota-bobolarimiz jangni qiliç emas, uni tutgan qöl, qölni esa yurak boşqaradi, degani bejiz emas. Zamonaviy armiyada bu yurakni tarbiyalaş ma’naviy-ma’rifiy işlarning zimmasida. Harbiy qismlarda jangovar tayyorgarlik maydonlari, oşxona va sport majmualari bilan bir qatorda ma’naviyat va ma’rifat xonalari ham taşkil etilgan. Askar kun davomida öq otişni örgansa, keçqurun kitob varaqlaydi. Jismoniy çiniqiş va ma’naviy yuksaliş şu tarzda bir-birini töldiradi.

Özbekiston mudofaa islohotlarining mohiyatini bir jumlada aytiş mumkin: armiya miqdordan sifatga ötmoqda. Dron va kiber bölinmalar, raqamli boşqaruv, zamonaviy harbiy ta’lim, kitob va an’anaga tayangan ma’naviy tarbiya “Kim köp?” degan savolga emas, “Kim aqlli va sobitqadam?” degan savolga javob beradi.

HIMOYA MAS’ULIYATI BARÇAMIZNIKI

Bugun çegarada turgan har bir askar ortida bir ota umidi, ona duosi, butun bir xalqning işonçi turibdi. Yangi Mudofaa doktrinasi va Milliy xavfsizlik konsepsiyasi qabul qilingaç, islohotlar yaxlit huquqiy asosga ega böladi. Ammo ularning eng katta natijasi qoğozda zamonaviy texnikani boşqara oladigan, kitob öqiydigan, tarixini biladigan va Vatanini jonidan aziz biladigan yigitlar qalbida yaşaydi.

Bugungi armiyamizning kuçi ham faqat qurolda emas, balki tinçlik va adolatni himoya qiliş yölidagi ezgu maqsadida. Tinçlik osmondan tuşmaydi. Uni har kuni bilim, mehnat va sadoqat bilan qöriqlaydiganlar bor. Şunday ekan, ular haqida sözlaş, ularning xizmatini qadrlaş va ularga ma’naviy hamroh böliş barçamizning, avvalo insoniylik, bir zaminda yaşayotgan Vatandoşlik burçimiz hamdir.

Şohista YUNUSALIYEVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi xodimi

“ĞOYAVIY JANGÇI”LAR QANDAY TOBLANADI?



Harbiy xizmatçi nafaqat jangovar tayyorgarligi, balki intizomi, mustahkam e’tiqodi, yuksak ma’naviyati va ğoyaviy qaraşlari bilan ham boşqalardan ajralib turadi. Öz burçini çuqur anglagan, ğoyaviy jihatdan yetuk va har qanday sinovga tayyor harbiy xizmatçigina zimmasidagi mas’uliyatni munosib ado eta oladi. Bu kabi fazilatlar esa bilim, tajriba va doimiy izlaniş orqali mustahkamlanadi. Mudofaa vazirligi tizimida har yili “Men ğolib!” şiori ostida ötkaziladigan “Ğoyaviy jangçi” körik-tanlovi harbiy xizmatçilarning ana şu jihatlarini namoyon etiş uçun muhim maydonga aylanib bormoqda. Tanlovning joriy yilgi yakuniy bosqiçi Toşkent harbiy okrugining “Çirçiq” dala-öquv maydonida bölib ötdi. Unda iştirokçilar öz bilim va salohiyati, dunyoqaraşi hamda ğoyaviy tayyorgarligini sinovdan ötkazdi.



Mazkur tanlov nafaqat harbiy xizmatçilarning intellektual salohiyatini, jismoniy tayyorgarligini va ijodiy qobiliyatini namoyon etiş, balki ularning ğoyaviy-ruhiy holatini, vatanparvarlik tuyğusini mustahkamlaşga xizmat qiluvçi muhim platformaga aylandi.

Şuni alohida aytib ötiş kerakki, harbiy xizmatning ijtimoiy mavqeyini yanada oşiriş, şaxsiy tarkib orasida Vatanga sadoqat, kasbga muhabbat, yuksak fidoyilik



va milliy ruhni mustahkamlaş tanlovning asosiy maqsadidir.

Şuningdek, harbiy jamoalarda soğlom raqobat muhitini şakllantiriş, ilğor harbiy an’analarni joriy etiş, şaxsiy tarkibning intellektual, axloqiy va ruhiy salohiyatini oşiriş orqali ularning jangovar tayyorgarligini yangi bosqiçga olib çiqiş ham uşbu tanlovning ustuvor vazifalari sirasiga kiradi.



Mazkur tanlov umumqöşin, artilleriya, tank, havo-desant kabi bir qator bölinmalar, şuningdek markazga böysunuvçi harbiy qismlar va öquv-jangovar brigadalarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatçilar örtasida ötkazildi.

Tanlov şartlariga köra, iştirokçilar 3 ta yönaliş “Zakovat intellektual öyini”, “Harbiy-kasbiy tayyorgarlik” va “Ijodiy mahorat” yönalişida özaro kuç sinaşdi.



“Zakovat” intellektual bellaşuvi şartida iştirokçilarning siyosiy-ijtimoiy bilim saviyasi, milliy ğoya va ma’naviy qadriyatlarga oid tasavvuri çuqur tahlil qilindi.

Iştirokçilarning jismoniy tayyorgarligi, jangovar şayligi va harbiy amaliy könikmalari “Harbiy-kasbiy tayyorgarlik” sinovi orqali baholandi.

“Ijodiy mahorat” yönalişida esa harbiy xizmatçilar özlarining badiiy-estetik tafakkuri, sahnaviy çiqişlari va ijodiy qobiliyatlarini namoyon etdi.

Mazkur sinovlarda harbiy xizmatçilarning kommunikativ kompetensiyalari, axborotdan foydalaniş madaniyati, mafkuraviy immunitet darajasi, şuningdek jamoatçilik oldida nutq sözlaş madaniyatiga ham alohida e’tibor berildi. Har bir şartda qatnaşçilar çinakam fidoyilik, jamoaviy





birdamlik va har tomonlama salohiyat namunasini körsatdi.

Musobaqa yakuniga köra, 3-öringa Janubi-ğarbiy maxsus harbiy okrug jamoasi loyiq körilgan bölsa, 2-örin Markaziy harbiy okrug jamoasiga nasib qildi. 1-örinni esa Şarqiy harbiy okrug jamoasi qölga kiritdi.


Tanlov söngida ğolib jamoalarga Mudofaa vazirligi tomonidan diplom va qimmatbaho esdalik sovğalar tantanali tarzda topşirildi.



Umuman olganda, mana şunday musobaqalar harbiy xizmatçilarning ijtimoiy-siyosiy bilimini, harbiy kasb etikasini, milliy ğoyasini, axborotdan foydalaniş madaniyatini va zamonaviy xavfsizlik tahdidlariga qarşi kuraşiş qobiliyatini yanada oşirişga xizmat qiladi.



Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”



Tarixni soxtalaştiriş qaçon va qanday boşlangan?

Taniqli şarqşunos va manbaşunos olim, ÖzFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Şarqşunoslik institutining katta ilmiy xodimi Abdusattor JUMANAZAR bilan suhbat

“AMIR TEMUR ĞORI” VA “POLVONTOŞ” AFSONASI

– Abdusattor aka, bu yil sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi katta e’tibor bilan nişonlanmoqda. Suhbatimizni uşbu buyuk zot haqidagi savoldan boşlasak. Bilişimça, bundan ön yillar muqaddam “Nasaf” nomli bir kitobingiz çop etilgan edi. Şuningdek, matbuotda ham qator maqolalaringiz e’lon qilindi. Öşa tadqiqotlaringizda Amir Temurning biz şu paytgaça darsliklarda öqib kelgan tavallud joyini, ya’ni Yakkaboğ tumanidagi Xöja Ilğor qişloği emas, balki butunlay boşqa mavze ekanini körsatdingiz. Şunga aniqlik kiritsangiz.

– Rahmat. Nihoyat, bu mavzuga qiziquvçilar ham çiqqanidan xursandman. Bu voqea aslida yigirma yil avval boşlangan edi. Öşanda men Nasaf şahrining tarixi, ta’lim tizimi va undagi madrasalar faoliyati haqida yozişni boşlagandim. 2006-yili Qarşi şahrining 2700 yillik töyi nişonlanayotgandi.

Mening eng asosiy maqsadlarimdan biri qadimgi Keş va Nasaf örtasidagi çegarani aniqlaş edi. Şundan boşqa heç qanday niyat yoki rejam yöq edi. “Xöş, bu çegara qayerdan ötgan?” degan savolga javob izlab, Niyoza mavzesiga duç keldim. Qarasam, tarixiy Niyoza örnini akademik M. Masson, professor Şamsiddin Kamoliddinov va yana bir qança tadqiqotçilar Keş hududi içkarisida körsatgan ekan. Ular bu mavzeni maşhur Navqad Qurayş qal’asi bilan çalkaştirib yuborgandi. Bu ikki tarixiy maskan ham hozirgi Qamaşi tumani hududida joylaşgan.

Istaxriy X asrda “Kitab al-masalik val-mamalik” asarida bu joyni “Nasafga qaraşli” deb juda aniq körsatgan. Keyin XII asrda yaşagan Abdukarim Sam’oniy: “Men bir keça Niyozada qoldim. Havosi juda sovuq ekan”, deb yozadi. Örta asrlardagi barça mualliflar uni Nasafdan bir kunlik masofada ekanini ta’kidlaydi.

Niyoza mavzesini örgana boşlaganimda tarixçi Azamat Ziyoning 1993-yili e’lon qilingan “Amir Temur tuğilgan joy xususida” nomli maqolasiga duç keldim. Unda Mu’iniddin Natanziyning “Sohibqiron Amir Temur Niyoza mavzesida tuğilgan” degan ma’lumotlari ham keltirilgan edi. Xuddi öşa paytlari ajoyib tadqiqotçi, rahmatli döstimiz Ğulom Karim Mu’iniddin Natanziyning mazkur “Muntaxab ut-tavorix” asarini tarjima qilayotgan ekan. U ham menga Azamat Ziyoning fikri töğri ekanini aytdi va qölyozmada rostdan ham şunday yozilganini tasdiqladi.

Mu’iniddin Natanziy: “Sohibqiron duşmanni tözğitib yubordi va Obi Yomga kelib tuşdi. Öşa manzilda otlar suv va öt-ölanga töyib yöl çarçoğini çiqargaç, u yerdan özining tuğilgan joyi va asl makoni Niyoza qişloğiga jönadi”, deb yozgandi. Obi Yom – hozirgi Nurobod tumaniga qaraşli Jom qişloği. Bu ma’lumot meni hayron qoldirdi. Özim ham boşida dovdiradim. E-e, hamma taniqli tadqiqotçilar şu paytgaça Ibn Arabşohdan boşqa heç bir muallif sohibqiron Amir Temur tuğilgan joy haqida ma’lumot bermagan, deb bizni qat’iy işontirib kelayotgandi-ku!

Şundan söng Amir Temur haqidagi boşqa manbalarni ham qidira boşladim.

– Balki, u yer sohibqironning mulk yeri bölgandir? Çunki Amir Temurning otasi Amir Tarağay ham bek, katta mulkdor bölgan-ku.

– Töğri. Bu gapingizga heç qanday e’tirozim yöq. Biroq Natanziy bu mavze sohibqironning tuğilgan joyi va asl makoni ekanini alohida ta’kidlab körsatayotir. Mana, Amir Temurning yoşlik davrini qayerdan izlaş kerak! Faqat, har xil oldi-qoçdi afsona va rivoyatlardan emas. Hozir mazkur mavzuda tadqiqot işlari amalga oşirilyapti va yangi natijalarga erişilyapti. Siz-u biz söz yuritayotgan uşbu ma’lumotlar birdan va osongina paydo bölib qolayotgani yöq.

“Nasaf” kitobi çop etilgaç, oradan 4-5 yil ötib, öşa hududdagi vaqf mulklariga oid birlamçi tarixiy hujjatlardan Natanziy ma’lumotlarini töldiradigan muhim axborotlar topildi.

Bu hududda Amir Temur obod qilgan “Xon supa” degan joy bölgani, Mirzo Uluğbek şu paytgaça örni noma’lum bölib kelayotgan maşhur “Puli Mirza” köprigi, uning yonida karvonsaroy, masjid qurdirgani aniqlandi.

– Unda Amir Temur Xöja Ilğorda tuğilgan degan qaraşlar qayerdan paydo bölgan?

– Körib turibsiz-ku, qölyozma manbalarda butunlay boşqa yangi axborotlar çiqib kelmoqda. Boşida ularni baralla aytişga menda ham jur’at yetmadi. Çunki maktab va oliy öquv yurtida butunlay boşqa ma’lumotlarni öqigandim. Tadqiqotlarim menga ularga teskari xulosalarni berayotgandi. Şundan söng “Temurnoma” asarining bir neçta nusxasini qayta öqib çiqdim. Natanziy, Şarafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Şomiy asarlari bir-birini töldiradi va tasdiqlaydi. Sohibqironning Niyoza mavzesida tuğilgani tarixiy manbalarga köra, deyarli aniq. Bu mavzuda ham albatta, maxsus maqolalar tayyorlanmoqda.

Sohibqironning Xöja Ilğorda tuğilgani töğrisida Ibn Arabşoh yozib qoldirganini aytdik. Uning ma’lumoti sizning savolingizga javob vazifasini ötaydi.

– Xöş, sizning bu ilmiy qaraşlaringizga tarixçi olimlar qanday munosabatda bölişdi?

– Munosabatlari... yaxşi bölmadi. Buni özim ham kutgandim. Ammo bu ma’lumotlar qadimiy qölyozma manbalarda turibdi. Endi ularni nima qiliş kerak? Tinçgina yuraylik, deb taşlab yuboramizmi? Buning nimasi qiziq? Bundan nima foyda?

Şuning uçun Xöja Ilğor qişloğiga ham borib, u yerni ham atrofliça örgandim. Ikkala hududni ham tadqiq qildim. Töğrisi, Xöja Ilğordagi ba’zi narsalarni aytişga odam uyaladi. U yerda mutlaqo notöğri qaraşlar şakllanib qolgan. Masalan, u yerdagi Polvontoş haqida eşitganmisiz?

– Ha, eşitganman. Afsonalarda Amir Temur bolaligida şu toşni kötarib maşq qilgan, deyiladi.

– Endi öylab köring, Amir Temur tuğilgan paytda u yer qabriston bölganmi?

– Taxminan şunday bölsa kerak.

– Amir Temur qabristonda tuğilmagan! Siz yoki boşqa ziyoratçilar borganda mahalliy odamlar: “Keling, mehmonjon, mana, Polvontoş. Kötarib, özingizni sinab köring. Sohibqiron bobomiz mana şu toşni yelkalab, tepalikka köp çiqib-tuşgan”, deyişadi. Öşa toşni körib, bu gaplarni eşitib, içimda nimadir uzilib ketganday böldi. Biz haqiqiy ilm, tarixiy dalillardan naqadar uzoqlaşib ketganmiz-a! Aslida, u – qabr toşi. Erkak kişiniki emas. Bir beçora ayol yoki yoş bolaning qabriga qöyilgan toş.

– Nima uçun bunday xulosaga keldingiz?

– U tuzilişiga köra “beşiktoş”, hajmi ham kiçkina, yozuvlari işqalanaverib, yeyilib ketgan. Toş ustida suv uçun yasalgan savob çuquri yaxşi saqlanib qolgan.

Qabristonda şunday qabr toşlari bor, ularni uç kişi ham kötara olmaydi. Yozuvlarini öqiş uçun 6-7 kişi bölib arang örnidan siljitganmiz. Kimdir şu qabrtoşini “Polvontoş” deb kötarib yurganini sohibqiron körganida, bu hurmatsizlik uçun öşa odamni qattiq jazolagan bölardi.

Xöja Ilğor haqida yana bir gap. U yerga borsangiz, katta ayvon va orqasida pişiq ğiştdan qurilgan çiroyli daxma bor. Ayvon oldida bir neçta qabr toşi turibdi. Ularning yonidagi devor tepasiga 2004-yili katta qora marmartoş örnatilib: “Bu qabr marhum va mağfur Xoja Muhammad ibn Xoja al-Qosim hazratlaridir, 717-yilda vafot qilgan”, deb yozib qöyilgan. Xursand bölib, şu yerdagi mas’ullardan: “Bu ma’lumot qaysi tarixiy manbadan olingan?” deb söradim. Ular menga: “Mana, şu ma’lumot yozilgan qabrtoş yoningizda turibdi-ku”, dedi. Öşa toşlarni siljitib, bitta-bitta suratga oldim va yozuvini öqidim. Ular 717 sanasini qayerdan olgani va qabr toşi sohibini nega Xöja Ilğor deb atayotganiga hayron bölmaslikning iloji yöq. U yerda aslida hijriy 963-yili *(milodiy 1556)* vafot etgan Xoja Muhammad Şarif ibn Xoja Qosimning qabrtoşi turibdi! Uşbu şaxsning qabrini “Xöja Ilğor” deb nomlab qöyibdi. Ularga: “Bu yerda ham uyatli iş bölib qolibdi. Bu qora marmarni olib taşlanglar. Ma’lumotlar notöğri yozilgan. Bu şaxs XVI asr örtalarida vafot etgan, mana, yozuvi turibdi. U Amir Temur bobodan bir yarim asr keyin vafot etgan şaxs”, deb aytdim.

Bu qabristondan topilgan eng qadimiy toş 1417-yilda vafot etgan ayolga tegişli. Buni aytayotganimning sababi, ba’zi mualliflar: “Şayboniylar hokimiyat tepasiga kelgaç, temuriylar tarixiga taalluqli Xöja Ilğor qişloğini ham vayron qilib, tekislab taşlagan”, qabilida gaplarni yozadi. Bu joy Temuriylar davridayoq qariyb hozirgi körinişida bölgan. Şayboniylarning bu joyga umuman aloqasi yöq. Amir Temur hayotlik davridayoq bu joy qabriston edi. Xullas, bu mavzuni bitta suhbat bilan yoritib bölmaydi.

– Umuman, Amir Temur haqida xalq orasida turli afsonalar yuradi. Şulardan biri – “Amir Temur ğori”. Xöş, Temur ğori bilan sohibqiron örtasida qanday tarixiy boğliqlik bor?

– “Amir Temur ğori” degan atama ilmiy va ommaviy muomalaga 1966-yildan keyin kira boşladi. Ungaça heç kim bu ğorni Amir Temur nomi bilan atamagan. Sovet davrida uşbu hududni örgangan J. Kastane, K. Kabanov kabi olimlarning asarlarida ham bu nom uçramaydi. Ular manbalarga tayanib “Şerlar ğori” *(Qal’ayi Şeron)* deb yozgan.

– Nima uçun aynan 1960-yillardan keyin “Amir Temur ğori” iborasi paydo böldi?

– Sababi juda oddiy. Jamiyat haqiqiy ilm va özligidan uzoqlaşib ketdi. Öz tarixini asl manbalardan örganmay qöydi. Rus tadqiqotçilari nima deb yozgan bölsa, şuni tarjima qilib, ustiga ozgina töqima afsonalar qöşib tarqatişdi va bu ohang avj oldi. Haqiqiy tarixni manba asosida örganiş qölidan keladigan mutaxassislar ham şöro ğoyalari va “katta oğa” olimlariga ergaşdi... Ilm ketdimi – millatning holiga voy!

Ötgan yili ham televideniyeda şu ğor haqida körsatuv namoyiş etildi. Unda kimdir: “Bu, albatta afsona, lekin har qanday afsonaning tagida haqiqat böladi”, dedi. Men buning teskarisini aytaman – afsona ba’zan haqiqatni şu qadar tösib qöyadi, keyin uni qidirib ham topib bölmaydi.

– Balki, Amir Temur öz faoliyatining dastlabki yillarida, kiçik qöşini bilan ta’qibdan qoçib, öşa ğorda yaşiringandir?

– Amir Temurning Tuğluq Temurxon tomonidan Keşga hokim etib tayinlangandan keyingi davrini olaylik. Bu paytda u 25 yoşda edi. Öşa davrdan boşlab, uning hayoti qayerda va qanday keçgani birlamçi qölyozma manbalarda deyarli kunma-kun juda aniq yozilgan. Nizomiddin Şomiy, Mu'iniddin Natanziy, Şarafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla'yi sa'dayn" asarlarida bu qişloqlar nomma-nom sanaladi. Uşbu tarixiy manbalarga köra, sohibqironning yoşligi asosan Qaşqadaryo yoqalaridagi biz tilga olgan Niyoza va Navqad Quryş, Qavçin, Qabay Mitan, Oq uy, Kiyik tepa mavzelari oraliğida ötgan. Ilyosxojaxon davridagi qoçqin hayoti ham faqat şu hududlarda keçgani tilga olinadi. Ular toğda emas, daryoning örta qismida edi. Sohibqiron duşmandan qoçib, Keş toğlariga yaşiringani haqida hozirça birorta qölyozma manbada ma'lumot uçramadi.

– Xöş, öşa mö'tabar manbalarda sohibqironning yuqoridagi ğorga borgani haqida biror ma'lumot bormi?

– Mutlaqo yöq! Uning u yerga borişi mantiqan ham mumkin emasdi. Çunki hayoti butunlay boşqa hududda keçgan. Siz aytayotgan ma'lumotlar bizning zamonamizda öylab topildi va avj oldirildi. Bu ğor qopqon. Unga kirdingmi – duşmandan qutula olmaysan. U seni osongina qamal qilib, asir oladi. Xöş, harbiy daho bölgan Amir Temur öz askarlarini şunday xavfli qopqonga boşlab boradimi?

Bu ğorning nihoyatda boy va gözal tarixi bor. Ilk ma'lumotlar, hatto Iskandar Zulqarnayn davriga borib taqaladi. Keş hukmdori Oksiart aynan şu yerda yaşiringan va asir olingan. Öşa paytlarda ğorning içi kengroq bölgan. Odam qöli bilan işlangan maxsus ustunlar örnatilgan edi. Ikkinçidan, tarixdagi maşhur Muqanna ham aynan şu ğorda yaşirinib, halokatga uçragandi.

– Bu haqda aniq manba bormi?

– Bor, albatta. Muqanna haqida yozgan barça tarixçilar Som toği va öşa yerdagi ğorni tilga oladi. Keyinçalik rus istilosi davrida Qarşida ruslarga qarşi jang qilib yengilgan amir Muzaffarning öğli Abdulmalik Töra *(Katta töra)* Şahrisabz va Yakkaboğ hokimlari Jörabek va Bobobekdan panoh söraydi. Bu voqea Muhammad Salimbekning "Tarixi Salimiy" kitobida juda aniq bayon etilgan. Hokimlar unga: "Sizni jon-jon deb qabul qilamiz, lekin orqangizdan rus qöşini kelib, yurtimizni vayron qiladi. Biz ularga bas kelolmaymiz. Yaxşisi, özingiz bir çora köring", deyişadi. Şundan söng Abdulmalik Töra qöşinini tarqatib, 150-200 nafar sodiq yigitlari bilan borib, aynan öşa ğorga bekinadi.

Muhammad Salimbek 1898–1910-yillar oraliğida öşa hududga maxsus safar uyuştirgan. Bitiklarida uni "Şerlar qal'asi" deb ataydi. Körib turganingizdek, u ham "Amir Temur ğorini kördim" demayapti. Mana, bu haqiqiy tarixiy va yozma manba.

– Amir Temur nomi bilan boğlanadigan yana bir maşhur maskan – Jizzax viloyatining Ğallaorol tumani hududidagi "Temur darvozasi" darasidir. Bu joyning sohibqironga qanday boğliqligi bor?

– Bugungi kunda ham ijtimoiy tarmoqlarda yoki ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan maqolalarda bu nomni töğridan töğri Amir Temur şaxsi bilan boğlaşadi. Daraning ikki çekkasida xuddi darvozadek ikkita bahaybat qoya turibdi. Orasi juda tor. Bu joy qadimdan "Ilonötdi" darasi deb ataladi.

Hozir biz u yerdan zamonaviy yöllar, maşina va poyezdlarda bemalol ötganimiz uçun ötmişni tasavvur qila olmaymiz. Qadimda davondagi biz yurgan yöllar bölmagan. Hatto piyoda yuriş ham muşkul edi. Butun boşli karvonlar va katta qöşinlar öta oladigan yagona tor yölak aynan şu dara edi. Ikki tomonida katta qoya bölgani uçun u yerni "Temir qapuğ" *(Temir darvoza)* deyişgan. Toşning mustahkamligini temir sözi bilan ifodalaşgan. Bunday "Temir darvoza" tarixda uçta bölgan: birinçisi – şu Ilonötdi darasi, ikkinçisi – Surxondaryoga kiraverişdagi Sayrob *(Darbandi ohanin)*, uçinçisi Kavkaz toğlaridagi *(Toğli Qoraboğ)* Derbent darvozasidir. Bu nomning kelib çiqişi tarixi Amir Temur davridan million yillar nariga – tabiat "ijodi"ga borib taqaladi.

Tarixda qiziq bir ibora bor. Şu uçta Temir darvozani *(Temir qapuğni)* egallagan kimsa nomiga "Jahongir" unvoni qöşilgan. Sohibqiron bu uç qapuğni ham fath etgan edi.

– Siz xalqimiz tarixini, ayniqsa harbiy san'at tarixini ham çuqur örgangansiz. Alp Er Tunga haqida ham ma'lumot bersangiz. Çunki bu şaxs turkiy sarkardalarning eng boşida turuvçi siymo hisoblanadi.

– Alp Er Tunga – Turon tarixida eng baland kötarilgan istiqlol va qudrat bayroğidir. Köpçilik uni Turon davlatining asosçisi deb ataydi. Biroq men bu iboraga qarşiman. U miloddan avvalgi VII asrda *(taxminan m.a. 600–620-yillar atrofida)* yaşagan. U Turon davlatining asosçisi emas, undan ming yillar avval mavjud bölgan Tur *(Turon)* xoqonligining vorisidir. "Tunga" sözining ma'nosiga kelsak, u "filni ovlaydigan yölbars" deganidir.

Afsuski, "Özbekiston milliy ensiklopediyasi"da Alp Er Tunga haqida söz ketganda: "Bu afsonaviy şaxs, tarixda bölmagan", deb yozilgan. Uni Afrosiyob bilan bir şaxs deb talqin qilişni ham inkor etadi. Bugungi kunda birorta arxeologning oldiga borib, "Falon joyda Alp Er Tunga bobomizning qabri bor ekan, yuring, örganaylik", desangiz, sizni masxara qilişi mumkin. Köpçilik uni tarixiy şaxs sifatida tan olişni istamaydi. Xayriyat, sönggi yillarda ziyolilar va olimlar örtasida bu qaraşlar özgara boşladi. Alp Er Tunga öz davrida Turon saltanatini hozirgi Iroq hududlarigaça kengaytirgan eng sönggi buyuk xoqon edi. U zaharlab öldirilgaç, Turon davlati parçalanib, Suğd, Xorazm, Çağaniyon, Usruşana kabi mayda viloyatlarga bölinib ketdi va keyinçalik ularni Ahamoniylar bosib oldi.

– Sizning Buxoro va Samarqand madrasalari tarixi haqidagi monografiyalaringizni varaqlab, köplab noyob ma'lumotlarni öqidim. Biroq bir savolga javob topolmadim: öşa davrdagi madrasalarimizda harbiy ta'lim yoki harbiy tayyorgarlik darslari ötilganmi?

– Bu boradagi tadqiqotlarim – faqat boşlanğiç qadamlardir. Ularning negizida yana yuzlab yangi dissertatsiyalar yozilişi mumkin. Qadimda harbiy san'at oddiy madrasalarda alohida fan sifatida öqitilmagan. Harbiylar xon yoki podşoh saroyi qoşidagi maxsus maktablarda tayyorlangan. Masalan, Abdullaxon davrida bunday xos jangçilarni "çuhra" deyişgan. Bu, xuddi yaponlarning nindzya yo samuray, koreyslarning taekvondoçi, xitoyning kunfuçilari, turklarning yaniçarlari kabi öta professional harbiy bölim bölgan. Bizda qadimda bu toifa "çovuş" yoki "çovkar" *(çopqir)* deb ham atalgan.

– Sizning qimmatli tarixiy ma'lumotlar jamlangan "Samarqand ta'lim tizimi va madrasalar tarixi" kitobingiz bor-yöği 500 nusxada çop etilibdi. Kitoblaringizni öqib, özimizning ahvolimizga nihoyatda açinib ketyapman. Şunça köp va boy ma'lumot... Bor-yöği 500 nusxa, qariyb 40 millionlik millatmiz-a! Nima uçun bunday öta muhim ilmiy kitoblarni keng ommalaştiriş masalasi haligaça kun tartibiga qöyilmayapti?



– Xöş, bu masalani kun tartibiga kim qöyişi kerak? Olimlar va ziyolilarning qölida bunday ma'muriy va ijtimoiy kuç yoki huquqiy boşqaruv tizim yöq. Bozorda heç qanday ilmiy yo badiiy qimmatga ega bölmagan, saviyasiz kitoblarning 50 000 – 100 000 nusxada çop etilayotganini körib, rostdan ham açinasan. Bizda ilmiy asarlarni xalqçil, sodda tilda ommalaştiriş, ularni muntazam tarğib qiliş tizimi hali şakllangani yöq. Televideniye va matbuotda ham olimlar ilmiy asarlarini taşviqot qiliş sohasi deyarli közga taşlanmaydi.

Bundan taşqari, bizda ruslar davridan meros qolgan bir yomon an'ana bor. Ilmiy işni faqat odam tuşunmaydigan, öta murakkab "akademik til"da yoziş kerak, degan qaraş şakllanib, temirday qotib qolgan. Nazarimda, ba'zan muallifning özi ham nima yozganini tuşunmaydi. Sovet davrida bu atayin qilingan – mahalliy xalq öz tarixini çuqur tuşunmasin, deb şunday sun'iy til yaratilgan. Bu ham yetmaganday, gözal özbekça sözlarimizga "arxaizm" tamğasi bosilib, iste'moldan çiqarilgan. Bu xuddi şirin ovqatga tuz örniga qum sepiş bilan barobardir.

– Juda çiroyli öxşatiş böldi. Domla, hozirgi kunda tarixiy qahramonlarimiz – Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi haqida seriallar va badiiy filmlar olinyapti. Agar ularni körgan bölsangiz, munosabatingiz qanday?

– Bu satrlarni öqiyotgan ijodkorlarimiz xafa bölmasin. Lekin haqiqatni aytiş kerak. Xalq va davlatni aldaş yaxşi iş emas. Bir paytlar Amir Temur haqida işlangan filmni körib, boşlanişidayoq qattiq xafa bölgandim. Emişki, Amir Temur jarlikka qarab yugurib borayotgan otlar suruvini halokat yoqasidan qaytaradi. Pastda tösatdan Tuğluq Temurxon va uning öğli Ilyosxöja paydo bölib qoladi. Ilyosxöja unga "Otdan tuş, xonning qarşisida turibsan, tiz çök", deb ödağaylaydi. Öşa sahnada Amir Temurni 20 yoşli yigit, Tuğluq Temurxonni 70 yoşlardagi oppoq soqolli çol, Ilyosxojani 30 yoşli navqiron yigit qilib körsatibdi. Tarixda Tuğluq Temur va Amir Temur salkam tengdoş bölgan! Ilyosxöja Amir Temurning katta öğli Jahongir Mirzo bilan qariyb tengdoş – öspirin bola edi. Tarixni bu darajada buzib körsatiş, hay attang... Menimça, film ijodkorlaridan birortasi sohibqironni bilmagan. Şu joyida filmni öçirdim.

– Endi tarixdagi harbiy ta'lim masalalari haqida gaplaşsak, ötmişda ham harbiylik alohida fan sifatida örgatilganmi?

– Madrasalarda fiqh, mantiq, falsafa va adabiyot tizimli öqitilgan. Fiqhga oid "Muxtasar" yoki "Hidoya" turkumidagi kitoblarda jihod, ğazavot va jang olib borişning huquqiy qonun-qoidalari alohida boblarda örgatilgan. Amaliy harbiy maşqlar şahar taşqarisidagi maxsus maydonlarda ötilgan.

Bir qiziq tarixiy voqeani aytay. Abdullaxon II davrida bir amaldor xiyonat qilib, Uyğuristonga qoçib ketadi. Xon uning ortidan atigi 4-5 nafar "çuhra" *(maxsus jangçi)* yuboradi. Öşa jangçilar qoçoqni Xitoy devorining yonidan tutib, Buxoroga olib keladi! Tasavvur qiling, ular şunça masofani bosib ötib, boşqa davlatlar hududidan "Buxoro xonining odamlari" sifatida bemalol, daxlsiz ötgan. Bu – davlatning xalqaro obrösi va harbiy qudratidan dalolatdir. Yoki boşqa bir jangda Abdullaxonning qöşini qiyin vaziyatda qolganda, xonning birgina işorasi bilan 8-10 nafar maxsus çuhra örtaga tuşib, duşmanning qalin saflarini yorib ötadi va jang taqdirini özgartiradi. Biz bunday buyuk harbiy san'at namunalarini na filmlarimizda körsatamiz va na darsliklarimizda aytamiz. Şu sababli tarixiy kinolarimiz samimiy va tabiiy çiqmaydi. Çunki öz tariximizni özimiz bilmaymiz.

– Şahrisabzdagi Oqsaroy gumbazini töp öqlari bilan urib vayron qilgan şaxs Abdullaxon II ekani haqidagi qaraşlar qançalik haqiqatga yaqin?

– Yöq, bu ham ruslar töqib çiqargan navbatdagi uydirma. Abdullaxon hayotlik davrida Buxoro xonligida juda katta bunyodkorlik işlarini amalga oşirgan. U heç qaçon bunday noyob obidani buzmagan. Oqsaroy peştoqining vayron bölişiga birinçidan, XIX asrning ikkinçi yarmida rus generali Abramov qöşinlarining şaharni artilleriya qurollari bilan olis masofadan turib, ayovsiz öqqa tutgani sabab bölgan. Öşanda şahar içidagi köplab qadimiy obidalar qatori Oqsaroy peştoqi ham şikastlangan.

Tarixga nazar taşlasak, aştarxoniylar sulolasi davrida, XVIII asr boşlarida ham Ubaydullaxon kabi hukmdorlar Şahrisabzga kelib, aynan mana şu Oqsaroyda taxtga ötiriş marosimlarini ötkazgan. Demak, öşa paytda Oqsaroy hali butun va muhtaşam bölgan.

Tariximizda 1710–1780-yillar oraliği buzğunçilik davri deb ataladi. Xuddi şu vaqtlarda Samarqand va Şahrisabz markaziy hokimiyat bilan tinimsiz harbiy janglar olib borgan. Oqibatda bu ikki şahar moddiy ta'minotidan ayrilib, tarixiy imoratlar ança vayrona holga kelib qoladi. Ana, qayerdan izlaş kerak, Oqsaroyning vayron bölişini. Bu mavzu ham alohida suhbat talab qiladigan katta ayançli voqeadir.

– Tarixga qiziqqan yoşlar uçun qaysi tarixiy manbalarni öqişni tavsiya qilgan bölardingiz?

– Nizomiddin Şomiyning "Zafarnoma", Mu'iniddin Natanziyning "Muntaxab ut-tavorix", Şarafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla'yi sa'dayn" hamda Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarlarini albatta, öqiş zarur. Va eng asosiysi – Mahmud Koşğariyning "Devonu luğati-t-turk" asarisiz milliy özlikni anglab bölmaydi. Bu kitob – bebaho durlar xazinasi. Alp Er Tunga kabi buyuk ajdodlarimizni biz aynan mana şu kitob tufayli tanidik va suydik. Menga qolsa, insonga beğaraz va haqiqiy döst böladigan yana kamida yuzta kitobning nomini aytardim. Millat qaçon yöq böladi? Öz tilini yöqotgan kuni millat halokatga yöliqadi. Kitoblar tilimiz, sözlarimizning qal'alaridir!

– Domla, juda mazmunli suhbat uçun katta rahmat.

– Sizga ham, gurungimiz hali davom etadi.

Olimjon ÖSAROV suhbatlaşdi.

TAXT SOYASIDAGI AYOLLAR

yoxud Şayboniylar davri

XVI asr solnomalarida xonlar va janglar haqida yuzlab sahifa yozilgan bölsa, ayollarga bir neça satrgina ajratilgan, köpinça ularning ismi ham keltirilmay, "falon sultonning qizi" yoki "falon xonning onasi" deb qöya qolingan. Kelin bölib tuşgan malikalar köproq laqabi bilan qayd etilgan *(masalan, qozoq xonadonidan çiqqanlar şunçaki "Qozoq xonim" deb atalgan)*, şu bois bir ayol turli asarlarda turli nom bilan uçraydi, ba'zan esa ikki şaxs bitta deb adaştiriladi. Biroq bu siyrak ma'lumotlarni vaqfnomalar, qabr yozuvlari va avliyolar haqidagi asarlar bilan qiyoslasak, Şayboniylar davri ayollari sulolalarni boğlagani, madrasa qurdirgani, qişloqlarni vaqfga bergani, qöşni hukmdorlarga elçi jönatgani va hatto eng obröli şayx bilan ma'naviy bahsga kirişgani ma'lum böladi.



TEMURIY MALIKA – ŞAYBONIY XONLARNING ONASI

Hofiz Taniş Buxoriyning "Abdullanoma" asariga köra, 1451-yilda Abulxayrxon temuriy Abu Saidga Samarqand taxtini egallaşda yordam bergani evaziga Mirzo Uluğbekning qizi Robiya Sultonbegimga uylangan. Bu nikohdan tuğilgan Köçkunçixon *(1510–1531-yillarda Movarounnahr hukmdori)* va Suyunçxöjaxon *(Toşkent va Turkiston hokimi, 1510–1512-yillarda Samarqandda oliy xon sifatida xutba öqittirgan)* keyinroq oliy xon darajasiga kötarilgan. Demak, XVI asr boşida Movarounnahrni boşqargan ayrim xonlar Uluğbekning nabiralari bölgan: ikki sulola kuraşi haqida köp yoziladi-yu, ularning qon-qarindoşligi kam esga olinadi. Robiya Sultonbegim 1485-yilda vafot etgan, Turkistondagi Ahmad Yassaviy majmuasi yonidagi maqbarasi hozir ham ziyoratgoh.

IKKI XONADONNI BOĞLAGAN OPA-SINGILLAR

Muhammad Şayboniyxonning onasi Oqqözibegimning singlisi Jahonbegim Qozoq xonligi asosçilaridan Jonibek Sultonga turmuşga çiqib, Qosimxonni *(1445–1521)* dunyoga keltirgan. Şunday qilib, özbek davlati asosçisi bilan Qozoq xonligining yirik hukmdori xolavaççа bölgan. N. Atigayevning qayd etişiça, XV asr 90-yillari örtalarida qozoq xoni Burunduq ikki qizini şayboniy sultonlarga uzatgan. Ulardan Ubaydullaxonning otasi Mahmud Sultonga tegganining na ismi, na keyingi hayoti ma'lum, ikkinçisi haqida esa quyida söz boradi.

SIYOSIY ITTIFOQ VOSITASI BÖLGAN NIKOHLAR

Hukmdorlar orasidagi nikoh siyosiy kelişuv ahamiyatiga ega bölgan, buni Ubaydullaxon xotinlari misolida yaqqol köriş mumkin. Birinçi nikoh sulola içida tuzilgan: Muhammad Solihning "Şayboniynoma" asariga köra, 1504-yilda Andijon olingaç, Şayboniyxon Suyunçxöjaxonga qizini jiyani Ubaydullaxonga uzatişni buyurgan. Ikkinçisi mağlub temuriylar bilan boğliq: 1507-yilda Hirot olingaç, Ubaydullaxon Muzaffar Husayn mirzoning qizi Mehrangiz begimga uylangan, Xondamirning yozişiça, bu nikoh bir-ikki yildan söng ajraliş bilan tugagan.

Uçinçi xotin Habiba Sulton xonim "Tarixi Raşidiy" muallifi Mirzo Muhammad Haydarning singlisi edi. Otasi Xurosonga qoçgaç, u Şayboniyxonning xotini Möğul xonim qaramoğida ulğaygan va katta töy bilan Ubaydullaxonga uzatilgan.
B. Ahmedovning qayd etişiça, qizning otasi 1508-yilda Şayboniyxon buyruği bilan qatl etilgan. Törtinçisi Boburning toğavaççasi Möğul xonim *(Oyşa Sultonbegim)* bölib, avval Şayboniyxon nikohida bölgan, xon halok bölgaç, Ubaydullaxonga ötgan va undan Muhammad Rahim sulton tuğilgan. Beşinçisi Qosimxonning qizi, saroyda "Qozoq xonim" deb tanilgan Qutluğ Sulton xonim bölib, voris Abdulazizxon undan dunyoga kelgan. N. Atigayev "Musaxxir al-bilod"ga asoslanib, bu nikoh 1510–1511-yillarda tuzilgan bölişi mumkin deb hisoblaydi.

Bunday nikohlarda ayolning xohişi emas, siyosiy manfaat hal qiluvçi bölgan. "Tarixi Raşidiy"ga köra, 1500-yilda Samarqand olingaç, Boburning xolasi Mehr Nigor xonim Şayboniyxonga majburan nikohlangan, köp ötmay, xon uni qöyib yuborib, Boburning opasi Xonzodabegimga *(1478–1545)* uylangan. Xonzodabegim qamaldagi Bobur xon şartiga könişga majbur bölgaç uzatilgan, keyinroq suiqasdda gumon qilinib taloq qilingan, Şayboniyxon ölimidan söng esa Şoh Ismoil uni Kobulga, Bobur huzuriga yuborgan.
U Qandahorda vafot etgan va Kobuldagi Bobur maqbarasiga dafn qilingan.

MEHR SULTON XONIM – SAMARQANDNING HOMIY MALIKASI

Burunduqxonning ikkinçi qizi Mehr Sulton xonim Şayboniyxonning tönğiç öğli Muhammad Temur sultonga kelin bölgan va u bilan yigirma yilça birga yaşagan. Eri 1514-yilda jangda halok bölgaç ham malika mavqeyini yöqotmagan, Samarqand va qöşni viloyatlarda katta yer-mulkka egalik qilgan. Ö. Sultonovning
R. Mukminova tadqiqotiga tayangan maqolasida yozilişiça, u 1520-yillarda Samarqanddagi Madrasayi Oliya Xoniya majmuasiga katta vaqf ajratgan. Uning mablağı hisobiga Madrasayi Şimoliya binosi hamda şayboniylar xonadonining öttizdan ziyod a'zosi dafn etilgan suffa bitkazilgan. Vaqfga önga yaqin qişloq, boğlar, qirqqa yaqin dökon va ustaxona, hammom va tegirmon kiritilib, daromadi ikki madrasa, kutubxona va masjidga sarflangan. Sultonov uni öşa davrda mintaqadagi ayollar vaqflarining eng yirigi deb baholaydi.

Malika siyosatdan ham çetda qolmagan: "Boburnoma"da hijriy 935 *(1528–1529)* yildan keyin u va öğli Pulod sultonning elçilari Bobur saroyiga kelgani yozilgan. Mukminova buni malikaning yuksak mavqeyidan dalolat deb biladi. Qozoq xonim ham Ubaydullaxon poytaxtni Buxoroga köçirgaç, şaharda bir qator qurilişlarga homiylik qilgan, bu esa köçmançi va ötroq an'analar yaqinlaşganini körsatadi.

QABRTOŞLAR, XOTIRALAR VA ME'MORIY YODGORLIKLAR

Yozma manbalar sukut saqlagan joyda qabrtoşlar yordamga keladi. Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasidagi qabr toşiga köra, Jonibekxonning qizi Aman Bike xonim 1519-yilning iyulida vafot etgan. Ehtimol, bu "Tarixi Raşidiy"da tilga olingan, Köçkunçixonning öğli Abdulla sultonga uzatilgan qozoq malikasidir, biroq B. Bobojonov, A. Möminov va Y. Paul sana va ota ismi töğri öqilganiga şubha bildirgan.

Davr solnomalarining deyarli barçasi erkaklar qalamiga mansub, şu jihatdan Boburning qizi Gulbadanbegimning *(taxm. 1522–1603)* "Humoyunnoma" asari alohida örin tutadi. Asar *1586–1587*-yillar atrofida Akbar podşoh topşiriği bilan yozilgan, yagona çala nusxasi Britaniya kutubxonasida saqlanadi. Muallif Bobur Samarqandni uç marta egallaganini, sönggi gal olti oy qamalda qolib, qarindoşlaridan madad kelmagaç, tuşkunlikka tuşganini eslaydi. Rasmiy tarixda kam uçraydigan bunday insoniy keçinmalar asar qadrini oşiradi.

Ayolga hurmat me'morçilikda ham aks etgan: Q. Rajabov va S. Inoyatovning qayd etişiça, Buxorodagi Modarixon *("Xonning onasi")* madrasasi 1566–1567-yillarda Abdullaxon II tomonidan onasi şarafiga barpo etilgan va Abdullaxon madrasasi bilan birga Qöş madrasa majmuasini taşkil qiladi.

SÖFIY AYOL VA MIR ARAB

A. Şanazarovaning tadqiqotlarida yozilişiça, XVI asr Buxorosida Oğoyi Buzurg *("Uluğ xonim")* nomi bilan tanilgan söfiy ayol yaşagan. U hukmdorlar xonadoniga mansub bölmasa-da, muridlari orasida erkaklar, ayollar va hatto hukmron sulolaning nufuzli vakillari bölgan. Uning hayoti muridi Hofiz Basirning "Mazhar ul-ajoyib" asarida saqlangan. Uşbu asarga köra Basir Oğoyi Buzurg bilan Ubaydullaxonning ustozi va eng yaqin maslahatçisi, Buxorodagi maşhur madrasa nomi bilan boğliq Mir Arab örtasida ma'naviy bahs bölib ötganini va unda ustozi ustun kelganini hikoya qiladi. Öşa davrda ayollar jamoaga boşçilik qilgani va siyosiy elita bilan muzokara yuritganini körişimiz mumkin. Oğoyi Buzurg qabri qariyb beş asrdan beri ziyorat qilinadi.

MAŞHAD MUDOFAASINI BOŞQARGAN AYOL

Manbalarda şayboniylarga qarşi tomondagi ayollar ham uçraydi. Ozarbayjonlik tarixçi T. Najaflining yozişiça, 1536-yilda Ubaydullaxon Maşhadni qamal qilganda, şahar mudofaasiga safaviy amir Sufyon Xalifa Rumluning rafiqasi boşçilik qilgan. Qarşilik kuçli bölgani sababli qamal çözilib, Ubaydullaxon Hirotga yöl olgan.

Xulosa qilib aytganda, Şayboniylar davri ayollari haqidagi bilimlarimiz hali çeklangan. Köpçiligining tuğilgan va vafot etgan yili, ba'zilarining esa ismi ham noma'lum. Şunga qaramay, vaqfnomalar, qabr yozuvlari, tazkiralar va xorijiy manbalar çuqurroq örganilgani sayin bu böşliq tölib bormoqda. Ular taxt soyasidagi ayollar tarixning befarq kuzatuvçilari bölmaganini tasdiqlaydi. Ular nikoh orqali özbek, qozoq, möğul va temuriy xonadonlarini boğlagan, madrasa va kutubxonalar qurilişiga homiylik qilgan, elçi almaşgan, xotiralar bitgan va ma'naviy hayotda munosib örin egallagan. Ularning tarixini tiklaş milliy tariximizning muhim qismini qayta kaşf etiş demakdir.

Farrux FAYZULLAYEV,
tadqiqotçi

XORIJLIK KURSANTLAR NIGOHIDA

HARBIY TA’LIM

Yangi Özbekistonda ta’lim tizimini tubdan takomillaştiriş, zamonaviy kadrlar tayyorlaş bilan birga milliy armiyamizning strategik salohiyatini yuksaltirişga qaratilgan misli körilmagan keng kölamli islohotlar amalga oşirilmoqda. Bugun Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida qardoş davlatlardan kelgan yoşlarning tahsil olayotgani yurtimizning xalqaro miqyosdagi yuksak nufuzi, harbiy diplomatiyamizning muvaffaqiyati va özaro tajriba almaşinuvining yorqin namunasidir.

Xöş, bugun dunyoning nufuzli davlatlarida ta’lim oliş imkoniyatiga ega bölgan xorijlik yoşlarni harbiy ilmni aynan Özbekistonda egallaşga nima ruhlantirmoqda? Mamlakatimiz mudofaa tizimidagi tub özgarişlar, öquv jarayonlarining zamonaviy talablarga mosligi va milliy armiyamizning qudrati ularning taqdirida qanday iz qoldirmoqda? Şu kabi dolzarb savollarga javob topiş maqsadida universitetda tahsil olayotgan qirğizistonlik va tojikistonlik kursantlar bilan samimiy muloqot uyuştirdik. Muloqotimizning ilk daqiqalaridanoq e’tiborimizni tortgan jihat tillarimiz har xil bölsa-da, dillardagi samimiyat va muştarak maqsad bizni birzumda tuşunişga undadi. Özbek tilida sözlaşgan suhbatdoşlarimizning fikrlarini tinglab, beixtiyor Çingiz Aytmatov va Muxtor Şoxonov örtasidagi samimiy gurunglarni esladik. Turli millat vakillari bölişiga qaramay, ularni yuksak ma’naviy qadriyatlar va insoniylik tutaştirgani kabi bugun bizni ham harbiy burç hamda ilmga bölgan intiliş muştarak bir tuyğu atrofida birlaştirib turibdi.

Harbiy ta’lim nafaqat puxta nazariy bilim va jismoniy tayyorgarlikni, balki amaliyotda tezkor hamda töğri qaror qabul qilişni, jamoaviy hamjihatlikni talab etadi. Suhbatimiz davomida zamonaviy harbiy mutaxassisdan jangovar mahorat bilan birga keng dunyoqaraş, tahliliy fikrlaş va doimiy öz ustida işlaş talab etilişiga yana bir bor amin böldik.

Endi esa bevosita xorijlik kursantlarning öz tajribalari, milliy armiyamizning salohiyatiga bergan yuksak baholari va ta’lim jarayonidan olgan taassurotlari haqidagi samimiy iqrorlariga yuzlanamiz.



“Özbekistonda olayotgan ta’lim men uçun katta tajriba va mustahkam köprik”

2-bosqiç kursanti Temirlan QAZAQBAYEV:

– Men Qirğiz Respublikasi Bişkek şahridanman. Bir yillik harbiy xizmatni ötab qaytgaç, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetiga öqişga kirdim. Bu yerdagi har bir kunim nafaqat harbiy ilm-fan sirlarini egallaş, balki yangi dunyoni kaşf etiş, bir umrga tatigulik döstlar orttiriş va haqiqiy ofitser sifatida toblaniş imkoniyatini bermoqda. Töğrisi, begona muhitga ilk bor qadam qöyganda yurakda ozgina hayajon va moslaşiş xavotiri böladi. Samimiy tabassum va ildam uzatilgan döstona qöllar meni ilk kunlardanoq öz bağriga oldi. Bağrikenglik va beqiyos mehmondöstlik tufayli bu yerda özimni begona emas, öz uyimdagidek erkin va xotirjam his qilaman.

Ayniqsa, meni hayratda qoldirgan va qalbimda çeksiz faxr uyğotgan bir voqeani alohida ta’kidlagim keladi. Özbekistonlik tengdoşlarim, ustozlarim bilan suhbatlaşganimda, ularning dunyoga maşhur adibimiz Çingiz Aytmatov ijodini çuqur bilişlari va asarlarini mehr bilan muhokama qilişlarini körib, könglim toğday kötarildi. Aytmatov fenomeni bu yerda şunçalik ardoqlanar ekanki, uning “Jamila”, “Sarvqomat dilbarim”, “Asrga tatigulik kun” asarlaridan keltirilgan iqtiboslarni eşitib, qardoşlarimizning adabiyotimizga, madaniyatimizga bölgan yuksak hurmatini dildan his qildim. Bu e’tibor mening qalbimda öz millatim bilan faxrlaniş tuyğusini yanada junbişga keltirdi.

Universitetda xorijlik kursantlar 10 dan ortiq mutaxassislik böyiça tahsil oladi. Darslarimiz rus tilida olib boriladi. Ta’lim oliş va izlaniş uçun zamonaviy şaroitlar yaratilgan. Nazariy bilimlarimizni amaliy maşğulotlarda, dala-öquv poligonida mustahkamlaş, mustaqil şuğullaniş va harbiy kasbning nozik sirlarini çuqurroq örganiş uçun barça imkoniyatlar eşigi oçiq. Menga bu yerdagi kursantlik hayotining olovli va jamoaviy ruhi juda yoqadi. Erta tongdan birgalikda bir safda jipslaşiş, maşğulotlarga tayyorgarlik köriş, tajriba almaşiş bizni bir oilaga aylantirdi. Albatta, oilamni, jonajon ona şahrimni va yaqinlarimni soğinaman. Bu ötayotgan kunlar menga vaqtni qadrlaşni, mustaqil va irodali bölişni hamda öz maqsadim sari izçil harakat qilişni örgatmoqda.

Kelajakda Qirğiz Respublikasiga qaytib, jonajon Vatanimda egallagan bilimlarim, töplagan tajribam va ofitserlik şarafim bilan xizmat qilişni maqsad qilganman. Men uçun eng muhimi bu muqaddas bilim maskanini nafaqat puxta bilim va katta hayotiy tajriba, balki çegara bilmas, mustahkam döstlik riştalari bilan tark etişdir. Özbekistonda tahsil oliş menga yana bir buyuk haqiqatni anglatdi: mamlakatlarimiz, çegaralarimiz ayri bölişi mumkin, ammo Vatanga sadoqat, tinçlikni asraş va öz burçini şaraf bilan bajariş kabi oliy maqsadlar bizni hamişa birlaştiradi!



“Özbekiston armiyasining salohiyati va zamonaviy harbiy ta’lim meni bee’tibor qoldirmadi”

2-bosqiç kursanti Zidan NURALIZODA

– Mening ismim Zidan. Ha, öşa maşhur futbolçiga havas bilan qöyilgan ism. U çempion bölgan kuni men tuğilgan ekanman. Bobom esa futbol işqibozi edi. ismim tarixi şunaqa *(kuladi)*. Tojikistonning Söğd viloyati Panjikent şahridanman. Harbiy sohaga bölgan mehrim va qiziqişim tasodifiy emas. Dadam uzoq yillar davomida içki işlar sohasida xizmat qilgan. Uning matonatga yöğrilgan hayoti, burçga sadoqati mening ham bolaligimdan şu sohaga intilişimda asosiy turtki bölgan. Avvaliga yurtimizdagi harbiy akademik litseyda tahsil oldim. Öşa paytlarda hayotimni tubdan özgartirib yuborgan voqea yuz berdi. Özbekistonlik harbiylarning Tojikistonga, litseyimizga rasmiy taşrifi va harbiy universitet haqidagi sözlarini tinglab, könglimda bir kuni albatta Özbekistonda harbiy ta’lim oliş orzusi tuğilgan edi. Bugun esa mana şu orzu haqiqatga aylanganidan çeksiz baxtiyorman. Bu yerdagi öquv jarayonlarimiz nihoyatda puxta, zamonaviy. Darslarda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy könikmalarga ham katta e’tibor qaratiladi, kunimizning har bir soati mazmunli ötadi. Darsdan böş vaqtlarimda esa vaqtimni bekor ötkazmaslikka harakat qilaman: til örganişga alohida vaqt ajrataman, yangi tillarni özlaştiriş dunyoqaraşimni kengaytirib, döstlarim bilan erkin muloqot qilişimga yordam beradi. Bundan taşqari, özbek tilidagi adabiyotlarni mutolaa qiliş asosiy odatlarimdan biriga aylangan. Özbekistonning boy tarixi, qadimiy şaharlari bilan tanişdik. Yaqinda köhna va boqiy Samarqand şahrida böldim. Registon maydoni, Şohi Zinda va boşqa tarixiy obidalarning uluğvorligi köz oldimda buyuk ötmişni gavdalantirdi. Özbek tilidagi tarixiy kitoblarni mutolaa qilar ekanman, ötmişdagi buyuk sarkardalarimiz – sohibqiron Amir Temur va Jaloliddin Manguberdining hayot yöli, harbiy mahoratiga tan berdim. Ularning taktikasi, mardligi har bir harbiy xizmatçi uçun çinakam maktabdir. Buyuk ajdodlar izidan borayotganimni his qiliş yuragimga çeksiz ğurur bağişlaydi.

Ma’lumki, bugun Tojikistonning harbiy böliş istagidagi yoşlari dunyoning öndan ortiq nufuzli mamlakatida ta’lim olişlari mumkin. Ammo men heç ikkilanmasdan Özbekistonni tanladim. Bugungi kunda Özbekiston mintaqadagi eng tez rivojlanib borayotgan, zamonaviy harbiy texnologiyalar va ilğor mudofaa yutuqlariga erişgan qudratli davlatdir. Ayniqsa, mamlakat armiyasining salohiyati, harbiy ta’lim dargohlarida yaratilgan şaroitlar, yangi avlod qurol-yaroğlari bilan işlaş könikmalari va ilğor harbiy pedagogika jahon standartlariga töla javob beradi. Ölingan bilimlar har qanday zamonaviy ofitser uçun mustahkam va işonçli poydevor böla oladi. Bu yerdagi iliq munosabatlarni söz bilan ta’riflaş qiyin. Özbekistonga kelganimning ilk kunidan boşlab özimni begona his qilmadim. Kursantlar orasidagi birodarlik, özaro hurmat va bir-birini qöllab-quvvatlaş ruhi tahsinga loyiq. Bunday döstona va tinç muhitda öqiyotganimdan mamnunman, çunki uşbu dargoh menga nafaqat kasb, balki bir umrlik qadrdon döstlarni ham berdi.

Harbiy ta’lim sohasida amalga oşirilayotgan bu kabi keng kölamli va şiddatli islohotlar zamirida yurtimizning mudofaa salohiyatini yanada yuksaltiriş, milliy armiyamiz saflarini bilimli, zamonaviy fikrlaydigan va yuqori malakali kadrlar bilan boyitiş maqsadi mujassam. Qardoş davlatlardan kelib tahsil olayotgan xorijlik kursantlarning milliy armiyamizning qudrati va yaratilgan şaroitlar haqidagi yuqori va samimiy e’tiroflari yurtimizda harbiy sohada olib borilayotgan siyosatning naqadar töğri va samarali ekanini yaqqol körsatadi. Bunday döstona hamkorlik va özaro işonç esa kelajakda mintaqamiz tinçligi va barqarorligining mustahkam qalqoni bölib xizmat qiladi.



Şohista ABDURAHMONOVA suhbatlaşdi.

JASORAT TUĞINING SARDORI

Jasorat şunçaki söz emas, uning zamirida ulkan mas'uliyat va majburiyat mujassam. Yurtni asraşga qodirlik, sadoqat va matonat, uluğ işlarga safarbarlik, bir söz bilan aytganda, fidoyilik. Maqolamiz qahramoni Vatan himoyasiga umrini baxşida etgan, ayni fursatda yoşlar qalbiga jasorat tuyğusini jo etib kelayotgan iste'fodagi polkovnik Bahrom Jumaniyazov.





BÖLADIGAN BOLA BOŞIDAN YUZAGA ÇIQADI

Urganç şahridagi nurli xonadonlardan biri. Xonadonning bek va bekasi Satimbay aka va Nazira aya tajribali şifokor sifatida yurtga tanilgan. Oilada voyaga yetgan yetti farzand ayni damda yurt xizmatiga yelka tutgan el nazaridagi insonlar. Kuz quyoşida rohatlanib ötirgan xonadon bekasi Nazira aya 85 yoşni qarşi olganiga qaramay, tetik va ğayratli. Onaning xayoli farzandlari soğinçi bilan band. Odatda, onalar dilbandlarini soğinganda bolalik çoğlari xayolini band etadi.

Ota-ona barça farzandini birdek köradi, birdek mehr va tarbiya beradi. Ammo öğil-qizlar turli fe'l-atvorda voyaga yetadi. Qaysi biridir şöx va intiluvçan, qaysi biri vazmin va bilimdon, yana biri yaqinlari va ota-onaga mehribon. Nazira ayaning köz oldida ikkinçi öğli Bahromjon gavdalandi. Oilada dastlab beş öğil tuğilgani uçun Bahromjon onasining öng qöli, mehriboni edi. Ovqat qiliş, uy tozalaş kabi xonadon yumuşlarida yaqindan yordam berardi. Maktabda ham hamişa a'loçilar safida bölgan. Ota-onasi uning şifokor bölişini juda istardi. Biroq ğayratli va bilimdon yigitça umumta'lim maktabida rus tilidan saboq bergan ustozi Şarifa Atayeva va çaqiruvga qadar boşlanğiç tayyorgarlik fani öqituvçisi Maşarib aka Kuryazov sabab dilidagi orzularini yuzaga çiqardi: harbiy soha vakili bölişga qaror qildi. Bu borada ustozlari yaqindan yordam berdi, ota-onasiga tuşuntirdi.

Vaqt ötib, Urganç şahridagi Al-Xorazmiy nomidagi 13-umumta'lim maktabini imtiyozli, ya'ni oltin medal bilan bitirgan Bahrom Jumaniyazov maqsadi tomon dadil intildi. 1982–1986-yillar davomida Toşkent oliy harbiy tankçilar qömondonlik bilim yurtida tahsil oldi. Şunday qilib, yoş ofitser zahmatli va şarafli yölga qadam bosdi.

VATAN HIMOYASIDAGI UNUTILMAS YILLAR

Vatan tinçligini asraşga bel boğlagan harbiy xizmatçilarning fidoyiligi nimada ekanini bilasizmi?! Ular umrining eng navqiron, zabardast davrini yurt tinçligi va hurligini asraşga baxşida etadi. Ularni ontiga sodiq fidoyi zotlar, desak, arziydi. Ular Vatan buyurgan joyda, yurtimizning turli hududlarida xizmatda böladi. Oilasi bilan turli şaroitlarda istiqomat qiladi. Bahrom aka ham yillar davomida yurtimizning deyarli barça göşalarida xizmatda böldi, ilkidagi burçni sadoqat ila ado etdi.

1986–1991-yillar oraliğida sobiq Sovet Ittifoqi armiyasi safida özga ölkalarda xizmat qilgan qahramonimiz mamlakatimiz mustaqillikka erişganidan söng ona yurtga qaytdi. Milliy armiyamiz safini mustahkamlaş va yetuk kadrlar bilan ta'minlaşga katta uluş qöşdi. Dastlab Xorazm viloyatining Yangi ariq tumani mudofaa işlari bölimi boşliği va Urganç şahri mudofaa işlari bölimi boşliği vazifalarida faoliyat yuritdi. Bu borada katta tajribaga ega bölgan ğayratli ofitser xizmat faoliyatini Jizzax viloyati, Namangan viloyati hamda Toşkent şahri mudofaa işlari boşqarmasi boşliği lavozimlarida davom ettirdi. Şimoli-ğarbiy harbiy okrug serjantlar tayyorlaş maktabi boşliği vazifasida harbiy kadrlar malakasini oşiriş, jangovar tayyorgarligini mustahkamlaş yölida fidoyilik körsatdi. Bir söz bilan aytganda, Qurolli Kuçlarimiz tarkibini mustahkamlaş yölida bor bilim va mahoratini safarbar etdi. Sinovli yillar davomida kiçik leytenantdan polkovnik darajasigaça erişdi.

"ERIŞGAN YUTUQLARIMDA USTOZLAR HISSASI KATTA"

Qaysi bir davr, qaysi bir sohada bölmasin, ustozlar uluğ zotlar sanaladi. Bahrom aka ham suhbat davomida ustozlariga töxtalib ötdi:

– Birinçi ustoz oilada ota-ona bölsa, bolalar boğçasidagi murabbiyalar, maktabdagi öqituvçilar, harbiy bilim yurtidagi va xizmatdagi harbiy ustozlarning har biri hayotimda salmoqli örin tutgan. Bir söz bilan aytganda, erişgan barça yutuqlarimda ustozlarning örni bor.

– Bahrom Satimbayeviç, harbiy sohadagi ustozlaringiz haqida suhbatlaşsak.

– Harbiy bilim yurtida ofitserlar G. Graf, V. Vasilevskiy, E. Snedkov kabi qattiqqöl va talabçan ustozlardan harbiy bilimni çuqur egallaşga harakat qilganman. Mudofaa işlari bölimi va boşqarmalaridagi faoliyatim davomida esa polkovniklar – Abdupattox Turapov, Şavkat Qambarov, Abdurahim Mamajonov, Maşarip Saidov, Pölat Radjabov, Nabijon Matisakov, Zohidjon Ahmedxojayev, Bahodir Rahimov, podpolkovnik Bahodir Ahrorov kabi tajribali ustozlar uşbu tizimda muvaffaqiyatga erişişimga sababçi böldi. Qaysi bir okrugda xizmat qilmay, şu tizimni yuqori bosqiçga olib çiqişimda maslahatçi, töğri yöl körsatuvçi bölib keldi. Bugun bu ustozlarning köplari oramizda yöq, ammo ularning har bir ögiti, ğamxörligi qalbimda muhrlanib qolgan.

– Ayni damdagi faoliyatingizga töxtalsangiz.

– Iste'foga çiqqanimdan keyin Yunusobod tumani faxriylar kengaşi raisi, Yunusobod tumanidagi 271-umumta'lim maktabida çaqiruvga qadar boşlanğiç tayyorgarlik fani rahbari vazifasida faoliyat yuritdim. 2019-yildan hozirga qadar Yunusobod tumanidagi 58-umumta'lim maktabiga rahbarlik qilib kelyapman. Maktabimiz Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil noyabr oyidagi qarori asosida 2025/2026-öquv yilidan Milliy gvardiyaga iqtisoslaştirilgan "Jasorat" maktabi sifatida e'tirof topdi. Bu biz uçun katta şaraf albatta. Oldimizda turgan asosiy maqsad – yoş avlodning vatanparvarlik ruhida kamol topişida, jasoratga qodir insonlar safida qad rostlaşiga zamin yaratiş.

Iste'fodagi polkovnik Bahrom Jumaniyazov rahbarlik qilib kelayotgan 58-"Jasorat" maktabi faoliyati bilan qiziqdim. Bilim maskanidagi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda olib borilayotgan darslar, maşğulotlar, öquvçilar erişgan yutuqlar haqida uzoq söz yuritiş mumkin. Bir söz bilan aytganda, "Jasorat"çilar faoliyati alohida maqolaga mavzu böladi.

"OILAM – MENING BAXTIM"

Inson hayotida tuğilibösgan oilasi, ota-onasining katta örni bor. Bahrom akadan şu haqda eşitişni istadik. Zero mustaqilligimizning ilk yillarida Vatan tinçligi, hurligimiz barqarorligini asraşga bel boğlagan olovqalb öğlonni el koriga kamarbasta etgan fidoyi insonlar hurmat va ehtiromga muşarrafdir.

– Ota-onam şifokor sifatida uzoq yillar el xizmatida bölgan. Oiladagi beş öğil va ikki qizni mehr bilan ulğaytirdi. Oliy ma'lumotli bölişimiz, özimiz istagan sohada faoliyat yuritişimizga zamin yaratdi. Ular sabab barçamiz nufuzli sohalarda yurt xizmatidamiz. Dadam 90 yoşda olamdan ötdi. Onam 85 yoşda ham tinib-tinçimaydi, öğil-qizlar, nabiralar ardoğida ularning öy-xayoli bilan yaşaydi. Duogöy onamizning borligi barçamizning baxtimiz.

– Bahrom aka, harbiy xizmatçining ilkidagi zahmatli burçni ado etişida uning oilasi katta örin tutadi. Tunmi, tongmi, xizmatdan horib qaytganida rafiqasi va farzandlari toğdek tayanç böladi. Oilangiz bilan taniştirsangiz.

– Töğri aytdingiz, xizmat yuki zalvorli. Unga yelka tutadigan, albatta, harbiy xizmatçining oilasi böladi. Uzoq yillik faoliyatim davomida turmuş örtoğim Zulfiyaxon bilan nurli kunlar bilan birga sinovli onlarni ham kördik. Farzandlarimiz bilan 28 ta joyga köçib yaşaganmiz. Ularning maktabi, kolleji neça bor özgargan. Hozirda öğlim Farrux va qizim Şohista nufuzli kasb egalari. Ikkisining ham öz hayoti – oilasi bor. Beş nabiraning bobosiman. Bundan ortiq baxt bölmasa kerak.

Darhaqiqat, maqolamiz qahramoni baxtli inson. Uning duogöy volidasi, mehribon yaqinlari, sevimli kasbi bor. Şuningdek, Bahrom akaning qirqdan ziyod ofitser şogirdi, yuzlab faxriy safdoşlari bor. U suhbat davomida ikki dösti – San'at Egamov hamda iste'fodagi podpolkovnik Şuhrat Ahrarov haqida alohida töxtalib ötdi. Ularning nomi zikr etilişini istadi.

Albatta, bir maqola orqali zaxmatli xizmati uluğ e'tiroflar – bir qator medal va kökrak nişonlariga sazovor bölgan iste'fodagi polkovnik Bahrom Jumaniyazov kabi fidoyi insonlar faoliyatiga teran nazar taşlaş muşkul. Zero umrining qirq tört yilini el-yurt xizmatiga baxşida etib kelayotgan bunday zahmatkaş faxriylar yurtimiz faxridir.

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

Bilakda kuç, yurakda Vatan,
ŞOHSUPADA ÖZBEKISTON!



Vatan şa’nini himoya qiliş – har bir mard öğlon uçun yuksak şaraf, uning nomini uluğlaş, bayroğini jahon uzra baland kötariş esa qalbdagi çeksiz ğurur va sadoqatni namoyon etadigan buyuk mas’uliyatdir. Bu mas’uliyatning zalvorini sarhadlarda Vatan tinçligini köz qoraçiğidek asrayotgan harbiylarimiz ham ikki karra his qiladi. Zero haqiqiy vatanparvarlik faqat sözda emas, balki har bir amal, har bir jasorat va erişilgan har bir yutuqda öz ifodasini topadi.

Ana şu yuksak tuyğularni qalbiga jo etgan, harbiy xizmatda toblangan irodasi va sportdagi mahorati bilan el-yurt işonçini oqlayotgan çegaraçi harbiylarimizning navbatdagi yutuği barçamizga ğurur bağişladi. Ular Hindiston poytaxti Nyu-Dehli şahrida toş kötariş sporti böyiça ötkazilgan jahon çempionatida iştirok etdi va umumjamoa hisobida faxrli uçinçi örinni egalladi.

Dunyoning 12 mamlakatidan 300 nafardan ziyod sara sportçi iştirok etgan nufuzli musobaqada özbekistonlik polvonlar kuç, çidam va mahorat bobida munosib raqobat körsatdi. Ayniqsa, Davlat xavfsizlik xizmati Çegara qöşinlari harbiy xizmatçilarining natijalari alohida e’tiborga molik böldi. Zotan, çempionatda jami qölga kiritilgan 31 ta oltin medalning 22 tasi aynan mard çegaraçilarimiz hissasiga töğri keldi. Bu raqamlar zamirida esa tinimsiz mehnat, temir intizom, maşaqqatli tayyorgarlik va ğalabaga bölgan mustahkam işonç mujassam.

Şunday qilib, Vatan sarhadlarini himoya qilişdek şarafli vazifani zimmasiga olgan harbiylarimiz xalqaro sport arenasida ham yurtimiz dovruğini taratişga muvaffaq böldi. Ular uçun bu musobaqa şunçaki kuç sinovi emas, balki milliy ğurur, harbiy şa’n va yurtga sadoqatning öziga xos namoyişiga aylandi.

MUNOSIB BÖLIŞ ŞARAFI

Jahon çempionati bahslarida Özbekiston şarafini himoya qilgan töqqiz nafar çegaraçi harbiy umumiy hisobda 22 ta oltin, 3 ta kumuş va 1 ta bronza medalni qölga kiritdi. Har bir medal katta mehnatning samarasi, har bir ğalaba iroda va matonatning natijasidir. Toş kötarişdek ulkan jismoniy kuç, sabr va ruhiy barqarorlik talab etadigan sport turida bunday natijaga erişiş sportçilardan nafaqat baquvvat bilak, balki mustahkam xarakter va yuksak maqsad sari qat’iy intilişni ham talab qiladi.

– Bahslar juda keskin va oğir keçdi. Arenada dunyoning eng sara polvonlari jam bölgan edi. Biz gilamga ortimizda turgan millionlab yurtdoşlarimiz, bizga işonib, duo qilib turgan xalqimizning işonçini oqlaş uçun çiqdik, – deydi mayor Hamidulla Toşnazarov. – Har safar oğir toşni kötarganimda, yuragim Vatan deya urdi. Çegaradagi qat’iy intizom va maşaqqatli xizmat bizni temirdek çiniqtirgan edi. Mana şu toblanganlik sportda ham qöl keldi. Şuning uçun ham ğoliblar safidan örin oldik. Katta maydonda Özbekiston madhiyasi yangraganda sevinç yoşlarini tiyolmadik. Bu sado göyo musobaqagaça çekkan har bir maşaqqatimizning, har bir maşğulotimizning va öz ustimizda olib borilgan tinimsiz mehnatimizning munosib mukofoti sifatida qalbimizda yangradi. Işonasizmi, şu lahzalarda birzumda çarçoqlarimiz unutildi. Ğurur va iftixor tuyğusidan köksimiz toğ qadar yuksaldi...

Bunday yuqori natijalar, avvalo, yurtimizda harbiylarga körsatilayotgan yuksak e’tibor va ğamxörlikning mevasi sanaladi. Bizga şunday keng imkoniyatlar yaratib berayotgan Prezidentimiz, Qurolli Kuçlar Oliy Boş Qömondoniga barça safdoşlarim nomidan çeksiz minnatdorlik bildiraman. Bu işonç bizga katta mas’uliyat yuklaydi. Bundan keyin ham yurtimiz sarhadlarini sergak qöriqlaşda va xalqaro maydonlarda bayroğimizni baland kötarişda bor kuçimizni ayamaymiz.

Darhaqiqat, har qanday yutuqning ortida mehnatni qadrlaydigan muhit, sportçining salohiyatini yuzaga çiqarişga xizmat qiladigan şaroit va oldinga intilişga undaydigan işonç turadi. Harbiy xizmatçilarning ham xizmatda, ham sportda yuqori natijalarga erişayotgani ularning imkoniyatlari neçoğli keng ekanini körsatadi. Eng muhimi, bu zafarlar yoş avlod qalbida Vatanga muhabbat, mardlik va yuksak maqsadlarga intiliş tuyğularini mustahkamlaşga xizmat qiladi.

ĞALABA TANTANASI

Nyu-Dehlida Özbekiston dovruğini dunyoga taratgan ğoliblar yurtimizga qaytib kelgaç, Islom Karimov nomidagi Toşkent xalqaro aeroportida tantanali ravişda kutib olindi. Harbiy orkestrning jöşqin sadolari, samimiy qutlovlar bilan boşlangan marosim muzaffar öğlonlar uçun esda qolarli böldi. Tantanali lahzalarda har bir medalning qadri, har bir zafarning ma’nosi yanada teranroq sezildi.

Aslida jahon çempionatidagi qölga kiritilgan bu ğalaba ortda qolgan mehnatning munosib e’tirofi, ayni paytda, oldinda turgan yanada yuksak marralarga çorlov hamdir. Ya’ni bugungi yutuq ertangi mas’uliyatni ham belgilaydi. Çunki haqiqiy ğoliblik faqat şohsupaga kötariliş bilan emas, erişilgan natijani munosib davom ettiriş, har bir sinovga tayyor turiş va öz oldiga yanada uluğ maqsadlarni qöya biliş bilan qadrlidir. Muhimi, sarhadlarda Vatan tinçligini köz qoraçiğidek asrab, sport maydonlarida uning şa’nini munosib himoya qilayotgan mard öğlonlarimiz bu mas’uliyatini teran anglaydi. Ular uçun har bir ğalaba xalq işonçini oqlaş, ona yurtga bölgan sadoqatini amalda namoyon etiş, Vatan bayroğini yanada yuksaklarga kötariş demakdir. Şunday ekan, bugungi zafarni faqat qölga kiritilgan medallar yoki erişilgan natijalar bilan baholaş töğri bölmaydi. Uning zamirida Vatanga sadoqat, harbiy burçga fidoyilik, maşaqqatlar oldida ortga çekinmaslik va yurt işonçini oqlaşdek yuksak fazilatlar mujassam. Şuning uçun ham çegaraçi harbiylarimizning sport maydonidagi muvaffaqiyati sarhadlarda toblangan iroda va matonatning xalqaro arenalardagi ifodasi böldi.

Asosiysi, bunday ğalabalar yoş avlod qalbida Vatanga muhabbat, mardlik va fidoyilik tuyğularini mustahkamlaydi, ularni öz oldiga uluğ maqsadlar qöyib yaşaşga undaydi. Zero yurt ravnaqiga munosib hissa qöşiş, uning şa’nini ardoqlaş va işonçini oqlaş har bir avlodning muqaddas burçidir.

Bugun jahon arenalarida Özbekiston bayroğini baland kötargan çegaraçi polvonlarimiz ertaga ham sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlaş, xalqimiz osoyiştaligini asraş yölida öz xizmatlarini davom ettiradi. Ularning har ikki maydondagi faoliyati bir haqiqatni anglatadi: Vatanga sadoqat çegarada ham, jahon arenalarida ham birdek uluğ va muqaddasdir.

Kapitan Erkin YODGOROV
DXX Çegara qöşinlari



Ona tiliga muhabbat – VATANPARVARLIK MEZONI

Vatan tuyğusi insonda avvalo ona tili orqali uyğonadi. Beşikdagi alla, buvijonimiz aytgan ertak, otaning pand-nasihati – bularning barçasi bizga ona tilida yetib keladi. Şu bois ona tiliga muhabbat Vatanga muhabbatning eng tabiiy va eng samimiy körinişidir.

“HIFZI LISON” – BIR ASR OLDINGI OGOHLIK

Abdulla Avloniy **“Turkiy guliston yoxud axloq”** asarida tilni asraşni alohida fazilat sifatida talqin etib, **“hifzi lison”** deb har bir millatning öz ona tili va adabiyotini saqlaşini aytadi. Ma’rifatparvar bobomiz şunday deydi: **“Har bir millatning dunyoda borliğini körsatadurğon oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yöqotmak millatning ruhini yöqotmakdur”**. Oradan bir asrdan ortiq vaqt ötgan bölsa-da, bu sözlar öz dolzarbligini yöqotgani yöq.

Ona tiliga muhabbat şunçaki öz tilida sözlaşiş emas. U millatning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi va milliy özligiga sadoqatning ifodasidir. Vatan ham faqat geografik makon emas, u xalqning tili, tarixi, urf-odat va qadriyatlari bilan yaxlitlaşgan muqaddas tuşunça. Şu ma’noda ona tilini asraş – milliy özlikni asraş, uni rivojlantiriş – millat kelajagiga xizmat qiliş, nufuzini yuksaltiriş esa Vatan şarafini uluğlaş demakdir.

Nazarimda, öz tilini qadrlagan inson xalqining ötmişiga befarq bölmaydi, buguni uçun mas’uliyat sezadi va kelajagi uçun xizmat qilişga intiladi. Haqiqiy vatanparvarlik balandparvoz sözlarda emas, ona tilini hurmat qiliş, uning boyligini kelajak avlodga yetkaziş va jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlaşga qaratilgan amaliy işda körinadi. Bunda boşqa tillarni örganiş ona tiliga muhabbatga zid emas, aksinça, milliy madaniyatimizni dunyoga tanitiş imkoniyatini kengaytiradi.

TIL – AVLODLAR ORASIDAGI MA’NAVIY KÖPRIK

Ma’lumki, inson dunyoga keliboq ona tilida alla eşitadi**. “Vatan”, “oila”**, **“or-nomus”**, **“mehr”**, **“oqibat”**, **“andişa”**, **“hayo”**, **“insof”** kabi tuşunçalarning mazmuni uning ongiga ona tili vositasida singadi. Maqol va matallar, ertak va dostonlar orqali xalqning asrlik tajribasi şaxs tafakkuriga köçadi. Şu sababli ona tilidan uziliş **madaniy kodlar**ni anglaş imkoniyatini toraytirib qöyişi mumkin.

Til qançalik çuqur özlaştirilsa, inson ajdodlar merosidan şunçalik bevosita bahramand böladi. **Navoiy va Bobur**, **Furqat** va **Muqimiy**, **Avloniy**, **Çölpon** va **Qodiriy** asarlarini teran anglaş uçun til sezgisi kerak. Şu ma’noda til avlodlar örtasidagi ma’naviy muloqot köprigidir. Milliy özlikni anglaş esa boşqa madaniyatlarni inkor etiş emas, öz tayançiga ega holda ular bilan teng va hurmatli muloqot qila olişdir.

Tilga sadoqatning eng yorqin namunasini hazrat Alişer Navoiy körsatgan. Uluğ şoir **“Muhokamat ul-luğatayn”** asarida turkiy tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini dalillar bilan isbotlab, öz zamondoşlarini ona tilida ijod qilişga da’vat etgan. Navoiyning bu jasorati tilni asraş faqat himoya emas, balki undagi imkoniyatlarni yuksak ijod bilan namoyon etiş ekanini körsatadi. Bugungi avlod oldida ham aynan şu vazifa turibdi: özbek tilida baland saviyali ilm, adabiyot va zamonaviy kontent yaratiş.

HUQUQIY KAFOLAT AMALIYOT BILAN MUSTAHKAMLANSA

Konstitutsiyamizning 4-moddasida **“Özbekiston Respublikasining davlat tili özbek tilidir”**, deb belgilangan. Bu norma davlat tilining hokimiyat, boşqaruv va rasmiy munosabatlardagi maqomini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlaydi va uni davlat ramzlari qatori milliy davlatçilik bilan çambarças boğliq institut sifatida namoyon etadi. Ayni paytda Asosiy Qomusimiz mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barça millat va elatlarning tillari, urf-odat va an’analari hurmat qilinişini, ularning rivojlanişi uçun şaroit yaratilişini kafolatlaydi. Demak, davlat tilining ustuvor maqomi boşqa tillarga nisbatan salbiy munosabatni anglatmaydi.

“Davlat tili haqida”gi qonun rasmiy doiralarda özbek adabiy tilining amaldagi qoida va normalariga rioya etilişini talab qiladi. Tilning nufuzi faqat qöllaniş kölami bilan emas, sifati bilan ham ölçanadi. Rasmiy hujjatlar, darsliklar, ommaviy axborot vositalari va taşqi reklamada xato muntazam uçrasa, tilning me’yoriy muhiti zaiflaşadi. Qonun özbek tilini ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalar bilan boyitişni ham nazarda tutadi. Bunda yangi atamaning ilmiy asoslangan, tuşunarli va til tabiatiga mos bölişi muhim.

Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-son farmonida davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oşiriş, uning sofligini saqlaş, aholining nutq madaniyatini yuksaltiriş, axborot-kommunikatsiya Texnologiyalari va internetdagi örnini kengaytiriş, şuningdek davlat tili töğrisidagi qonunçilikka rioya etilişi ustidan jamoatçilik nazoratining samarali şakllarini joriy etiş vazifalari belgilangan. Biroq huquqiy norma

tilning yaşovçanligini öz-özidan kafolatlamaydi. Til avvalo inson nutqida, oilada, maktabda, kitobda va kundalik munosabatlarda yaşaydi.

OILA, MAKTAB VA KÖÇA

Bolaning birinçi til muhiti – oila. U talaffuz, söz boyligi va muomala odobini ota-ona, bobo-buvisidan örganadi. Bolaga kitob olib berişning özi yetarli emas: oilada birga kitob öqiş, mazmunini muhokama qiliş, maqol va hikmatli sözlarni izohlaş muhitini yaratiş kerak. Kiçkintoyga multfilm va öyinlarni faqat boşqa tilda taqdim etiş uning özbekça luğat zaxirasini kamaytiradi. Şevada gaplaşişni qoralaşning hojati yöq – şevalar ham til boyligimizning bir qismi. Faqat bola şeva bilan birga adabiy tilni ham puxta egallaşi lozim.

Maktab oilada şakllangan könikmalarni tizimga soladi. Öqituvçining nutqi öquvçi uçun bevosita namuna. Şu bois nafaqat ona tili öqituvçisi, balki tarixçi, fizik, matematik ham adabiy tildan savodli foydalanişi kerak. Darsliklarning ilmiy mazmuni bilan birga tili ham ekspertizadan ötişi zarur. Inşo, bahs-munozara, nutq musobaqalari va ijodiy yozuv maşğulotlari bolalarning faol luğatini boyitadi, oliy ta'limda esa akademik yozuv va sohaviy terminologiyaga e'tiborni kuçaytiriş lozim.

Köçadagi lavha, e'lon, narxnoma va reklama ham davlat tili madaniyatining közgusidir. Qonun bunday matnlarni davlat tilida rasmiylaştirişni, zarur bölsa, boşqa tildagi tarjimasi bilan berişni nazarda tutadi. Imlo xatolari, tuşunarsiz tarjimalar yoki davlat tilidagi matnning umuman yöqligi faqat estetik nuqson emas – ular tilga bölgan munosabatni körsatadi. Bu örinda jazolaşdan köra oldini oliş samaraliroq: tadbirkor va dizaynerlarga tayyor luğat, uslubiy tavsiya va elektron tekşiruv vositalarini taqdim etiş köplab xatolarning oldini oladi.

RAQAMLI DAVR SINOVI

Ilgari tilning asosiy maydoni oila, maktab, kitob va matbuot edi. Bugun internet, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt ham til muhitiga aylandi. Agar til raqamli makonda yetarli qöllanmasa, yoşlar intellektual faoliyatning katta qismini boşqa tillarda olib bora boşlaydi. Şu bois özbekça elektron luğatlar, imlo tekşiruvçilari, nutqni matnga aylantiruvçi tizimlar, maşinali tarjima va milliy til korpuslarini rivojlantiriş tilni asraşning zamonaviy şaklidir. Yoşlar özbek tilida sifatli kontent, ilmiy va texnologik materialni qançalik köp topsa, tilning funksional mavqeyi şunçalik mustahkamlanadi.

OÇIQ TAN OLIŞIMIZ KERAK BÖLGAN MUAMMOLAR

Şu bilan birga, yeçimini kutayotgan oğriqli masalalar ham oz emas:

birinçidan, yoşlar orasida ona tiliga nisbatan ğurur va mas'uliyat tuyğusining susayişi, xorijiy tilni bilişni ona tilidan ustun qöyiş holatlari uçramoqda;

ikkinçidan, ayrim taşkilotlarda iş yuritiş, xizmat yozişmalari va şartnomalarda davlat tilining imkoniyatlaridan töliq foydalanilmayapti;

uçinçidan, ayniqsa şaharlarda ayrim oilalarda ona tilida muloqot an'anasi zaiflaşib, bolalarning özbekça luğat boyligi va milliy adabiyotga qiziqişi yetarli rivojlanmayapti;

törtinçidan, özbekça muqobili bor sözlar örniga çet tildagi iboralarni örinsiz işlatiş, tillarni qoriştirib gapiriş odatga aylanib bormoqda;

beşinçidan, ayrim öquvçi va talabalar mustaqil fikrini adabiy me'yorda, mantiqiy va ravon ifodalaşga qiynalmoqda;

oltinçidan, ba'zi ilmiy yönalişlarda milliy terminologiya hali tizimlaşmagan, özbek tilidagi zamonaviy darslik va ilmiy manbalar yetişmaydi. Nazarimda, tilimizning imkoniyatlari yetarli, ularni yuzaga çiqariş kerak xolos;

yettinçidan, ijtimoiy tarmoqlardagi imlo xatolari, sözlarni asossiz qisqartiriş va aralaş tildagi kontent yozma nutq madaniyatini zaiflaştirmoqda. Bu holat faqat yoşlarda emas, kattalarda ham uçraşi yanada açinarli;

sakkizinçidan, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar uçun özbek tilidagi sifatli til resurslari hali yetarli emas;

töqqizinçidan, lotin va kirill yozuvlarining parallel qöllanilişi yagona yozuv madaniyati va imlo birxilligining qaror topişini qiyinlaştirmoqda;

öninçidan, ona tiliga hurmat köpinça bayram, tadbir va şiorlar bilan çeklanib, oila, ta'lim, mehnat va tadbirkorlikda amaliy qadriyatga aylanmayapti. Millat işiga bunday rasmiyatçilik bilan qaraş oğriqli oqibatlarga olib kelişi mumkin.

ASKAR TILI – VATAN TILI

Vatanparvarlik tuyğusi eng yaqqol sinovdan ötadigan joy – harbiy xizmat. Qasamyod sözlari, buyruq va nizomlar, jangovar tayyorgarlik maşğulotlari davlat tilida yangraydi. Harbiy xizmatçi uçun tilning aniqligi hayotiy ahamiyatga ega. Buyruqdagi bir söz notöğri anglansa, xato qimmatga tuşişi mumkin. Şu bois harbiy atamalarning özbek tilida aniq, bir xil va tuşunarli bölişi faqat tilşunoslik masalasi emas, balki jangovar şaylik masalasidir.

Armiya turli viloyat va tumanlardan kelgan, turli şevada gaplaşadigan yigitlarni bir safga jamlaydi. Ular uçun adabiy til umumiy muloqot va hamjihatlik vositasiga aylanadi. Harbiy qismlardagi kitobxonlik, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, badiiy adabiyot va vatanparvarlik qöşiqlari askar qalbida Vatanga sadoqatni til orqali mustahkamlaydi. "Vatan", "burç", "şaraf", "sadoqat" sözlari ona tilida aytilganda qalbga boşqaça yetib boradi. Ona tilini puxta bilgan va uni hurmat qilgan askar Vatanini ham ongli ravişda himoya qiladi.

JAMOATÇILIK NAZORATI – JAZO EMAS, TARBIYA VOSITASI

Davlat tiliga rioya etiş faqat davlat organlarining içki vazifasi emas. "Jamoatçilik nazorati töğrisida"gi qonun fuqarolar va taşkilotlarga murojaat va sörov yuboriş, jamoatçilik muhokamasi, eşituvi, monitoringi va ekspertizasini ötkaziş imkonini beradi. Bu mexanizmlar til sohasida ham qöllanişi mumkin. Fuqaro davlat taşkiloti saytidagi matn sifati böyiça murojaat qiladi, mutaxassislar guruhi jamoat joylaridagi yozuvlarni örganib, asoslangan taklif beradi, tilşunoslar yangi terminologik hujjatlarni ekspertizadan ötkazadi.

Ammo jamoatçilik nazorati aybdor qidiriş yoki bosim ötkaziş vositasiga aylanmasligi kerak. Har qanday çet sözni "til buzilişi", har bir uslubiy farqni qonunbuzarlik deb baholaş ilmiy jihatdan asossiz. Rasmiy hujjatdagi imlo xatosi bilan şaxsiy suhbatdagi söz tanlovini bir tarozida ölçab bölmaydi. Muammo qayd etilganda töğri variant va uning asosi ham körsatilişi lozim. Davlat tilini himoya qiliş va mamlakatdagi tillar xilma-xilligini hurmat qiliş bir-birini inkor etmaydi, balki töldiradi.

Jamoatçilik nazorati natijalari işonçli bölişi uçun uning mezonlari oçiq va aniq bölişi kerak: qaysi obyektlar örganildi, qança material tahlil qilindi, qanday mezon asosida baholandi, xulosani kim çiqardi. Til tabiiy ravişda boşqa tillar bilan aloqaga kirişadi, yangi tuşunçalarni qabul qiladi, vaqt ötişi bilan ayrim şakllarini özgartiradi. Şuning uçun monitoringda qonun talablari, adabiy til normalari va tabiiy lingvistik özgarişlarni bir-biridan farqlaş lozim. Bunday yondaşuv jamoatçilik nazoratini hissiyotga emas, dalilga asoslangan işga aylantiradi.

Bu işga yoşlarni jalb etiş ayniqsa samarali. Maktab va oliygohlarda "Savodli muhit", "Til köngillilari", "Töğri yozamiz" kabi loyihalar orqali öquvçi va talabalar öz hududidagi lavha va e'lonlarni örganib, töğri variantlarni taklif qilişi mumkin. Bunda xatoga yöl qöygan odamni ijtimoiy tarmoqda tahqirlaş emas, xatosini madaniy tarzda tuşuntiriş muhim. Şunda jamoatçilik nazorati jazolovçi emas, tarbiyalovçi institutga aylanadi.

TILNI ASRAŞ KELAJAKNI BARPO ETIŞ DEMAK

Öylaşimça, özbek tili uçun eng katta xavf boşqa tillarning mavjudligi yoki ularni örganiş emas, balki ona tilimiz imkoniyatlarining ilm-fan, texnologiya, kasbiy faoliyat va kundalik hayotda töliq işga solinmasligidir. Tilni asraş – uni faqat himoya qiliş emas, u bilan fikrlaş, ilm yaratiş, ijod qiliş va kelajakni barpo etişdir. Buning uçun taqiqlardan köra sifatli ta'lim, zamonaviy til resurslari, ijtimoiy rağbat va şaxsiy namuna muhimroq.

Davlat huquqiy kafolat yaratadi, oila tilning birinçi namunasini beradi, maktab uni me'yorlaştiradi, universitet ilmiy darajaga kötaradi, adabiyot badiiy imkoniyatlarini oçadi, media jamiyatga yetkazadi, armiya esa uni Vatan himoyasi bilan boğlaydi. Şu bois ona tilini asraş bitta vazirlik yoki bir guruh mutaxassisning vazifasi emas – u har birimizning ma'naviy burçimiz. Har bir avlod tilni oldingi avloddan qabul qilib, keyingisiga boyitilgan holda topşirsa, bu Vatanga sadoqatning eng işonçli isboti böladi.



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Abduxoliq TAŞANOV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bölim boşliği,
falsafa fanlari doktori, professor

Özbek şoiralari va adibalari bayozi “Dorilamon kunlar keldi” kitobi taqdimoti bölib ötganiga köp bölmadi. Yodimga tuşganida hamon könglim yorişadi, javondagi körkli kitobni neça marta qölimga olib, silab-siypalab qöygandirman. Asli kitobsevarman. Ammo bu kitob butunlay boşqaça. U sönggi yuz yillikdagi özbek şoira va adibalari ijodidan jamlangan bir guldasta.

“DORILAMON kunlar keldi”



Öşa kuni taqdimotda Özbekiston Yozuvçilar uyuşmasi raisining örinbosari Minhojiddin Mirzo bu kitobga “Ayol qalbining suvrati”, deya baho berdi. Juda gözal e’tirof. U kungi hayajonlar, taassurotlar bir olam. Bizning maqsadimiz öquvçilarimizni bir qator insonlarning zahmatli mehnati mahsuli bölgan “Dorilamon kunlar keldi” kitobi bilan qutlaş va tanitişdir.

Kitob Özbekiston Yozuvçilar uyuşmasi homiyligida çop etilgan. Loyiha rahbari ardoqli şoirimiz Sirojiddin Sayyid, mas’ul muharrir Farida Afröz. Bu uç yillik mehnat samarasi ekanini yozsak, naşrga töplaş va tayyorlaşda şoira, adiba Nargiza Asadovaning ançagina ter tökkani ayon böladi.

Özbek şoiralari va adibalari bayozi “Dorilamon kunlar keldi” sözboşisini oydinlarimiz – adabiyotşunos, professor Adhambek Alimbekov, adabiyotşunoslar Ahmadjon Meliboyev, Qozoqboy Yöldoş, Özbekistonda xizmat körsatgan jurnalist, şoir Salim Aşur, Özbekiston xalq yozuvçisi Isajon Sulton yozgan.

Qozoqboy Yöldoş şunday yozibdi: *“Turk ayoli uruğning davom ettiruvçisi bölişidan taşqari, azal-azaldan jangçi ham edi. Turklarning köplab imperiyalar egasi bölişida erkaklarga ilhom bağişlab turişdan taşqari, qölida quroli bilan janglarda qatnaşgan momolarimizning ham katta uluşi bor. Dunyoga ega çiqib, uni boşqarişday yumuşda qatnaşgan turk ayollari yuksak tuyğular va baland didga ham ega bölgan albatta. Demak, ularda badiiy yaratuvçilik salohiyati ham yuksak bölgan. Bundan ming yillar oldin yaratilgan “Devonu luğati-t-turk”dagi yöqlovlarning muallifi ayol bölgani şaksiz. Lekin azaliy tortinçoqligi, bağrikengligi va fidoyiligi sabab ayol özining badiiy yaratuvçiligini namoyiş qilişga şoşilmagan”.*

Şoir şoir ekan-da!

Salim Aşur sözboşini ham durdek tizibdi. **Öqiymiz**: *“Ayol – dunyoning yarmi. Lekin yana yarmi bölmasa, köngil ham yarim bölib qoladi, tölmaydi. Dunyo butun, yaxlit bölmaydi.*

Dunyoning yarmi, şe’riyatning yarmidan köproği, gözallikning esa hammasi ayollarniki! Ayol – gözallikning aynan özi!

...Ayrim qiziqarli, ma’noli kitoblarda, dunyoni ayol özi xohlaganidek, erkak dunyo xohlaganidek köradi, deb bitilgan.

Ayol nigohi dunyoni suyab olib yuradi. Ayol dunyoni asraydi, qalblarni asraydi.

Şu ma’noda “Dorilamon kunlar keldi” antologiyasi tuzilganini qöllab-quvvatlayman. Qolaversa, bunday tajriba adabiyot tarixida avval ham bölgan va yaxşi baho olgan”.

Ahmadjon Meliboyev esa bunday yozibdi: *“Davlatimiz rahbarining xotin-qizlar uçun yaratib berayotgan imtiyozlari ularni milliy yuksaliş yölida hormay-tolmay mehnat qilişga, ijodkorlikka undamoqda. Iste’dodli ayollar qalamiga mansub roman, qissa, esse, hikoya kabi asarlar milliy adabiyotimizning gözal sahifalari, ma’naviy xazinasi bölib turibdi. Özbekiston ayolini uluğlagan yurt maqomiga qaytdi”.*

Taniqli adib Isajon Sulton kitobning “Özbek adibalari” bölimiga sözboşi yozib, özigagina xos nazokat bilan har bir ijodkorga töxtalibdi. Ular orasida kaminangiz ham bor bölib, ulkan adibning kiçikkina e’tiboridan boşim köklarga yetdi.

Öqiymiz: *“...uşbu töplam keyingi yuz yillikdagi közga köringan adibalarimiz ijodidan kiçik bir guldastadir.*

Bugungi zamonaviy dunyoning olatasir asarlaridan farq qilib, töplamga kiritilgan asarlarda insoniylik, pok tuyğular, mehr-muhabbat uluğlanadi. “Dunyoga inson bölib keldim, ona degan martabaga erişdim”, deb iqror böladi qahramonlarning biri.

Qahramon degan söz bejiz emas: zotan, har birimizning onamiz qahramonimiz, muşfiq ayolimiz – farzandlarimizning volidayi mukarramasi, qizaloqlarimiz esa ertangi kunda dunyoga keladigan çaqnoq öğil-qizlarimizning onalari albatta”.

Kitobning birinçi bölimi şoira Zulfiyaning ikki eng gözal şe’ri – “Bahor keldi seni söroqlab”, “Men ötgan umrga” bilan boşlangan. Bularni bir öquvçi sifatida takrorlab yuraman. Töplamga juda gözal tartib berilgan. Şe’rlar haqida gapirişdan tiyilaman. Ammo bir haqiqatni ham aytib ötişim kerak: ardoqli şoiramiz rahmatli Şarifa Salimovaning şe’ridan birgina misrasi “Qaddingni tik tut, ayol” yaralari silqib turgan qalbimga neça bor malham bölgan. Öşa lahzalarda sözni anglaş ham saodat, ne’mat ekaniga amin bölganman. Şoirlik ham hammaga berilmagan. Farida Afröz “Biz tanlanganlarmiz”, deganida yuz karra haqdir. Öqing, farzandlaringizga ham kiçik yoşidan söz latofatini anglatingki, dunyoni bor ranglari bilan his qilsin, ğamda ham, sevinçda ham!

“Dorilamon kunlar keldi” Özbekiston xalq şoiri Halima Xudoyberdiyevaning şu nomli şe’ridan olinganini zukko öquvçilarimiz allaqaçon fahmladilar, deb öylayman.

Onaginam!
Dorilamon kunlar kuldi, şafaqlari ol,
Qayon boqsang, şaylanişlar va sozlaşlar tor.
Olça gulin közlaringga surtasan behol:
“Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor”.

Qani edi, imkoni bölsa-yu, kitobda ijodlari jamlangan barça şoiralar şe’rlaridan parçalar bera olsak. Bu juda noyob töplam. Öqing, döstlarga ilining, köngildoşlaringizga tuhfa qiling.

Kitobning ikkinçi bölimi “Özbek adibalari” deb nomlangan. Birinçi hikoya muallifi Oydin *(Manzura Sobirova)*. Aziz öquvçi, siz şoira, adiba Oydinni unutganingiz yöq, şundaymi?! Bir vaqtlar millionlab nusxalarda çop etilgan “Özbekiston xotin-qizlari” *(“Saodat”)* jurnalining birinçi muharriri ham bölgan.

Undan keyin adiba Saida Zunnunova, keyin Rahbar Fayziboyeva, San’at Mahmudova, Şahodat Isaxonova, Ma’suma Ahmedova, Jamila Ergaşeva... jami öttiz bir adiba. Öttiz bir ifor. Öttiz bir qalb va ularning suvrati!

Şu sahifada avvallari bölgani kabi ayrim parçalarni öquvçilar e’tiboriga havola qilmoqçi böldim. Bu kitobdan parçalar keltiriş... Ba’zan bir sahifa bitta hikoya tarğibotiga bağişlangan. Şunçalik durdona bir hikoyaga öquvçilar e’tiborini tortgimiz kelgan-da. Hayajonlarimiz, taassurotlarimiz, saboqlarimizni öquvçilarga yuqtirişni istaganmiz. Gap “Dorilamon kunlar keldi” kitobiga kelganida, rosti, qanday yöl tutişni bilmay qoldik. Biri biridan qiziqarli, takrorlanmas tuyğular, muhabbat otli eski qöşiq, Ayol dardlari, öylovlari, özига xosliklar...

Turmuşning ming bir yumuşlaridan ortib, ijod qiliş va u bilan öquvçi qalbini zabt etiş oson emas. Ayol-qizlarimiz buni katta mehnat va mahorat bilan uddalab kelmoqda. Bu kitob ötgan şoira va adibalarimizni yana bir bor yodga soladi, boşqa asarlarini ham izlatadi, köpdan köp zamondoş ayol-qizlar ijodini tuhfa etişi bilan qimmatli.

“Dorilamon kunlar keldi” javoningizga körk beribgina qolmay, balki qalbingizni ham hassos tuyğularga oşno qiladi.

Huzurli mutolaalar tilagi bilan

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”

Kitob öqigan MILLAT



“Bilim baxt keltirur, ilm yöl körsatur, kitob esa bularning barini özida jamlagan xazinadir”.

Alişer Navoiy



“Ajdodlar izidan” intellektual tanlovi yoş harbiy xizmatçilar örtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltiriş, ajdodlar boy ilmiy-adabiy hamda harbiy merosini çuqur örganiş va keng tarğib etiş tezisi ostida 2021-yildan buyon ötkazib kelinayotgan bölsa-da, uning ma’naviy qamrovi çegara bilmas tarzda kengayib borayotgani ahamiyatli. Tanlovning 2026-yilgi respublika bosqiçida 30 ta savoldan iborat şartlar natijasiga köra, Mudofaa vazirligi jamoasining yuz foizlik körsatkiç bilan ğalaba qozongani jarayon kuzatuvçilarining diqqat markazida böldi.

Dilşod Safarov, Ğolibjon Azimjonov, Yigitali Ostonayev, Xurşid Abdurazzoqov, Farrux Sobirov, Hamidullo Hotamovdan iborat jamoa jahon, qardoş xalqlar va özbek adabiyotiga oid qirqta asardan tuzilgan 30 ta savolning barçasiga aniq javob qaytardi. Javoblarning 25 tasi belgilangan muddatdan ilgari hakamlar hay’atiga taqdim etilişi – hali bunaqasi qayd etilmagan bölsa kerak. Göyoki hakamlar hay’ati sun’iy intellekt bilan aqliy salohiyat, ma’naviy bilim borasida bellaşayotgandek edi. Çunki bunday hozirjavoblik, bunday mukammal bilim faqatgina adabiyotning nozik qirralarini mukammal biladigan professional mutaxassislargagina xos holatdan aslo qolişmasdi. Işonç bilan ayta olamanki, bunday hozirjavoblik va mukammal bilimga intellektual tanlovga tayyorgarlik jarayonida erişilmagan. Yigitlarning har birida kamida 10-15 yillik kitobxonlik tajribasi borligi yaqqol körinib turardi.

Kitobxonlik tanlovining qahramonlari erişgan muvaffaqiyatlar tafsilotlari barçaga birdek örnak bölişini e’tiborga olib, ular bilan yaqindan tanişib olişni maqsadga muvofiq deb öyladik.

Jamoa sardori **leytenant Dilşod Safarov**. Qaşqadaryo viloyatining Koson tumani Guvalak qişloğida tuğilgan. Kitobga bölgan mehri onasi orqali aytib berilgan doston va hikoyalar orqali uyğongan. Yoşligida Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” va “Avlodlar dovoni” asarlarini tengdoşlari bilan bahslaşib öqigan. Şuningdek, maktabda öqib yurgan kezlari jahon adabiyoti durdonalaridan köplab asarlarni mutolaa qilgan. Hozirga qadar öqigan kitoblari soni 500 dan ortiq. Uyida kiçik kutubxonasi borligi diqqatga sazovor. Leytenant Dilşod Safarovning harbiy xizmat faoliyati ham ajoyib boşlangan. Muddatli harbiy xizmatni ötab yurgan vaqtlari ham kitobga bölgan iştiyoqi tufayli Qurolli Kuçlar miqyosida ötkazilgan barça tanlovlarda qatnaşib, faxrli örinlarni egallagan. Armiyada erişgan yutuqlari tufayli berilgan imtiyozga asosan, Nizomiy nomidagi Milliy pedagogika universitetining özbek tili va adabiyoti yönalişiga davlat granti asosida talabalikka qabul qilingan. Universitetni ham imtiyozli diplomga tamomlab, Mudofaa vazirligida şartnoma asosida işlay boşlagan. “Yoş kitobxon”, “Yoş kitobxon oila”, “Ajdodlar izidan” tanlovlarida faxrli örinlarni egallagan. Erişilgan yutuqlar tufayli rahbariyat tomonidan ofitserlikka nomzodi körsatilgan. Qisqa qilib aytganda, hozirgaça hayotidagi eng ulkan muvaffaqiyatlarga kitob öqiş orqali erişgani maqtovga loyiq.

III darajali serjant Ğolibjon Azimjonov. Andijon viloyatining Izboskan tumani Döstlik mahallasida tuğilgan. Birinçi öqigan kitobi Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani *(8-sinfda)*. Ğolibjon kitobga qiziqişini opasining oliy ta’lim muassasasiga kiriş imtihonlariga tayyorgarlik körib yurgan jarayonda paydo bölganini ta’kidlaydi. Opasi öz tayyorgarligini mustahkamlaş uçun Pirimqul Qodirov asarlari böyiça savol-javobni ukasi bilan ötkazişi yoş bolakayni adabiyot olamiga qiziqiş uyğotgan. Serjant Ğolibjon Azimjonovni yaqindan taniganlar Olmaliq şahrida joylaşgan harbiy qism kutubxonasining yuragi deb hisoblaydi. Çunki u şarafli kasbini bajarişdan taşqari minglab yoşlarga ziyo ulaşiş mas’uliyatini öz zimmasiga olgan. Harbiy qism oilalar va yoşlar örtasida turli tanlovlar ötkazib kelişda boş-qoş. Bundan taşqari, ijtimoiy tarmoqlarda minglab kitobsevarlardan iborat guruhga boşçilik qiladi. U bilan suhbatlaşgan inson ğazal mulkining sultoni Alişer Navoiy ta’kidlaganidek, bilimning baxt keltirişiga, ilmning yöl körsatişiga, kitob esa bularning birini özida jamlagan xazina ekaniga yana bir marta amin böladi.

III darajali serjant Yigitali Ostonayev. 1997-yil 26-yanvarda Qaşqadaryo viloyatining Kökdala tumani Şamolquduq qişloğida tuğilgan. Birinçi öqigan kitobi *(13 yoşida)* Şarofat Aşurovaning sohibqiron Amir Temurning bolalik paytlariga bağişlangan “Ilohiy tun” romani. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Mirmuhsin, Mirtemir, Oybek singari özbek adabiyoti va jahon adabiyoti durdonalaridan 450 dan ortiq asarni mutolaa qilgan. 2025-yilgi “Ajdodlar izidan” intellektual tanlovida qatnaşib, 2-örinni qölga kiritgan.

Kiçik serjant Xurşid Abdurazzoqov. Sirdaryo viloyatining Oq oltin tumani Ahillik qişloğida tuğilgan. Birinçi öqigan badiiy kitobi “Oq kema” asari *(14 yoşida)*. Undan taşqari, Çingiz Aytmatov, Jorj Oruell kabi jahon hamda Said Ahmad, Abdulla Qodiriy kabi özbek adiblarining 40 qa yaqin asarini öqigan. “Yoş kitobxon”, “Bobur izdoşlari”, “Ajdodlar izidan” tanlovlarining doimiy qatnaşçisi va sovrinli örinlari sohibi.

Kiçik serjant Farrux Sobirov. Jizzax viloyatining Şarof Raşidov tumanida tuğilgan. Birinçi öqigan kitobi Xudoyberdi Töxtaboyevning “Şirin qovunlar mamlakati” asari. 150 dan ortiq detektiv janriga oid asarni mutolaa qilgan. 2025-yili “Ajdodlar izidan” körik-tanlovining Mudofaa vazirligi bosqiçi 2-örin sohibi.

Kiçik serjant Hamidullo Hotamov. Qaşqadaryo viloyatining Kitob tumani Beşariq qişloğida tuğilgan. Birinçi öqigan badiiy kitobi Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan çayon” asari. Bulgakov, Çingiz Aytmatov, Jek London kabi jahon, qardoş xalqlar va özbek adiblarining 300 ga yaqin asarini öqigan. Harbiy qism, qömondonlik, Mudofaa vazirligi miqyosidagi turli tanlovlar sovrindori.

Jamoa boşliği podpolkovnik Farruxbek Sotvoldiyevning qayd etişiça, bu yilgi “Ajdodlar izidan” intellektual tanlovi jarayoni harbiy qismlar, muassasalar va hududiy bosqiçlarida 30 ming nafar kitobxonni özida jamlagan. Mudofaa vazirligi tizimida minglab harbiy xizmatçilar ma’naviyat xazinasidan baxtini, kelajagini qurib kelmoqda. Ana şu minglab iqtidor egalari endi navbatdagi tanlov – “Ma’naviyat qalqoni”da öz bilimlarini namoyon etadi. Qisqa qilib aytganda, kitobxonlik musobaqasida özlarining baxti va kelajagi uçun qadam taşlaydi.

Asror RÖZIBOYEV,
“Vatanparvar”



QUMGA MUHRLANGAN IZLAR

Yetti yoşida qadam qöygan stadion Anvar uçun bir umrlik yöl ekanini kim ham bilibdi deysiz? Bugun şu maydonning har qariçi uçun kuraşib, katta maqsadlar sari intilmoqda. Uzunlikka sakraş böyiça Özbekiston şarafini xalqaro arenalarda himoya qilayotgan Qurolli Kuçlar xizmatçisi Anvar Anvarovning bolalik orzusi, maşaqqatli mehnat va rekordlar bilan yöğrilgan sport yöli bilan yaqindan tanişişga qaror qildik.

OTA BOŞLAGAN YÖL

– Sportga kirib kelişimda otamning örni katta. Yetti yoşda edim. Otam meni stadionga olib borib, yengil atletika bilan şuğullanişimga sababçi bölgan. Öşa kundan boşlab sport hayotimning bir qismiga aylandi. Albatta, bolaligimda bu yöl meni qayerlarga olib borişini bilmaganman. Ammo vaqt ötişi bilan yengil atletikaga qiziqişim kuçaydi, maşğulotlarga bölgan munosabatim ham özgardi.

2013-yilda Respublika Olimpiya zaxiralari kollejiga öqişga kirdim. Bu men uçun katta imkoniyat edi. Kollejda ötgan yillarimni yaxşi eslayman. U yerda sportçi sifatida şakllandim, maşğulotlarga jiddiy qaraşni, intizomli bölişni öz oldimga maqsad qöyib, şu maqsad sari harakat qilişni örgandim. 2019-yilda kollejni tamomladim. Endi oldimda katta sportda öz örnimni topiş vazifasi turardi.

Sportda orzu qilişning özi kamlik qiladi. Orzuga yaqinlaşiş uçun har kuni mehnat qiliş, ba’zan çarçoqni yengiş, ba’zan esa özingdan yanada köproq narsani talab qiliş kerak. Men ham şu yöldan bordim. Har bir maşğulotda özimni keçagidan yaxşiroq körsatişga intila boşladim.

UNUTILMAS ILK MARRA

– Uzunlikka sakraşda tomoşabin köpinça sportçining yugurib kelişi va qumga tuşişini köradi. Ammo bu bir neça soniyalik harakat ortida qança mehnat borligini hamma ham tasavvur qilavermaydi. Tezlik, kuç, texnika, harakatlarni töğri muvofiqlaştiriş – barçasi bir nuqtada jamlanişi kerak. Ba’zan bir neça santimetr ham natijani özgartirib yuboradi.

Men uçun eng esda qolarli lahzalardan biri birinçi marta sakkiz metrlik marradan ötganim böldi. Buni söz bilan ifodalaş qiyin. Çunki bunday natija şunçaki raqam emas. Unda maşğulotlardagi mehnating, intilişlaring va özingga bölgan işonçing mujassam böladi.

2022-yilda Turkiyaning Konya şahrida ötkazilgan V Islom birdamligi öyinlarida 8,01 metr natija qayd etib, ğolib böldim. Bu ğalaba menga katta ruhiy kuç berdi. Özim işlagan, intilib kelgan natijaga erişişning hissiyoti boşqaça ekan. Şu bilan birga, bunday yutuqdan keyin yanada köproq işlaş kerakligini ham tuşunasan. Çunki sportda keçagi natija bilan uzoqqa borib bölmaydi.

YANGI MURABBIY

– 2023-yilda sport faoliyatimda muhim özgariş böldi. Özbekiston Milliy Olimpiya qömitasi va Özbekiston yengil atletika federatsiyasi tomonidan menga e’tibor kuçaytirildi. Şu yili murabbiyim Oleg Anatolyeviç Sergeyev bilan işlay boşladim.

Yangi murabbiy, yangi talablar, yangi maşğulot usullari... Bularning barçasi mendan yanada köproq mas’uliyat talab qildi. Maşğulotlar oson keçmadi. Har bir maşqqa jiddiy yondaşiş, harakatlarimni tahlil qiliş, kamçiliklarimni tuzatiş va jismoniy imkoniyatlarimni oşiriş ustida işlaşimga töğri keldi.

Sportçi ba’zan özini yaxşi his qiladi, ba’zan esa maşğulotlar kutilganidek ötmaydi. Lekin natijaga erişiş uçun kayfiyatga qarab işlab bölmaydi. Intizom bölişi kerak. Murabbiyning talablarini bajariş, berilgan vazifalarni oxirigaça ado etiş va öz mahorating ustida işlaş muhim. Öşa yilgi mehnatlarimiz samara berib, Özbekiston rekordini qayd etdim. Bu natija men uçun alohida ahamiyatga ega. Rekord örnatiş katta quvonç bağişlaydi, lekin u bilan birga mas’uliyat ham ortadi. Endi öz natijangni saqlaş, uni yaxşilaş va yanada yuqori marralarga intilişing kerak.



WORLD ATHLETICS
ULTIMATE CHAMPIONSHIP
MEN’S LONG JUMP ENTRIES

M. TENTOGLOU	8.66M
T. GAYLE	8.69M
B. SARABOYUKOV	8.49M
S. EHAMMER	8.51M
G. BALDÉ	8.46M
M. ZHANG	8.26M
L. BOŠKOVIĆ	8.23M
A. ANVAROV	8.29M

12TH SEPTEMBER'26
ATHLETES PB > = 8.50M

PARIJDAGI KATTA SINOV

– 2024-yilda Parij Olimpiya öyinlarida iştirok etiş nasib qildi. Bu men uçun katta voqea edi. Axir Olimpiya öyinlari har bir sportçi orzu qiladigan maydon. U yerda dunyoning eng kuçli sportçilari bilan bir safda turişning özi katta tajriba.

Bunday musobaqalarda faqat jismoniy tayyorgarlikning özi yetarli emas. Hayajonni boşqariş, mas’uliyatni his qiliş va eng kerakli paytda bor imkoniyatingni körsata oliş ham juda muhim. Maydonga çiqqanda özingga işonişing, har bir urinişga diqqatni jamlaşing kerak.

Men uçun Parij Olimpiadasi katta sportning öziga xos talablarini yanada çuqurroq his qiliş imkoni böldi. Har bir musobaqa nimanidir örgatadi. Muhimi, undan töğri xulosa çiqarib, keyingi startga yanada puxta tayyorlaniş.

ĞALABADAN KEYIN HAM IŞ TÖXTAMAYDI

– 2025-yilda Brilliant liganing bir bosqiçida ğolib böldim. Şu yili Islom birdamligi öyinlarida ham zafar quçdim. Bu natijalar men uçun quvonçli böldi. Lekin ğalabadan keyin ham maşğulotlar davom etadi, oldinda yangi marralar paydo böladi.

2026-yilda Osiyo öyinlarida uçinçi örinni egallab, bronza medalga sazovor böldim. Qit’aning kuçli sportçilari iştirok etadigan musobaqada sovrindor böliş muhim natija. Şu bilan birga, bu kabi startlar raqobat qançalik kuçli ekanini va yanada köproq mehnat qiliş zarurligini körsatadi.

ZABT ETILMAGAN MARRALAR HALI OLDINDA

– Bugun erişgan yutuqlarimni qadrlayman, ammo ular bilan çeklanib qolmoqçi emasman. Oldinda yangi musobaqalar, yangi marralar bor. Men yanada yaxşi natijalar körsatiş, öz imkoniyatlarimni kengaytiriş va Özbekiston şarafini munosib himoya qiliş uçun harakat qilişda davom etaman.

Axir uzunlikka sakraşda faqat qumda qolgan iz emas, ungaça bosib ötilgan yöl ham muhim. Men esa bu yölning hali davom etayotganini yaxşi bilaman.



Sportda şunday ğalabalar borki, ularning qadri medalning rangidan emas, ungaça bosib ötilgan maşaqqatli yöldan bilinadi. Hamma şohsupaga kötariliş lahzasini köradi, ammo bu zafar ortidagi yillar, tinimsiz mehnat va ortga qaytişga çorlagan damlarda topilgan matonat közga körinmaydi.

“BUVIM MENI QAYTARMAGANIDA EDI...”

Bugun xalqaro taekvondo maydonlarida Özbekiston şarafini himoya qilayotgan kiçik serjant Ozoda Sobirjonovaning hayot yöli ham ana şunday saboqlarga boy. Uning orzulari bir vaqtlar qarindoşining taekvondo formasiga bölgan qiziqişdan boşlangan bölsa, bugun Olimpiya öyinlariga yöllanma olişdek ulkan maqsad sari davom etmoqda. Qahramonimiz bilan bolalik orzulari, oila tayançi, harbiy xizmat va yangi marralar haqida suhbatlaşdik.

DOBOK UYĞOTGAN ORZU

– Taekvondoga qiziqişim juda qiziq tarzda boşlangan. Qarindoş opam şu sport turi bilan şuğullanardi. Bir kuni ularnikiga borganimda taekvondo formasi *(dobok)*ni körib, şu qadar qiziqib qolganmanki, menda şu sport bilan şuğullaniş istagi paydo bölgan. Oilam ham meni qöllab-quvvatladi, çempion bölişimni xohladi.

Dastlabki maşğulotlar oson keçmadi. Jarohatlar, çarçoq, natijalarning keçikişi meni ham ortga çekiniş haqida öylaşga majbur qilgan. Ammo vaqt ötişi bilan tuman va viloyat musobaqalarida yaxşi natijalar körsata boşladim. Jizzaxdagi Olimpiya zaxiralari kollejiga kirdim, keyin Respublika Olimpiya zaxiralari kollejida tahsil oldim. 2017-yildan buyon milliy terma jamoa a’zosiman.

BUVINING IŞONÇ KUÇI

– Sportni taşlaşni öylagan paytlarim bölgan. Kutgan natijalarimga erişa olmasam, tuşkunlikka tuşardim. Şunday kunlarda buvijonim: “Öqiysan, davom etasan. Hali hammasi yaxşi böladi”, deb meni ruhlantirardilar.

U kişining işonçi menga kuç bergan. Bugun anglayapmanki, ba’zan insonning hayotini özgartiriş uçun unga işonadigan birgina qalbning özi kifoya. Buvim doimo: “Hozir qiyin bölsa ham, mehnat qil. Hali bu kunlarni eslab, xursand bölasan”, derdilar.

Men uçun bu sözlar şunçaki tasalli emas, hayot qoidasiga aylandi. Erişilgan har bir natija ortida sabr va izçil mehnat borligini angladim.

ŞOHSUPADAGI UÇ RANG

– Osiyo öyinlarida iştirok etiş men uçun alohida voqea böldi. Bu faoliyatimdagi ilk Osiyo öyinlari edi. -67 kilogramm vazn toifasida finalgaça yetib bordim. Hal qiluvçi bahsda eronlik Saghar Şayxlari Moradiyga qarşi kuraşdim. Afsuski, ğalaba qozona olmadim va kumuş medal bilan kifoyalandim.

Şunga qaramay, terma jamoamiz uçun musobaqaning taekvondo bahslaridagi dastlabki medalni qölga kiritganimdan faxrlanaman. Parijdagi “Paris 2026 World Taekwondo Grand Prix” turnirida esa yarim finalgaça yetib borib, Olimpiya çempioni Viviana Martonga 0:2 hisobida imkoniyatni boy berdim va bronza medalga sazovor böldim. Ulan-Batordagi Osiyo çempionati oltin medali ham men uçun katta yutuqlardan biri böldi.

Har bir medalning öz tarixi bor. Men ularni faqat mukofot emas, yillar davomidagi mehnatimning natijasi, kamçiliklarimni anglaş va yanada yuqori marralarga intiliş uçun rağbat deb bilaman.

HARBIY LIBOSGA HAVAS

– Yoşligimdan Vatanga xizmat qilişni, harbiy libos kiyişni orzu qilganman. Dadamning harbiy xizmat davridagi suratlarini körib, ularga havas qilardim. Bugun Mudofaa vazirligi sportçisi sifatida faoliyat yuritayotganim men uçun ana şu orzuning röyobidir.

Sport orqali yurtimiz bayroğini xalqaro maydonlarda kötariş va şu bilan birga Vatanga xizmat qiliş – men uçun katta şaraf. Menimça har bir inson öz kasbi orqali mamlakat taraqqiyotiga hissa qöşişi kerak. Bu nafaqat harbiylarning, balki barça yurtdoşlarimizning burçidir.

HAR BIR ĞALABA ORTIDA OILA MEHRI BOR

– Oilam sportning haqiqiy muxlisi. Ayniqsa, dadam musobaqalarimni muntazam kuzatib boradi. Yutuqlarimdan xursand bölişi, ismimni eşitib faxrlanişlari menga katta kuç beradi.

Ikki ukam bor. Kiçik ukam ham mening izimdan borib, taekvondo bilan şuğullandi va Özbekiston çempioni böldi. Hozir ham öqiş va maşğulotlarni davom ettirib, yangi natijalarga intilyapti.

Musobaqa va yiğinlar sabab oilam bilan kamroq vaqt ötkazaman. Ammo ularning işonçi va duosi doimo men bilan. Ayniqsa, buvijonimning daldalari hayotimda muhim örin tutadi. Har bir ğalabamda oilamning ham mehnati va mehri borligini his qilaman.

KEYINGI MANZIL – OLIMPIADA

– Hozirgi asosiy maqsadim – Olimpiya öyinlariga yöllanma oliş uçun zarur reyting oçkolarini töplaş. Musobaqalar oraliği qisqa, raqobat kuçli. Şuning uçun tiklanişga vaqt kam bölsa ham, har bir bellaşuvga bor kuçim bilan tayyorlanişga harakat qilaman.

Albatta, sport köp narsadan voz keçişni talab qiladi. Lekin tanlagan kasbimni yaxşi köraman. Qiyinçiliklar bölsa-da, mehnat bilan erişilgan natijaning quvonçi özgaça.

Hali oldimda katta maqsadlar bor. Osiyo öyinlari, Osiyo çempionati va xalqaro turnirlardagi yutuqlarim bilan çeklanib qolişni istamayman. Özbekiston bayroğini yanada yuksaklarga kötariş, Olimpiya öyinlarida yurtimiz şarafini himoya qiliş uçun bor kuçimni sarflayman.

Ozoda Sobirjonova uçun qölga kiritilgan medallar – ortda qolgan yölning e’tirofi xolos. Uning nigohida esa hali zabt etilmagan marralar bor. Çunki haqiqiy çempionning eng katta yutuği keçagi ğalabasi emas, bugun ham orzu qilişdan va oldinga intilişdan töxtamasligidir.

Natijalari:

1 karra Osiyo çempioni

8 karra Özbekiston çempioni

Islom hamjihatligi öyinlari – oltin medal

Osiyo öyinlari – kumuş medal

Butunjahon talabalar öyinlari *(Universiada)* – kumuş medal

Butunjahon harbiylar öyinlari – bronza medal

2024-yilgi Parij Olimpiadasi iştirokçisi.

20-21-sahifalar muallifi Şerzod ŞARIPOV, “Vatanparvar”

GERMANIYADA IŞLAMOQÇI BÖLGAN
haydovçilar uçun yangi imkoniyat

Germaniyaning “Global Talent Alliance” va “TSK Logistik GmbH & Co. KG” kompaniyalari rahbarlaridan iborat delegatsiya “Vatanparvar” taşkiloti Toşkent şahri kengaşi tasarrufidagi sportning texnik va amaliy turlari markaziga taşrif buyurdi.



Uçraşuv mobaynida çet ellik mutaxassislar “Vatanparvar” taşkiloti öquv muassasasida turli toifalarda avtomototransport vositalari haydovçilarini tayyorlaş jarayoni, mavjud moddiy-texnik baza, öquv dasturlari va haydovçilik kasbini örgatişga möljallangan innovatsion texnologiyalar bilan tanişdi. Ular, şuningdek, taşkilotning poytaxtdagi öquv avtodromida ham bölib, haydovçilik kasbiga öqitilayotgan fuqarolarning amaliy maşğulot ötaş jarayoniga guvoh böldi.

Delegatsiya a’zolari “Vatanparvar” taşkiloti markaziy kengaşi rahbariyati bilan suhbat davomida Germaniyada vaqtinça faoliyat yuritiş uçun özbekistonlik fuqarolar orasidan turli toifalardagi haydovçilarni tayyorlaş yuzasidan aniq takliflarini ilgari surdi.

Jumladan, “TSK Logistik GmbH & Co. KG” kompaniyasi rahbari Spiridon Kapouranis nemis diyorida qöşma avtomaktab taşkil etiş taklifini berdi. Uşbu avtomaktabda talabgorlarga Germaniya va “Vatanparvar” taşkilotining malakali mutaxassislari tomonidan nemis tili va haydovçilik sohasida dars berilişi, öquv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan haydovçilar avtomatik ravişda iş bilan ta’minlanişi ta’kidlandi. “Bizning kompaniya ayni paytda 1 600 ta avtobus va yuk avtomobili haydovçilariga muhtoj. Kompaniyamiz asosan oziq-ovqat mahsulotlari logistikasi bilan şuğullanişini hisobga olsak, “Vatanparvar” taşkilotiga uning öquvçilari örganişi uçun refrijeratorli fura *(öz muzlatkiçiga ega yarim tirkamali yuk maşinasi)* beğaraz ajratişni rejalaştiryapmiz”, dedi Spiridon Kapouranis.

Muzokara yakunida 2026-yilning dekabr oyida yuqoridagi vazifalarni öz içiga olgan ikki tomonlama şartnoma imzolaş masalasini körib çiqişga kelişildi.

Eslatib ötamiz, 2023-yilning sentabr oyida “Vatanparvar” taşkiloti markaziy kengaşi va Migratsiya agentligi örtasida hamkorlik memorandumi imzolangan bölib, uşbu memorandumning asosiy maqsadi xorijda vaqtinçalik mehnat faoliyatini amalga oşiriş istagida bölgan mamlakatimiz fuqarolarini şartnoma asosida xorijiy mehnat bozorida talab etilgan mutaxassisliklar böyiça öqitiş hisoblanadi.

UÇRAŞUV

KOSONSOY YOŞLARI BILAN OÇIQ MULOQOT

Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi “Vatanparvar” taşkiloti markaziy kengaşi raisi Husan Botirov 200 dan ortiq namanganlik yoş bilan oçiq muloqot ötkazdi. “Vatanparvar” taşkilotining 35 yilligi oldidan Kosonsoy tumani madaniyat saroyida taşkil etilgan uşbu tadbirda yiğilganlarga taşkilotning aholini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalaş, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalaştiriş hamda mehnat bozorida talab yuqori bölgan kasb mutaxassislarini tayyorlaşga doir faoliyati töğrisida ma’lumot berildi. Muloqot qizğin savol-javoblar bilan ötdi.



“Rahbar va yoşlar” uchraşuvi doirasida “Vatanparvar” taşkiloti Namangan viloyati kengaşi tasarrufidagi Kosonsoy tumani öquv sport-texnika markazining belgilangan standartlarga muvofiq qurib bitkazilgan yangi zamonaviy öquv avtodromi foydalanişga topşirildi. Tantanali oçiliş marosimida taşkilot markaziy kengaşi raisi Husan Botirov, tuman hokimi Dilmurod Qodirov va keng jamoatçilik vakillari iştirok etdi.

Tadbir davomida taşkilotning viloyat kengaşi tasarrufidagi öquv muassasalariga yangi xarid qilingan 12 ta “ONIX”, 6 ta “KIA Sonet”, 2 ta “FOTON”, 1 ta “VUM” rusumidagi yengil va yuk avtomobili topşirildi. Endilikda uşbu öquv avtomobillaridan avtomototransport vositalari haydovçilarini tayyorlaş kurslarida “B” va “BC” toifalari böyiça öqiyotgan fuqarolar amaliy maşğulotlarda foydalanadi.

Taşrif buyuruvchilar uchun taşkilotning öquv avtomobillari va sport seksiyalaridan iborat körgazmalari ham taşkil etildi.

KARTING

Respublika kubogi musobaqasida
poytaxtliklar ğalaba qozondi





Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi “Vatanparvar” taşkilotining 35 yilligi munosabati bilan Namangan viloyati Uçqörğon tumanida yoşlar örtasida sportning karting turi böyiça Özbekiston oçiq kubogi musobaqasi ötkazildi.

Unda respublikamiz böylab taşkilot öquv muassasalarida karting böyiça şuğullanib kelayotgan 60 dan ortiq sportçi belgilangan turli masofalarda “Mikro”, “Mini”, “OK junior”, “Super mini”, “KF”, “Junior” *(4 T)*, “Patriot” va “KZ 2” sinflarida bellaşdi.

Qizğin va murosasiz keçgan ekstremal musobaqada “Mikro”, “Mini” va “KZ 2” sinflarida “Vatanparvar” taşkiloti Toşkent şahri kengaşi tasarrufidagi Yaşnobod tumani öquv sport-texnika markazi vakillari Muhammadamin Azizov, Kirill Konyuxov va Amir Hamroyev birinçi örinni egalladi. “Super mini”, “Junior” *(4 T”)* va “Patriot” sinflarida ğoliblik Sirdaryo viloyati sportçilari Matvey Moçalkin, Dilxuşbek Murodov va Ivan Barişevga nasib etdi. “OK junior” sinfida Namangan viloyati vakili Şohjahon Komilov va “KF” sinfida esa taşkilotning Toşkent viloyati kengaşi tasarrufidagi Angren şahri öquv sport-texnika markazi sportçisi Artyom Uşekaga teng keladiganlar topilmadi.

Jamoaviy hisobda birinçi örinni Yaşnobod tumani, ikkinçi örinni Angren şahri va uçinçi örinni Mirobod tumani öquv sport-texnika markazlarining jamoalari egalladi.

Ğoliblikni qölga kiritgan va yuqori örinlarni egallagan sportçilar “Vatanparvar” taşkilotining medal, diplom va sovğalari bilan taqdirlandi.

Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvchi “Vatanparvar” taşkiloti matbuot xizmati

REKLAMA

MUAYYAN REJA — izçil natija



Yoş avlod ma’naviyatini yuksaltiriş hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalaş borasida Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi “Vatanparvar” taşkilotining Surxondaryo viloyati kengaşi tasarrufidagi Jarqörğon tumani öquv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi tomonidan köplab xayrli işlar bajarib kelinmoqda.

Xususan, harbiy-vatanparvarlik ğoyalarini tarğib etiş, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlaş hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantiriş borasidagi yutuqlar şular jumlasidan. Çunonçi, bu yönalişdagi işlar kölamini oşiriş maqsadida tuman hokimligi, harbiy qismlar, mudofaa işlari, maktabgaça va maktab ta’limi bölimlari, Yoşlar işlari agentligi, mahallalar hamda Ma’naviyat tarğibot markazi tuman bölimlari bilan hamkorlikda qator tadbirlar amalga oşirilmoqda.

– Jumladan, “Vatanparvar” taşkiloti taşkil etilganining 35 yilligiga bağişlab, tumandagi 28-, 55-umumta’lim maktablari öquvçilari iştirokida tadbir ötkazildi, – deydi markaz direktori Şuhrat Xöjamqulov. – Albatta, bunday tadbirlarni ötkazişdan maqsad yoşlarimizni ona yurtimizga munosib vatanparvar insonlar bölib kamol topişiga kömaklaşişdan iboratdir.

Ayni paytda markazda “Havo miltiğidan öq otiş”, “Yozgi biatlon”, “Aviamodel” kabi tögaraklar faoliyati zamon talablari asosida taşkil etilgan.

Şu kunlarda taşkilotda “B”, “BC”, “CE” toifali haydovçilar tayyorlaş, şuningdek qayta tayyorlaş va malaka oşiriş işlari ham reja asosida amalga oşirilmoqda.

Jarqörğon tumani ÖSTM NTM jamoasi tumanda istiqomat qilayotgan barça yoşlarni “B”, “BC”, “CE” toifali haydovçilik kurslariga öqişga hamda sportning texnik va amaliy turlari – “Havo miltiğidan öq otiş”, “Yozgi biatlon”, “Aviamodel” kabi seksiya va tögaraklarda şuğullanişga taklif etadi. Maşğulotlar malakali mutaxassislar tomonidan olib borilişi kafolatlanadi.



Jarqörğon tumani Muhiddin Ötanov köçasi, 29-uy. “Vatanparvar” taşkiloti öquv binosi

93 764-16-13

Xizmatlar litsenziyalangan

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oşirilayotgan islohotlarga munosib hissa qöşib kelayotgan Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi “Vatanparvar” taşkilotining Qaşqadaryo viloyati kengaşi tasarrufidagi Çiroqçi tumani öquv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasida yoşlarni har tomonlama yetuk va barkamol qilib voyaga yetkaziş borasida salmoqli natijalarga erişilmoqda.

MARKAZDA QULAY ŞAROITLAR

“A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE”, “D” toifalarga marhamat!

– Albatta, bu borada turli muhim sanalarni kötarinki ruhda ötkazişga bağişlangan tadbir rejasi dasturilamal bölib xizmat qilmoqda, – deydi markaz direktori Lazizjon Rajabov. – Ayniqsa, “Vatanparvar” taşkilotining 35 yilligi munosabati bilan “Vatanparvar” taşkiloti – mening tanlovim!” şiori ostida turli ma’naviy va sport tadbirlari ötkazilayotgani bu yönalişdagi işlarimizning sirasidandir.

Ta’kidlaş örinliki, taşkilotda yoşlar sportning texnik va amaliy turlari bilan şuğullanişlari uçun qulay şart-şaroitlar yaratilgan. “Havo miltiğidan öq otiş”, “Karting”, “Duatlon” kabi seksiya va tögaraklarda 30 nafarga yaqin iqtidorli sportçi muntazam şuğullanmoqda.

Zamon talablari asosida öquv binosidagi sinfxonalar ta’mirlanib, qayta jihozlandi. Şuningdek, zamonaviy rusumdagi öquv-maşq avtomobillari xarid qilindi. Buning natijasida ommaviy kasb xodimlarini tayyorlaş, haydovçilar malakasini oşiriş borasida yaxşi samaradorlikka erişilmoqda.



91 814-44-14
99 551-34-02

ZAMON bilan hamnafas

Ma’lumki, avtotransport sohasining ravnaq topişida ozmi-köpmi haydovçilar tayyorlovçi öquv maskanlarining ham munosib hissasi bor. Jumladan, islohotlar talablaridan kelib çiqqan holda faoliyat körsatayotgan Avtomotohavaskorlar köngilli jamiyati Buxoro şahri öquv avtomobil maktabi jamoasi ham zamon bilan hamnafas bölmoqda.



Taşkilot öquv binosi barça talablar asosida qurilgan bölib, undagi öquv sinf xonalari zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan jihozlangan. Avtomobillar parki esa turli rusumdagi yangi-yangi öquv-maşq avtomobillari bilan ta’minlangan.

– Yaqinda bugungi kun talablaridan kelib çiqqan holda zamonaviy avtodrom barpo etildi, – deydi avtomaktab direktori Şohjahon Maqsudov. – Albatta, avtodromda örnatilgan barça yöl elementlari tinglovçilarning avtomobil boşqariş könikmasini oşirişga xizmat qiladi. Bu yerda asosan xalq xöjaligi uçun “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE” hamda “D” toifali haydovçilar tayyorlanmoqda.

Bölajak haydovçilarga mukammal bilim berişda tajribali öqituvçi va amaliy boşqarişni örgatuvçi-ustalar faoliyat olib bormoqda.

Bugun mamlakatimiz avtomobilsozligida rivojlaniş bosqiçi jadal sur’atlarda davom etayotgan bir vaqtda xalq xöjaligiga malakali haydovçilar zarur. Şu bois amaldagi qoidalarga qat’iy rioya etadigan holda avtotransport vositalarini boşqara oladigan va xalqimizga halol xizmat qiladigan haydovçi yoşlarni tayyorlaşni öz oldimizga maqsad qilib qöyganmiz.

Bundan taşqari, harakat xavfsizligini ta’minlaş vazifalaridan kelib çiqqan holda viloyat IIB JXX YHX boşqarmasi, harbiy qismlar, öquv muassasalari hamda mahallalar faollari bilan örnatilgan hamkorlik ijobiy natija bermoqda.

Buxoro şahri öquv avtomobil maktabi jamoasi barça xohlovçilarni avtomototransport vositalari boşqarişning “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE” va “D” toifalariga öqişga taklif qiladi. Bölajak haydovçilarga mukammal bilim berişda tajribali öqituvçi va amaliy boşqarişni örgatuvçi-ustalar tomonidan dars maşğulotlari olib borilişi kafolatlanadi.

Buxoro şahri Alpomiş köçasi, 5-uy

93 544-74-77; 97 300-75-16

Xizmatlar litsenziyalangan

Akbar ALLAMURODOV

"VATANPARVAR" savoli



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Tabobat allomasi Buqrot *(Gippokrat)*: "Har bir kasal öz yerining giyohlari bilan davolanadi", degan edi. Manbada yozilişiça, siz qay yurtga safar qilsangiz, avval u yerdagi UNDAN iste'mol qiliş tavsiya etiladi. Aytişlariça, bu insonning öşa joy iqlimiga könikişini yengillaştirar ekan.

Savol: Nimaning iste'mol qilinişi insonning öşa muhitga moslaşişiga yordam berişi aytilmoqda?

HIKMAT IZLAGANGA HIKMATDIR DUNYO

SUV UXLAŞI MUMKIN, DUŞMAN UXLAMAYDI...

(Alban xalq maqol va matallaridan)

Bekorçi odam yurgan yeriga ham yuk.

***

Ikki aqlli heç qaçon janjallaşmaydi.

***

Itlar bir-biri bilan ğajişib turganda böri otarga qörqmay hujum qiladi.

***

Içingda yomonlik bölmasa, taşqaridan kirmaydi.

***

Işsiz kun uyqusiz tun olib keladi.

***

Keksaligini anglamagan odamning holiga voy.

***

Kibrli otda yölga çiqib, yayov qaytadi.

***

Kiçkina bolta katta daraxtni yiqitişi mumkin.

***

Qamoqxona tiriklarning mozoridir.

***

Qöyday yuvoş bölsang, börilarga yem bölasan.

***

Qörqsang, haq bölsang ham, yutqizasan.

***

Mixni tejasang, taqadan ayrilasan.

***

Osmonga qarab yurgan çuqurga tuşadi.

***

Piçanimga öt ketgan payt döstlarim bilan tanişdim.

***

Suv uxlaşi mumkin, duşman uxlamaydi.

***

Tulkini ayyorlik bilan tutasan, börini dovyuraklik bilan.

***

Tuhmatçi qotildan yomon.

***

Ögay ona öpganidan öz onang urgani yaxşi.

***

Faqat ota-ona topilmaydi xolos bu bozorda!

"Tirik hikmatlar" kitobidan. Orif TOLIB tarjimasi

Ötgan sondagi savolning javobi: Zamonaviy ta'lim.

Öşa paytda jadidlar millatni zamonaviy ta'lim bilan tarbiyalaş, ularning ongini özgartiriş mumkin deb hisoblagan. Karikaturada mana şu ğoya puxta ifodalangan.

HUQUQIY SAVODXONLIK

4 savolga javob

1. SAVOL: Harbiy xizmatçi qaysi hollarda pensiya oliş huquqiga ega böladi?

JAVOB: Harbiy xizmatçining pensiya oliş huquqi uning xizmat staji, harbiy xizmatdan böşatiliş asosi, egallagan lavozimi va unvoni, şuningdek pensiyaning qaysi turiga da'vogarlik qilayotganiga boğliqdir.

"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti töğrisida"gi qonunning 5-moddasida harbiy xizmatçilar va ularning oila a'zolarini pensiya bilan ta'minlaş şartlari, normalari hamda tartibi qonunçilik bilan belgilangan. Özbekiston Respublikasining harbiy xizmat va pensiya ta'minotiga oid maxsus normativ-huquqiy hujjatlari ham tegişli holatda qöllanadi.

Bunda harbiy xizmatçining şaxsiy yiğmajildi, xizmat yillari, pul ta'minoti va böşatiş töğrisidagi buyruği örganilişi lozim.

Agar pensiya tayinlaş rad etilgan bölsa, rad etişning huquqiy asosi va hisob-kitobi tekşirilişi, har bir şartning bajarilgani hujjatlar bilan baholanişi kerak.

2. SAVOL: Harbiy xizmat stajiga qaysi davrlar qöşiladi?

JAVOB: Harbiy xizmat stajini aniqlaşda xizmat ötalgan davrlarni tasdiqlovçi hujjatlar asos qilib olinadi. Ayrim davrlar uçun imtiyozli hisoblaş qoidalari ham mavjud bölişi mumkin.

1993-yil 3-sentabrdagi 938-XII son "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti töğrisida"gi qonunning 37-moddasi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-son qarori bilan tasdiqlangan davlat pensiyalarini tayinlaş va tölaş tartibi töğrisidagi nizomning 58-, 64- va 65-bandlari.

Mazkur nizomda harbiy xizmatni tasdiqlaş uçun harbiy bilet, tegişli idoralar ma'lumotnomalari va arxiv ma'lumotlaridan foydalaniş nazarda tutilgan.

Bunda xizmat davrlari va imtiyozli hisoblaşga asos böluvçi holatlar alohida tekşirilişi kerak.

Agar xizmat davri hisobga olinmagan bölsa, harbiy bilet, arxiv ma'lumotnomasi va xizmatga oid buyruqlar asosida qayta hisoblaş talab qilinadi.

3. SAVOL: Harbiy xizmatçi pensiyasini hisoblaşda pul ta'minotining qaysi qismlari inobatga olinadi?

JAVOB: Harbiy xizmatçilarning pensiyasini hisoblaşda tegişli qonunçilikda belgilangan pul ta'minoti turlari va hisoblaş tartibi muhim ahamiyatga ega.

"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti töğrisida"gi qonunning 5-moddasida harbiy xizmatçilarning pul ta'minotining barça turlarini hisobga oliş haqida qoida belgilangan. Biroq bu qoida har bir tölov avtomatik ravişda har qanday pensiya hisob-kitobiga kiritiladi, degani emas: konkret pensiya turiga taalluqli maxsus hisoblaş qoidalari ham tekşiriladi.

Şu bilan birga, pensiya hisoblaş uçun taqdim etiladigan pul ta'minoti töğrisidagi ma'lumotnomada tölovlar va ularning davri töliq aks ettirilgan bölişi kerak.

Agar ayrim tölovlar hisobga olinmagan bölsa, ularning huquqiy maqomi, doimiy yoki bir martalik xususiyati va maxsus tartib böyiça hisobga oliniş şartlari aniqlanadi.

4. SAVOL: Harbiy xizmatçi nogiron bölib qolsa, pensiya oliş huquqiga egami?

JAVOB: Nogironlik pensiyasi oliş huquqi qonunçilikda belgilangan asoslar mavjud bölganda yuzaga kelişi mumkin. Harbiy xizmat bilan boğliq holatlarda nogironlikning sababi, yuzaga kelgan vaqti va tibbiy xulosalar alohida ahamiyatga ega. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti töğrisida"gi qonunning 2-moddasi nogironlik pensiyasini davlat pensiyalarining turlaridan biri sifatida belgilaydi.

Qonunning 5-moddasi harbiy xizmatçilarning pensiya ta'minotiga oid maxsus qoidalarni belgilaydi. Tibbiy xulosalar, xizmat bilan boğliqlik töğrisidagi hujjatlar va xizmatdan böşatiliş asoslari örganiladi.

Agar nogironlikning xizmat bilan boğliqligi inobatga olinmagan yoki pensiya tayinlaş rad etilgan bölsa, tibbiy va xizmat hujjatlari asosida qarorning qonuniyligi tekşiriladi.

Zilola NUROVA, huquqshunos

MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Alisher Ergashev
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir vazifasini vaqtincha bajaruvchi: kapitan Bobur Elmurodov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: leytenant Mansurbek Jabborov
Sahifalovchi: Tohirjon Turg'unboyev
Musahhih: Sayyora Meliqo'ziyeva

Buyurtma: V-6219
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 31 720 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot

BIZ HAQIMIZDA

https://gov.uz/oz/mudofaa
t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya